қиёсий ташхисотини ўтказишин ўргатиш. УАШ ни инфекцион ва ноинфекцион характерли сегментар ва бўлакли зарарланиши билан кечувчи ҚВП ва ОП шароитида даволаниши мумкин бўлган касалликлар билан тағништириш. УАШ малакавий даражасидаги олиб бориладиган вазифаларга тегишли саволларни таҳлил қилиш. Медикаментоз ва номедикаментоз даволаш чораларини таҳлил қилиш. ҚВП ва ОП шароитидаги беморларни олиб бориш тактикаси, назорати ва мониторинги принципларини таҳлил қилиш. Ушбу касалликларнинг бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактикаси. Ўпка инфаркти, бўлакли пневмония, инфилтратив туберкулёз ва ўпка инфаркти клиник белгиларини (касалликлар кечишида ўзига хосликлари). Ушбу касалликларнинг ўзаро қиёсий ташхисоти. УАШ тактикаси. ҚВП ва ОП шароитида беморлар диспансер назорати ва мониторинги. Ушбу касалликларнинг бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактикаси.

**Йўтал балғам ажралиши билан. Ўпкани касалхонадан ташқари ва касалхона ичи пневмониясини таққослама ташхис. Зотилжамни келиб чиқишига кўра турлари (бактериал, вирусли, микаплазмозли).
УАШ тактикаси**

Йўтал балғам ажралиши синдроми билан кечувчи касалликларни таққослама ташхис ва замонавий таҳлил масалаларида УАШ га тушунча бериш. Берилган синдром касалликнинг келиб чиқиш ва даражасига кўра клиник бориш особенност, шунингдек соғлиқни сақлаш муассасалари шароитида беморларнинг даволаш принциплари. УАШ зотилжам туберкулома ўпка абцесси ўпка эхинакокида ташхис қўйишга ўргатиш. УАШ ўпка инфилтраи кузатилган беморларда ташхис ва таққослама ташхис қўйишга ўргати. УАШ ўпка инфилтрати билан кечадиган касалликлар рўйхати ва ҚВП ва ОПшароитларида ёки махсус стационарларда даволаниш лозим бўлган касалликлар билан таништириш. УАШ малакаси доирасида иш юритиш тактикаси масаласини муҳокама қилиш. ҚВП ва ОПшароитида беморлар мониторинги ва кузатув принципларини муҳокама қилиш. Кўрсатилган касалликларда бирламчи, иккиламчи, учламчи профилактика принциплари. Зотилжам, туберкулома, ўпка абцесси, ўпка ўсмаси ва эхинакокки клиник белгилари кечиш хусусиятлари даволаш. Уларда таққослама ташхис ўтказиш. УАШ тактикаси. СВП ва СП шароитида беморларни диспансер кузатуви ва мониторинг принциплари. Кўрсатилган касалликларда бирламчи, иккиламчи, учламчи профилактика принциплари.

Йўтал балғам ажралиши билан. Ўпкани думалоқ сояли ўзгаришлардаги таққослама ташхис. Ўчоқли зотилжам, туберкулома, ўпка абцеси, ўпка ўсмаси, ўпка эхинакокки, УАШ тактикаси. Ўпкани диффуз касалликларини таққослама ташхиси. Ўчоқли пневмония, ўпка

силининг гематоген-диссеминирланган шакли, пневмокониоз, ўпка метастази

Йўтал балғам ажралиши синдроми билан кечувчи касалликларни таққослама ташхис ва замонавий таҳлил масалаларида УАШ га тушунча бериш. Берилган синдром касалликнинг келиб чиқиш ва даражасига кўра клиник бориш особенност, шунингдек соғлиқни сақлаш муассасалари шароитида беморларнинг даволаш принциплари.

УАШ зотилжам туберкулома ўпка абцесси ўпка эхинакокида ташхис қўйишга ўргатиш. УАШ ўпка инфилтраи кузатилган беморларда ташхис ва таққослама ташхис қўйишга ўргати. УАШ ўпка инфилтрата билан кечадиган касалликлар рўйхати ва ҚВП ва ОПшароитларида ёки махсус стационарларда даволаниш лозим бўлган касалликлар билан таништириш. УАШ малакаси доирасида иш юритиш тактикаси масаласини муҳокама қилиш.

ҚВП ва ОПшароитида беморлар мониторинги ва кузатув принципларини муҳокама қилиш. Кўрсатилган касалликларда бирламчи, иккиламчи, учламчи профилактика принциплари. Зотилжам, туберкулома, ўпка абцесси, ўпка ўсмаси ва эхинакокки клиник белгилари кечиш хусусиятлари даволаш. Уларда таққослама ташхис ўтказиш. УАШ тактикаси. СВП ва СП шароитида беморларни диспансер кузатуви ва мониторинг принциплари. Кўрсатилган касалликларда бирламчи, иккиламчи, учламчи профилактика принциплари.

Ўпка касаллиги билан боғлиқ бўлган кўкрак қафасидаги оғриқ. Қуруқ ва экссудатив плевритда табақалаштирилган ташхиси. Экссудатив плеврит турлари. УАШ тактикаси

УАВ ни плеврит касалликларда мақбул даволаш услубини танлаш бўйича ўз вақтида диагностика ва табақалаштирилган диагностика саволларига ҳамда “Умумий амалиёт врачининг малакали таснифи” талаблари билан инобатга олинган соғлиқни сақлашнинг бирламчи бўғини шароитида касалларни кўриш асосларига ўргатиш. УАВ ни плеврит билан бирга кечадиган ва ҚВП (ШВП) шароитида ёки махсус стационарларда даволаниши лозим бўлган касалликлар рўйхати билан таништириш. УАВ ни плевритларни олдини олишга, этиологиясига қараб клиник кечадиган хусусиятларга ўргатиш. УАВ ни плевритларнинг ҳар ҳил турларини табақалаштирилган тарзда даволашга ўргатиш (дори-дармонни танлаш, бериш йўллари, давомийлиги, комбинациялар, қўшимча кўринишлар).

УАВ малакали таснифи доирасида иш юритиш услубига доир масалаларни муҳокама қилиш. Даволаш асосларини (дори-дармонга оид бўлмаган ва оид бўлган) муҳокама қилиш. ҚВП ёки ОП шароитларида касалларни кўздан кечириш, мониторинг қилиш ва иш юритиш асосларини

муҳокама қилиш. Плевритларни олдини олишнинг бирламчи, иккиламчи ва учинчи даражали асосларини муҳокама қилиш.

Плевритларнинг клиник кечишлари, этиологияга боғлиқ бўлган ҳолда уларнинг кечиш хусусиятлари ва клиникаси. Плевритларда табақалашни олдини олиш. Плевритлар ҳар хил турларининг бактерияга қарши терапия асослари (дори-дармонни танлаш, бериш йўллари, давомийлиги, комбинациялар, қўшимча кўринишлар), УАВ нинг уларга нисбатан услуби. УАВ услуби. Плевритларни олдини олиш учун шикоятлар ва анамнез маълумотларни таҳлил қила олиш. Лаборатория тадқиқотлари, рентгенограммалар маълумотлари бўйича плевритларнинг ҳар хил турларини олдини олиш, клиникаси бўйича ажратиш. Самараси тасдиқланган дори-дармонларни танлаш.

Хансираш, бўғилиш. Бронхообструкция билан кечадиган касалликларни дифференциал диагностикаси (bronхиал астма, ХОБЛ, ўпка ўсмаси). УАШ тактикаси

Мавзуни асослаш: Кўпчилик беморлар хансираш билан тиббий ёрдамга муружат қиладилар. Ушбу ҳолатда умумий амалиёт шифокори асосий эътибори турли йўтал билан кечувчи касалликларни ташхислашга қаратилган бўлади. Хансираш аниқланган вазиятда УАШ ушбу касалликни ташхислаши, касаллик сабабини аниқлаши ва ушбу беморларга қаерда, қандай тиббий ёрдам кўрсатиш кераклигини хал қилиши лозим.

Укитишнинг максоди: Бронхиал астма ва ЎСОК ни замонавий дифференциал диагностика саволларини УАШ га ўргатиш. “УАШ квалификация характеристикаси” да кўрсатилган касалликларни олиб боришни бирламчи тиббий тизимга ўргатиш.

Укитишнинг вазифалари: УАШ ни ЎСОК клиник кечиши диагностикасини ўргатиш. Хансираш бўғилиш билан кечувчи ўпка касалликларини дифференциал диагностикасини ўргатиш. ҚВП шароити ва ихтисослаштирилган стационарларда даволанадиган хансираш ва бўғилиш билан кечувчи касалликлар ҳақида малумот бериш. УАШ квалификация характеристикаси” да талукли саволларни хал қилиш. Даволаш хусусиятларини ўргатиш. (номедикаментоз ва медикаментоз). ҚВП ва ОП шароитида беморларни кузатиш ва мониторингги хусусиятларини мунозара қилиш. Ушбу касалликларда бирламчи иккиламчи учламчи профилактика хусусиятлари.

Ушбу машгулот талабага уз вақтида ва тугри ташхислаш, хансираш ва бугиш синдроми билан кечувчи касалликларни клиникаси ва лаборатор инструментал текширувлвр натижаларига кура киёсий ташхислаш дастлабки ташхисни куйиш ва беморларни олиб бориш ташхислаш имкониятини беради. УАШ ЎСОК, ЎЕ, БА ни клиник номоён бўлишини, ЎСОК, Дифференциал диагностикаси, уларни дифференциал диагностикаси, нафас етишмовчилик белгилари, УАШ тактикасини билиши лозим.

Хансираш, бўғилиш. Юрак ва ўпка патологиясида хансираш қиёсий ташхисоти. Қон айланиши етишмовчилиги ва ўпка етишмовчилиги. УАШ тактикаси

Мавзуни асослаш: Хансираш, юрак қон – томир ва ўпка касалликларида кўп учровчи симптом ҳисобланади. Қон айланиши етишмовчилиги бу органларни нормал фаолият юритиши учун етарлича қон билан тамирлаб бера олмаслигидан келиб чиққан патологик ҳолат ҳисоблананди. УАШ беморларни тўғри олиб бориши ва адекват дори воситаларини танлаб буюриши учун, энг аввал катта ва кичик қон айланиш доираси етишмовчилиги фарқлари ва ўзига хосликларини ажрата олиши керак. УАШ ни юрак ва ўпка патологиясида хансираш билан кечувчи касалликлар замонавий ташхисоти ва қиёсий таққослаш саволлари билан ўқитиш. УАШ га хансираш ва бўғилиш синдроми билан кечувчи касалликлар дигностикасини ўргатиш. Бронхиал ва юрак астмасининг солиштирма ташхислаш мезонларини УАШга ўргатиш, УАШни хансираш ва бўғилиш синдроми билан кечувчи касалликларда шошилиш ёрдам кўрсатиш ва қиёсий ташхисланган терапияни (дори воситаларини танлаш, дозалаш, юбориш йўллари, давомийлиги, комбинатцияси, ножўя тасирлари) ўргатиш. УАШга меҳнатга лаёқатлилиқни аниқлашни ўргатиш. УАШ фаолияти доирасида саволларни муҳокама қилиш. Даволаш усулларини муҳокама қилиш. (номедикомендоз ва медикомендоз). ҚВП ва ОП шароитида беморлар кузатуви ва мониторинг олиб бориш тамойилларини муҳокама қилиш. Маскур касалликларда бирламчи, иккиламчи ва учламчи прафилактика усулларини муҳокама қилиш.

Ушбу машгулот талабага уз вақтида ва тугри ташхислаш, хансираш ва бугиш синдроми билан кечувчи касалликларни клиникаси ва лаборатор инструментал текширувлвр натижаларига кура қиёсий ташхислаш дастлабки ташхисни куйиш ва беморларни олиб бориш ташхислаш имкониятини беради.

УАШ хансираш ва бўғилиш билан кечувчи касалликлар клиник белгилари, бронхоспазм синдроми аниқлаш, бронхиал ва юрак астмасининг солиштирма ташхислаш мезонлари, хансираш ва бўғилиш синдромида шошилиш ёрдам ва қиёсий ташхисланган терапия, бронхообструктив синдромида УАШ тактикаси, меҳнатга лаёқатлилиқни таниқлаш, УАШ тактикасини, бронхообструкция билан кечувчи касалликлар билан беморлар шикояти ва анамнезини ташхис қўйиш учун қайта анализ қилишни билиши керак.

Модуль 3. Кардиология.

Аритмиялар. Ритм бошқарувчиси миграцияси, синус тугуни холсизлигисиндроми, экстрасистолиялар, ҳамда синус тахикардияси,

брадикардияси, синус аритмияларининг дифференциал диагностикаси. Экстрасистолаларнинг турлари. УАШ тактикаси

Мавзуни асослаш: соғлиқни сақлаш бирламчи тизим шифокорларининг кунлик иш жараёнида суправентрикуляр ритм бузилиши билан кўплаб беморлар учраб туради. Бундай ҳолатларда УАШ нинг асосий эътибори ритм бузилиши билан боғлиқ касалликлар ташхисига ва уларга ҚВП шароитида тиббий ёрам кўрсатишга қаратилган бўлади ёки ихтисослаштирилган марказларга жўнатишдан иборат бўлади. Бу ҳолатлар ушбу мавзуни УАШ тайёрлаш дастурига киртишда асос бўлиб хизмат қилади. Ўқитишдан мақсад:

УАШни ўз вақтида ташхис ва таққослама ташхис, турли хил касалликларда суправентрикуляр ритм бузилишларида оптимал даволаш усулларини танлаш, ҳамда "Умумий амалиёт шифокори квалификациян характеристикаси»да кўзда тутилган соғлиқни сақлаш биринчи звеноси шароитларида беморларни олиб боришга ўргатиш. Ўқитишда Суправентрикуляр ритм бузилиши ташхиси ва таққослама ташхиси саволларини кўриб чиқиш. Суправентрикуляр аритмияли беморлар продемонстрацияси. Суправентрикулярритм бузилишида клиник-лаборатор-инструментал текширувлар натижаларини таҳлил қилиш. Суправентрикуляр аритмияларнинг таққослама ташхисотини ўтказиш.

УАШ ни суправентрикуляр ритм бузилишларида дифференцирлашган даво кўрсатишга ўргатиш. Беморларни олиб бориш тактикасига тегишли саволларни УАШ квалификациян характеристикаси доирасида таҳлил қилиш. Даволаш принципларини таҳлил қилиш (номедикаментоз ва медикаментоз).

ҚВП шароитида беморларни олиб бориш, кузатиш ва мониторинг принципларини таҳлил қилиш. Шу ҳолатларда бирламчи иккиламчи ва учламчи профилактика принципларини таҳлил қилиш. Синус тахикардияси, брадикардияси, синус аритмияси, синус тугун холсизлиги синдроми, ритм бошқарувчиси миграциясининг пайдо бўлиш механизми. инустахикардияси, брадикардияси, синус аритмияси, синус тугун холсизлиги синдроми, ритм бошқарувчиси миграциясининг клиник кўринишлари. Суправентрикуляр ритм бузилишининг таққослама ташхисотини. Суправентрикуляр аритмияларни даволашда қўлланадиган медикаментоз препаратлар, уларнинг фармакодинамикаси вадозировкаси.

ҚВП шароитларида беморларни диспансер кузатуви ва мониторинги асослари. Келтирилган касалликларда бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактика асосларини.

**Аритмиялар. Бўлмачалар ва қоринчалар
титраши, хилпираши (доимий ва пароксизмал), пароксизмал тахикардия,
қоринчаларнинг вақтдан олдин қўзғалиши синдроми қиёсий ташхисоти.
УАШ тактикаси**

Ритм бузилиши билан касалланган беморларнинг кўпчилиги шошилиш ёрдамга мухтож. Бундай ҳолатларда умумий амалиёт шифокирининг хатти-харакати ритм бузилиши билан кечган касаллик ташхисига, тиббий ёрдам кўрсатишга ва бу гуруҳ беморларни ҚВП ёки стационар шароитда даволашни хал қилишга қаратилади. УАШларини тайёрлаш дастурига кирувчи ушбу мавзу бу шарт-шароитларни хал этувчи асос ҳисобланади. УАШни замонавий ташхис ва қиёсий ташхис саволларига, турли касалликларга боғлиқ ритм бузилишларида энг оптимал даво тактикасини танлашга, бундан ташқари соғлиқни сақлашнинг биринчи звеносида касалларни олиб бориш тамойилларига, олдиндан кўриб ўтилган “малакали УАШ тавсифи” талабларига ўргатиш.

Ритм бузилишларининг ташхис ва қиёсий ташхис саволларини кўриб чиқиш. Аритмияли беморларни кўрсатиш. Ритм бузилишли беморларнинг клиник-лаборатор-инструментал текширув маълумотларини муҳокама қилиш. Турли аритмияларнинг қиёсий ташхисини ўтказиш. УАШни ритм бузилишларида дифференцирланган даво кўрсатишга ўргатиш. Малакали УАШ тавсифичегарасига тегишли олиб бориш тактикаси саволларини муҳокама қилиш. Даво тамойилларини муҳокама қилиш. (номедикаментоз ва медикаментоз).

ҚВП шароитида беморларни олиб бориш, кузатиш ва мониторинг ўтказиш тамойилларини муҳокама қилиш. Ушбу ҳолатларда бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактика тамойилларини муҳокама қилиш. Бўлмачалар ва қоринчалар титраши, хилпираши (доимий ва пароксизмал), пароксизмал тахикардия, қоринчаларнинг вақтдан олдин қўзғалиши синдромларининг ҳосил бўлиш механизмларини. Турли ритм бузилишларининг клиник намоён бўлишини. Суправентрикуляр ва қоринчалар ритм бузилишларини қиёсий ташхисоти. Суправентрикуляр ва қоринчалар аритмияларида қўлланиладиган дорилар, уларнинг фармакодинамикаси ҳамда дозалаш тартибини. ҚВП шароитида беморларни диспансер кузатуви ва мониторинги тамойилларини. Ушбу ҳолатларда бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактика тамойилларини.

**Аритмиялар. Синоатриал, бўлмача ичи, атриовентрикуляр ва
қоринча ичи блокадаларида қиёсий ташхисот. УАШ тактикаси**

Юрак қон томир тизими касалликлари билан беморларни кўрилганда кўпинча ўтказувчанлик бузилиши аниқланади. Бу ҳолатда УАШнинг ҳаракати блокадалар билан кечувчи касалликларни ташхислашга, тиббий ёрдам кўрсатишга, ҚВП ёки ОП шароитида даволашга ёки ихтисослаштирилган стационарга юборишга йўналтирилган бўлади. Бу

ҳолатлар ушбу мавзунини УАШ тайёрлаш дастури таркибига киритиш учун асос бўлади.

УАШга “Умумий амалиёт шифокори квалитацион характеристикаси талабларига мос равишда блокадаларни қиёсий ташхислаш, даво тактикасини танлаш, шунингдек, соғлиқни сақлашнинг бирламчи звеноси шароитида беморларни олиб боришга ўргатиш. Синоатриал, бўлмача ичи, атриовентрикуляр ва қоринча ичи блокадаларида, Моргани Адамс Стокс синдромида клиника ва ЭКГ га оид саволларни кўриб чиқиш.

Блокадаларда тез ва режали даволашга оид саволларни кўриб чиқиш. Блокадали беморларда электроимпульс терапия ва кардиостимуляцияга кўрсатмаларга оид саволларни кўриб чиқиш. Блокадали беморларда профилактика, меҳнатга лаёқатлилиқни аниқлаш.

Беморларни ҚВП ёки ОП шароитида олиб бориш, кузатиш ва мониторинг принципларини муҳокама қилиш.

**Артериал гипертензия. Гипертония касаллиги ва буйрак билан боғлиқ артериал гипертензияларнинг қиёсий ташхиси. Хавф омиллари, гипертония касаллиги босқичлари, буйрак билан боғлиқ артериал гипертензияларнинг шакллари (паренхиматоз, реноваскуляр).
УАШ тактикаси**

Беморлар гипертоник криз билан асоратланган гипертония касаллиги ва симптоматик артериал гипертензия сабабли тиббий ёрдам сураб мурожат қилишади. Бу ҳолатда УАШ гипертония касаллиги ва симптоматик артериал гипертензия этиологиясини аниқлаши, ташхислаши, тиббий ёрдам кўрсатиши, ЎВП ва ОП шароитида лозим бўлса, ихтисослашган стационарга юбориши керак. Бу ҳолатлар УАШ тайёрлаш дастурига киритишга асос бўлади.

Талабаларга гипертония касаллиги, буйрак билан боғлиқ АГ, хавфли АГлар хавф омилларини, ташхисотини, қиёсий ташхислашни, даволаш тактикасининг оптимал вариантини, шунингдек УАШ квалитацион характеристикаси талабларида кўрсатилганидек соғлиқни сақлашнинг бирламчи звеноси шароитларида беморларни олиб бориш принципларига ўргатиш. ГК, буйрак билан боғлиқ АГ, хавфли АГни ташхислашга оид саволларни куриб чиқиш.

ГК, буйрак билан боғлиқ АГ, хавфли АГ билан беморларни демонстрация қилиш. Номедикментоз тавсиялар бўйича консултация қилишни муҳокама қилиш.

ЎВП ва ОП шароитида беморларни олиб бориш, кузатув ва мониторинг принципларини муҳокама қилиш. Ушбу касалликларда 1,2,3ламчи профилактика принципларини муҳокама қилиш.

Артериал гипертензия. Гипертония касаллиги ва эндокрин АГни дифференциал диагностикаси. Эндокрин АГ турлари

(феохромацитома, Конн синдроми, Ишенко-Кушинг синдроми, тиреотоксикоз. УАШ тактикаси

АГ сабабли мурожат қилган беморларга уни ташхислашгина эмас, балки сабабини аниқлаш ва тиббий ёрдам кўрсатиш лозим. Бу ҳолатда УАШ артериал гипертензия этиологиясини аниқлаши, ташхислаши, тиббий ёрдам кўрсатиши, ЎВП ва ОП шароитида лозим булса, ихтисослашган стационарга юбориши керак. Бу ҳолатлар УАШ тайёрлаш дастурига киритишга асос бўлади. Талабаларга гипертоник кризлар ва симптоматик АГ, хавфли АГлар хавф омилларини, ташхисотини, қиёсий ташхислашни, даволаш тактикасининг оптимал вариантини, шунингдек УАШ квалификациян характеристикаси талабларида кўрсатилганидек соғлиқни сақлашнинг бирламчи звеноси шароитларида беморларни олиб бориш принципларига ўргатиш. Гипертоник кризлар ва симптоматик АГни қиёсий ташхислашга оид саволларни куриб чиқиш. Гипертоник кризлар ва симптоматик АГ билан беморларни демонстрация қилиш.

УАШ квалификациян характеристикаси диорасида беморларни олиб бориш. Даволаш принципларини муҳокама қилиш (медикаментоз ва номедикаментоз).

ЎВП ва ОП шароитида беморларни олиб бориш, кузатув ва мониторинг принципларини муҳокама қилиш. Ушбу касалликларда 1,2,3ламчи профилактика принципларини муҳокама қилиш. Гипертоник криз ва симптоматик АГ пайдо бўлиш механизми.

Гипертоник криз ва симптоматик АГ клиник кўриниши. Гипертоник криз ва симптоматик АГ ташхиси. Гипертоник криз ва симптоматик АГ турли кўринишлари қиёсий ташхиси.

Артериал гипертензия. Гипертония касаллаги ва гемадинамик ва церебрал АГни дифференциал диагностикаси (бош мия травмалари, вертебробазилар синдром, арахноидит, энцефалит, мия ўсмаси).

УАШ тактикаси

Юрак со АГ сабабли мурожат қилган беморларга уни ташхислашгина эмас, балки сабабини аниқлаш ва тиббий ёрдам кўрсатиш лозим. Бу ҳолатда УАШ артериал гипертензия этиологиясини аниқлаши, ташхислаши, тиббий ёрдам кўрсатиши, ЎВП ва ОП шароитида лозим булса, ихтисослашган стационарга юбориши керак. Бу ҳолатлар УАШ тайёрлаш дастурига киритишга асос бўлади.

Талабаларга гипертоник кризлар ва симптоматик АГ, хавфли АГлар хавф омилларини, ташхисотини, қиёсий ташхислашни, даволаш тактикасининг оптимал вариантини, шунингдек УАШ квалификациян характеристикаси талабларида кўрсатилганидек соғлиқни сақлашнинг бирламчи звеноси шароитларида беморларни олиб бориш принципларига ўргатиш.

Гипертоник кризлар ва симптоматик АГни қиёсий ташхислашга оид саволларни куриб чиқиш. Гипертоник кризлар ва симптоматик АГ билан

беморларни демонстрация қилиш. УАШ квалификациян характеристикаси диорасида беморларни олиб бориш.

Даволаш принципларини муҳокама қилиш (медикаментоз ва номедикаментоз). ЎВП ва ОП шароитида беморларни олиб бориш, кузатув ва мониторинг принципларини муҳокама қилиш. Ушбу касалликларда 1,2,3 ламчи профилактика принципларини муҳокама қилиш.

Гипертоник криз ва симптоматик АГ пайдо бўлиш механизми. Гипертоник криз ва симптоматик АГ клиник кўриниши. Гипертоник криз ва симптоматик АГ ташхиси. Гипертоник криз ва симптоматик АГ турли кўринишлари қиёсий ташхиси.

Семизлик ва АГ. Абдоминал семириш. (Метаболик синдром)

Идентификация муаммолари. Катталарда ёшга нисбатан диагностика омиллари. Виссерал адипотситоз ва бўш ёғ кислоталари. Таснифи. Менежмент ва фармакотерапия. 6 соат. Илова №7.

Ортиқча тана вазни ва семириш аномал ва ортиқча ёғ тўқимасининг тўпланиши бўлиб, соғлиққа салбий таъсир кўрсатади. Қуйида ЖССТ томонидан келтирилган глобал баҳолаш натижалари келтирилган:

- 1,9 миллиарддан ортиқ 18 ёш ва ундан катта ёшли инсонлар ортиқча тана вазнига эга, улардан 600 миллиондан кўпроғи семиришдан азият чекади.
- 2014 йил маълумотларига кўра сайёрамизнинг 13 % (11% эркеклар ва 13% аёллар) аҳолиси семиришдан азият чекади.
- 2014 тил маълумотларига кўра 39% 18 ёш ва ундан катта инсонларда ортиқча тана вазни мавжуд (38% эркеклар ва 40% аёллар).

Семириш ва ортиқча тана вазнининг асосий сабаби – организмга тушаётган овқатнинг энергетик калорияси ва сарф бўлаётган калория орасидаги номуносиблиқдир.

Глобалмасштабларда қуйидагилар кузатилмоқда:

- Таркибида кўп миқдорда ёғ, туз ва шакар сақлайдиган ва кам миқдорда витаминлар, минерал моддалар ва бошқа фойдали микроэлементларни сақлайдиган юқори калорияли озиқ-овқат маҳсулотларига талабнинг ошиши, ва
- Жисмоний фаолликнинг камайиши кам ҳаракатли ишлар сонининг ошиши билан бирга кузатилиши ва урбанизациянинг ўсиб бориши.

Илова №7. Семириш бутун жаҳонда ортиб бормоқда. Ўсиш механизми ва ўзгаришлари сабаби овқатланиш маҳсулотларининг ортиши ва кунлик ўртача калориянинг кам сарфланишидир. Аҳоли ёши ошиши билан тана вазнининг ҳам ортишидан азият чекишади. Тана вазни ортиши ва семизликнинг ошиб бориши ҳозирги кунда ўлимнинг иккинчи муҳим сабабларидан ҳисобланади. Америкаликлар ўртасида 20 ёш ва ундан юқори

ёшда, 154700000 Аҳоли ортиқча тана вазни ва семизликдан азият чекади, шундан 74,8 миллион аёллар (АҲА, 2013). Семизликдан касалланиш иккала жинс орасида бир хилда ошиб бормоқда. Семизликнинг муҳим оқибатларидан нинсулинг ачидамликнинг ошиб бориши ва метаболик синдромдир. Метаболик синдром юрак қон-томир, мия томир касалликларинг хавф омилли ҳисобланади. Метаболик синдромда эквивалент сифатида гиперхолестеринемия аниқланмайди.

Юраксоҳасида оғриқ. ЮИК стабил стенокардия– функционал синфлар (ФК II-IV) ва оғриқ синдроми таққослама ташхисоти. УАШ тактикаси. ЮИК касаллигида диетик стол. Даволаш-диетик столни таркиби ва кўрсатмалар

Юрак ишемик касаллиги (ЮИК)- бу юрак мушакларини кислородга бўлган талаби ва коронар қон томирларидаги қон айланиш орасидаги мувозанатни бузилиши натижасида юзага келадиган юрак фаолиятини бузилиши.

Хавф омиллар. Қуйида санаб ўтилган хавф омиллари мавжуд бўлганда, ушбу касаллик пайдо бўлиш ва асоратланиш эҳтимоли жуда юқори бўлади.

1. *Бошқариб бўлмайдиган ХО:*

- бемор ёши (ЮИК ривожланиш хавфи 40 ёшдан кейин ошиб боради);
- жинси (еркак)
- юрак-қон томир касалликларига наслий мойиллик (беморнинг 55 ёшгача бўлган яқин қариндошларида ЮИК, гипертония касаллиги (ГК) ва уларни асорати мавжуд бўлса);

2. *Бошқариб бўладиган ХО:*

- беморда ва унинг ота-онасида липид алмашинувининг бузилиши мавжудлиги: гиперхолестеринемия (оч қоринда умумий холестерин миқдори 250 мг/дл ёки 6,5 (5) ммол/л дан юқори), гипертриглитсеридемия (қонда триглитсеридлар миқдори 200 мг/дл ёки 2,3 ммол/л ва кўпроқ), гипоалфахолестеринемия (34 мг/дл ёки 0,9 ммол/л) ва уларни бирга келиши;
- АГ мавжудлиги (ҚБ \geq 140/90 мм.сим.уст.);
- Чекиш (мунтазам равишда кунига битта ва ундан кўп сигарет чекиш);
- семизлик (тана вазни индекси \geq 25);
- беморда ва унинг ота-онасида углевод алмашинувини бузилиши борлиги (гипергликемия, қандли диабет (КД));
- гиподинамия (паст жисмоний фаоллик);
- психоемотсионал зўриқиш;
- қандли диабет;
- овқатланиш хусусиятлари;

- касби, ижтимоий аҳволи;
- атроф-муҳит тасири;
- сийдик кислотаси алмашинувининг бузилиши (гиперурикемия).

Бу омилларни эрта аниқлаш ва уларни мумкин қадар бартараф этиш беморлар ҳаёт сифатини яхшилайти ва касалликни асоратланиши ҳамда тўсатдан ўлим хавфини камайтиради. Шунинг учун УАВ улар тўғрисида батафсил малумотга эга бўлиши лозим.

Юрак ишемик касаллигини ишчи классификацияси. ЮИК ни бир қатор таснифлари бўлиб, амалиётда Ўзбекистон кардиологларининг ИВ сиздида қабул қилинган классификация қўлланилади.

ЮИК билан оғриган беморларнинг тахминан 70% да оғриқ жисмоний зўриқиш (тез юриш, юқорига кўтарилиш, оғир юк кўтариш) вақтида пайдо бўлади. Лекин стенокардия хуружларига асаб бузилиши (сиқилиш, жахил чиқиш, кучли хаяжонланиш (жумладан, телекўрсатувлар тасирида), кўрқиш), кўп миқдорда овқат истемол қилиш, совуқ, нам ва шамолли об-ҳаво, кучли хаяжонланиш жинсий алоқа, дорилар қабул қилиши (антиангинал, гипотензив, антиаритмик) тўхтатиб қўйиш, вертикал ҳолатдан горизонтал ҳолатга ўтиш каби омиллар ҳам олиб келиши мумкин. Айрим ҳолларда оғриқ иккинчи даражали аҳамиятга эга бўлиб, беморда ҳаво этишмаслик, кўкрак кафасининг сиқилиши, кескин ҳолсизлик, ўлимдан кўрқиш ҳислари кузатилади.

Хуружлар бир хил даражадаги жисмоний зўриқишда пайдо бўлиб, хуруж вақтида ЭКГда СТ сегменти депрессияси кузатилади. У ўз навбатида беморни жисмоний зўриқишга чидамлилигига кўра тўртта функционал синфга (ФС) бўлинади.

ЮИК ни даволаш коронар қон айланишни тиклаш, миокардни кислородга бўлган талабини тامينлаш, метаболизмини яхшилаш ҳамда юрак-қон томир тизими фаолиятини мувофиқлаштиришга йўналтирилган.

ЮИКни даволашнинг асосий тамойиллари:

1. ЮИК га олиб келувчи ва уни қўзғалишига сабаб бўлувчи хавф омилларини бартараф этишга йўналтирилган умумий соғломлаштириш (номедикомендоз даво) тадбирлари;
2. консерватив- медикомендоз даво;
3. ендоваскуляр усуллар: коронар томир ичи тромбозисис, коронар қон томирларни тери орқали транслюмбал балонли кенгайтириш;
4. жарроҳлик йўли билан даволаш: аорта-коронар шунтлаш ва стентлаш, интеркоронар тромбендоартериоектомия.

Юраксоҳасида оғриқ. ЮИКда да оғриқ синдромини ностабил стенокардиялар (биринчи пайдо бўлган стенокардия, прогрессирланувчи стенокардия, спонтан стенокардия, эрта постинфаркт ва операциядан кейинги стенокардия) такқослама ташхисоти. Ўткир коронар синдром. Хирургик даволашга кўрсатмалар. УАШ тактикаси

Юрак ишемик касаллиги (ЮИК)- бу юрак мушакларини кислородга бўлган талаби ва коронар қон томирларидаги қон айланиш орасидаги мувозанатни бузилиши натижасида юзага келадиган юрак фаолиятини бузилиши.

Хавф омиллар. Қуйида санаб ўтилган хавф омиллари мавжуд бўлганда, ушбу касаллик пайдо бўлиш ва асоратланиш эҳтимоли жуда юқори бўлади. Бу омилларни эрта аниқлаш ва уларни мумкин қадар бартараф этиш беморлар ҳаёт сифатини яхшилайти ва касалликни асоратланиши ҳамда тўсатдан ўлим хавфини камайтиради. Шунинг учун УАВ улар тўғрисида батафсил малумотга эга бўлиши лозим.

Стенокардияни турғун ва турғун бўлмаган (ностабил) клиник турлари фарқланади.

Аксарият ҳолларда ЮИК ва турғун зўриқиш стенокардияси ташхиси бемор сўраб суриштирилган вақтда аниқланиши мумкин. Лекин стенокардияга хос бўлган оғриқ синдроми бўлмаслиги ЮИК ташхисини инкор этиш учун этарлича асос бўла олмаслигини унутмаслик керак.

Шундай қилиб вақти – вақти билан юрак соҳасида оғриқ хуружлари безовта қилиб тўрган ҳар қандай беморда, айниқса кекса ва қари шахсларда ЮИК бор ёки йўқлигини тасдиқлаш учун қатор замонавий лаборатор ва асбобий текшириш тестлари ўтказиш лозим. Қуйида уларнинг асосийларига тўхталиб ўтаемиз.

Стенокардия хуружида биринчи ёрдам. Стенокардия хуружи вақтида тез ёрдам сифатида қуйида санаб ўтилган дори воситаларидан бири қўлланилади.

- нитроглицерин -300-600 мкг. тил остига;
- изосорбид динитрат ҳар 5 дақиқада тил остига 5 мг дан (3 мартагача) 15 дақиқа давомида;
- нитроглицерин дозаланган аэрозол, 1-2 нафас олганда (3 мартагача) 15 дақиқа давомида;
- нитрат қабул қила олмаганда – ҚБ ва пулсни назорат қилган ҳолда нифедипин, 5 мг тил остига ёки чайнашга, β-блокатор гуруҳидан (егилок, метапрополлол) қабул қилиш тавсия этилади.

Шифохонагача бўлган босқичда узоқ давом этувчи стенокардия хуружини бартараф этиш учун юқорида санаб ўтилган дори воситалари билан бир қаторда, базан тез ёрдам сифатида аналгин 50% - 2 мл , димедрол 1% - 1 мл ва папаверин 2% -2 мл аралашмаси ёки баралгин 5 мл, спазмалгон 5,0 м/о юборилади.

Юрак соҳасида оғриқ. Стенокардия ва миокард инфарктида оғриқ синдромининг такқослама ташхисоти (клиник, лаборатор). ЭКГ диагностикаси. УАШ тактикаси

Инфаркт миокарднинг уткир бошланиши билан, огир асосратлар ва юкори леталлик билан характерланади. Максимал леталлик касалхонагача булган даврда биринчи соатларда кзатилади. Шу сабали, УАШ харакатлари инфаркт миокард сабали келиб чиққан кўкрак кафасида огрикларни диагностикасига ва тиббий ёрдам кўрсатишга ва ихтисослштирилган марказларга зудлик билан юборишга каратилиши керак. Бу ҳолатларни ҳисобга олиб, УАШ тайёрлаш дастурига ушбу мавзун кириштишга асос бўлади.

УАШни инфаркт миокард сабабли келиб чиққан кўкрак кафасида огрикларни вақтли диагностикаси саволларига ҳамда, «УАШ нинг квалификациян характеристикаси» талаблари назарда тутилган, соғлиқни сақлашни бирламчи звеноси шароитида беморларни олиб бориш. Инфаркт миокард диагностикаси, унинг боскичига караб клиникаси саволларини куриб чиқиш. Инфаркт миокард беморлани кўрсатиш.

Инфаркт миокардда клиник-лаборатор текширув натижаларини муҳокама қилиш. Инфаркт миокардида ЭКГ диагностикани ўргатиш. УАШ нинг квалификациян характеристикаси талаблар доирасида тактикаси саволларини муҳокама қилиш. Касалхонагача ёрдам асосларини муҳокама қилиш. ЎВП ёки ОП (стационардан чиққанидан кейин) шароитида даволаш (медикаментоз ва номедикаментоз) асосларини муҳокама қилиш.

ЎВП ёки ОП шароитида беморларни олиб бориш, кузатиш ва мониторинги асосларини муҳокама қилиш. Ушбу касалликда бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактика асосларини муҳокама қилиш.

Инфаркт миокард келиб чиқиш механизмини. Инфаркт миокард боскичига караб уни клиник белгиларни. Инфаркт миокард диагностикасини. Кўкрак кафасида огриклар билан кечувчи касалликларни дифференциал диагностикаси, масалан стенокардия ва ИМ.

Юрак соҳасида оғриқ. Миокард инфарктининг турли клиник шакллари ва боскичларининг таққослама ташхисоти (кардиоген шок, ўпка шиши, юрак аневризмаси, Дресслер синдроми. УАШ тактикаси

Инфаркт миокарднинг уткир бошланиши билан, огир асосратлар ва юкори леталлик билан характерланади. Максимал леталлик касалхонагача булган даврда биринчи соатларда кзатилади. Шу сабали, УАШ харакатлари инфаркт миокард сабали келиб чиққан кўкрак кафасида огрикларни диагностикасига ва тиббий ёрдам кўрсатишга ва ихтисослштирилган марказларга зудлик билан юборишга каратилиши керак. Бу ҳолатларни ҳисобга олиб, УАШ тайёрлаш дастурига ушбу мавзун кириштишга асос бўлади.

УАШни инфаркт миокард сабабли келиб чиққан кўкрак кафасида огрикларни вақтли диагностикаси саволларига ҳамда, «УАШ нинг квалификациян характеристикаси» талаблари назарда тутилган, соғлиқни сақлашни бирламчи звеноси шароитида беморларни олиб бориш. Инфаркт

миокард диагностикаси, унинг босқичига қараб клиникаси саволларини қуриб чиқиш. Инфаркт миокард беморлари кўрсатиш. Инфаркт миокардда клиник-лаборатор текширув натижаларини муҳокама қилиш. Инфаркт миокардда ЭКГ диагностикаси ўргатиш.

УАШ нинг квалификациян характеристикаси талаблар доирасида тактикаси саволларини муҳокама қилиш. Қасалхонагача ёрдам асосларини муҳокама қилиш. КВП ёки ОП (стационардан чиққанидан кейин) шароитида даволаш (медикаментоз ва номедикаментоз) асосларини муҳокама қилиш. КВП ёки ОП шароитида беморларни олиб бориш, кузатиш ва мониторинги асосларини муҳокама қилиш.

Ушбу қасалликда бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактика асосларини муҳокама қилиш. Инфаркт миокард келиб чиқиш механизмини. Инфаркт миокард босқичига қараб уни клиник белгиларни. Инфаркт миокард диагностикасини. Қўқрак қафасида оғриқлар билан кечувчи қасалликларни дифференциал диагностикаси, масалан стенокардия ва ИМ.

Юрак соҳасида оғриқ. Турли этиологияли миокардит ва миокардиодистрофиянинг таққослама ташхисоти . ТЕЛА, аорта аневризмаси, перикардитнинг таққослама ташхисоти УАШ тактикаси.

Миокардитлар-юрак мушакларини яллиғланиш қасаллиги. Миокардитлар бирламчи ва иккиламчига фарқланади. Бирламчи миокардитларни кўпроқ турли қўзғатувчилар (бактериялар, вируслар, замбуруғлар, содда хайвонлар, гелминтлар) чақиради. Қўзғатувчи турига қараб миокардитлар спесифик ва носпесифик бўлади. Юрак мушакларини жароҳатланиши қамроқ радиация, токсик моддалар, травмалар таъсирида юзага келади. Бундан ташқари миокардитлар қоллагенозларда (тизимли қизил волчанка, ревматоид артрит, дерматомиозит), ревматизмларда, ўткир пневмонияларда, дори воситалар қасалликларида ривожланади. Қўрсатилган қасалликларда ёки жароҳатланишларда миокардит ривожланиши қасалликни асосий белгиси бўлмайди.

- 1. Миокардитларнинг этиологик классификацияси.** Вирусли миокардитлар. Бактериал миокардитлар. Замбуруғли миокардитлар (қўзғатувчиси Срийптососсус неоформанс). Миокардитлар, содда хайвонлар чақирган: Лайм қасаллиги, токсоплазмоз, хламидияз. Гелминтлар чақирган миокардитлар (трихинеллез, эхинококкоз). Нурли миокардитлар. Токсик миокардит. Посттравматик миокардит. Аллергик миокардит (дорилива паразитар генезли). Қоллагенозларда миокардитлар .

Оғир миокардитларнинг алоҳида шакли фарқланади - Абрамов-Фидлер идиопатик миокардити (миокардитнинг псевдокоронар варианты).

Миокардитларнинг диагностикаси. Осована на наlicии клинических симптомов поражения сердца и результатов дополнительных методов исследования. Юрак жароҳатланиш клиник белгилари ва қўшимча текшириш усуллари натижаларига асосланган.

1.Периферик симптомлар: рангпарлик, лаб сианози, температура кўтарилиши.

2.Юрак қон томир тизими жароҳатланиш симптомлари:

Миокардитларнинг диагностика меъзонлари.

(Кардиологларнинг Нью-Йорк ассоциацияси 1973)

1. Синусли тахикардия.
2. И тон сусайиши.
3. Ритм бузилиши, бедана ритми билан бирга.
4. ЭКГ ўзгариши: бўлмача-қоринча ўтказувчанлигини секинлашиши, (СТ-T) реполяризация бузилиши.
5. Кардиомегалия.
6. Аспартаминотрансферазалар (АсАТ) ошиши.
7. Юрак етишмовчилиги.

Миокардитларнинг асоратлари:

- Ўткир юрак етишмовчилиги (юрак астмаси, ўпка шиши);
- Пароксизмал ритм бузилиши юрак етишмовчилиги билан;
- атриовентрикуляр блокада юрак тўхташи билан;
- перикардит;
- дилататсион кардиомиопатиялар ривожланиши;

Асорат кўпроқ идиопатик миокардит Абрамов-Фидлерда кузатилади (мерсал аритмия, тромбоемболик синдром, прогрессирланувчи юрак етишмовчилиги).

Миокардитларни даволаш. Пархезстол №10 Певзнер бўйича, оғрик синдроми ва юрак етишмовчилиги белгилари йўқолгунча ётоқ режими. Аниқ этиологияда этиотроп даво ишлатилади. Применяется этиотропное лечение при известной этиологии. Ревматик миокардитда қўлланилади- салитсилатлар, баъзида преднизолон; алергик миокардитнинг описторхознинг эрта фазалари фонида празиквантел патогенетик даводан сўнг, тизимли қизил волчанкада - преднизолон ёки преднизолон билан сиклофосфан (метатрексат). Нурли миокардит преднизолон билан даволанади. Симптоматик терапия юрак қон томир етишмовчилигини даволашда, аритмияни профилактикаси ва даволашда, метаболик терапия, ўчоқли инфекциясини санатсиясида қўлланилади.

Оқибати: тузалиш; миокардитик кардиосклероз ритм бузилиши билан ёки юрак етишмовчилиги, дилататсион кардиомиопатия ривожланиши.

Миокардиодистрофия юрак ритми бузилишини, юрак нотекис уришини ва юрак тез уришини сабаби бўлиши мумкин. Шикоятлар билан бир вақтда, гипертрофия ва дилатация сабабли юрак чегараларнинг кенгайиши, юрак тонлар, отчопар ритми, юқориги қисмида ва Боткин нуқтасида систолик шовқинларнинг бўғиқланиши, одатда суст эшитилиши, юмшоқ ва ўзгарувчан тембрда қайд қилинган. миокардиодистрофия клиник ҳолати носпесифик, у кўпроқ ҳолатда миокардит ва кардиосклерознинг атеросклеротик ва миокардитик кўринишга ўхшайди. Шунинг учун ушбу касалликлар учун ўзаро қиёсий ташхис ўтказилади.

Юрак шовқинлари ва кардиомегалия. Юрак чўққисида шовқин борлигини таққослама ташхисот. Функционал (миокардиал, анемик, қон ўзгаришларида, иситмада) ва органик (митрал клапан етишмовчилиги, митралтешик стенози, митрал клапанпролапси, аортал клапан туғма нуқсонлари шовқинларини баҳолаш.

УАШ тактикаси.

Врач биринчи мартаба профилактик курик пайтида юрак чуққисида шовқинни аниқласа, бунда юрак нуқсони белилари номоён бўлади. Бу шовқинлар функционал ёки органик бўлиши мумкин. Бу ҳолатда УАВ нинг диққати шовқинларнинг сабабини аниқлаш, юрак нуқсонлари турларини (органик шовқинлар мавжуд бўлганда). Агар юрак нуқсонлари аниқланадиган бўлса, беморларни ҚВП, ОП ёки махсус стационарга жўнатиш тўғрисида савол туғилади. Шу ва шунга ўхшаш ҳолатлар ушбу мавзуни УАВ тайёрлаш дастурига киритилишига асос бўла олади. Талабалар юрак чуққисидаги ва аортадашовқинларни дифференциал ташхислашни, (органик ва функционал), олиб келувчи сабабларини, шунингдек юракни митрал порокларда ташхислашни ўргатиш.

Кардиомегалия-юрак массасини ва хажмини ошишига айтилади. Камералари 1таси ёки бир нечта камераси катталашиши мумкин. Юракнинг катталиги ва конфигуратсияси жинс ва ёшга боғлиқ. Шунинг учун кардиомегалия нисбий ҳисобланади.

УАШ кўп ҳоларда кардиомегалия билан кечадиган касалликлар билан учрашига тўғри келади. Шунинг учун бу ҳақида чуқур билимга эга бўлиши керак. Турли касалликлар ва ҳолатлар юрак чегараларини кенгайтиши олиб келиши мумкин.

Чин кардиомегалиянинг сабаблари:

ЮИК, ПИКС, МИ, чап қоринча аневризмаси, ГК, КМП, туғма ва ортирилган юрак нуқсонлари, миокардит ва перикардит.

Миокардиодистрофии,ендокрин касалликлар оқибатида юзага келгани.

Електролит бузилишлари билан юзага келганлар.(фосфор ва магний этишмовчилиги)УСКлари, юрак усмалари, оғир анемиялар. СБЕ.

Физиологик кардиомегалия сабаблари:

Ҳомиладорлик ва спортчилар юраги

Псевдокардиомегалия сабаблари:

Перикартга суюқликни эғилиши, диафрагмани юқори жойлашиши.

Экссудатив плевритлар.

Миокардитлар турли - этиологияли юрак мушагини ялиғланиш билан кечадиган касаллигидир.

Диагностика клиник белгилар ва лабораторгасбобий текширишлар асосида қуйилади.

1. Периферик симптомлар: беморлар тери оқарган, лаблари тсианотик, харорати ошган.

2. юрак томир тизими зарарланган белгилари:

- Аксарият ҳолларда миокардитларда оғриқ кўкрак қафасининг чап томонида ёки прекардиал соҳада жойлашади, узоқ давом этиб, руҳий ва жисмоний зўриқиш билан боғлиқ бўлмаган сиқувчи ёки босувчи, яллиғланишнинг ўткир фазали кўрсаткичлари, ритм ва ўтказувчанлик бўзилишлари билан бирга кечади ва нитратлар оғриқни босмайди.
- Обектив белгилар: юрак чўкки турткисини сусайиши, юрак чегараларни кенгайиши, от дупури ритми ва (ёки) систолик шовқин, юрак тонлари буғиқлашиши, қон босими пасайиши.
- Юрак чап қоринча ёки унғ қоринча этишмовчилиги белгилари

Юрак шовқинлари ва кардиомегалия. Туғма юрак нуқсонлари қиёсий ташхислаш. Аортада, аортитдаги нуқсонларда эшитиладиган шовқинларни қиёсий ташхислаш. УАШ тактикаси

Биринчи контактдаги шифокор беморларни профилактик куруви пайтида юраги соҳасида шовқинларни аниқлайди, бу эса юрак нуқсонларини биринчи белгиси ҳисобланади. Бу ҳолатда УАШнинг барча кучи юрак нуқсонининг турини аниқлашга қаратилади. Агар юрак нуқсони аниқланса, шифокор ЎВП ва ОП шароитида даволаниши керак булган беморлар гуруҳини аниқлаши ёки махсуслаштирилган стационарга юбориши лозим. Бу ва бошқа ҳолатлар айнан шу тематикани УАШ тайёрлаш программасига киритишга асос бўлади.

УАШни Туғма юракни ва магистрал томирлар нуқсонларини ташхислаш ва дифференциал диагностика қилиш, даволаш тактикасини оптимал вариантларини танлаш ва ”умум амалиёт шифокорининг квалификацияси”да назарда тутилган бирламчи соғлиқни сақлаш звеносидаги беморларни олиб бориш юлларига ўргатиш. Туғма юракни ва магистрал томирлар нуқсонларини ташхислаш ва дифференциал диагностика қилиш, саволларини куриб чиқиш (ҚАТД, БАТД, ОАЙ (Боталлов йўли), ЎА тешиги торайиши, Фалло тетрадаси, аорта қорарқтацияси).

Туғма юрак ва магистрал томирлар нуқсони булган беморларни намойиш қилиш. Туғма юрак ва магистрал томирлар нуқсонини ташхислашда клиник-лаборатор ва инструментал текширувларни натижаларини таҳлил қилиш. УАШ квалификациян характеристикаси рамкасида беморни олиб боришда тегишли саволврни муҳокама қилиш.

Даво принципларини муҳокама қилиш (номедикаментоз и медикаментоз). ЎВП ёки ОП шароитида беморларни олиб бориш, кузатиш ва мониторинг принципларини муҳокама қилиш. Ушбу касалликларда бирламчи иккиламчи ва учламчи профилактикани муҳокама қилиш.

Юрак шовқинлари ва кардиомегалия. Кардиомиопатиянинг турли хил клиник формалари (дилятацион, рестриктив, гипертрофик, ўнғ қоринчанин аритмоген дисплазияси) да таққослама ташхисот.

Кардиомиопатия, юрак нуқсонлари, ЮИК, гипертония касалликлари ўртасида таққослама ташхисот.УАШ тактикаси

Клиник амалиётда кардиомиопатия ва юрак конфигурацияси ўзгариши билан кечадиган касалликлар катта аҳамиятга эга. Бундай ҳолатларда УАШнинг асосий вазифаларидан бири бундай касалликларни эрта ташхислаш ва ҚВП ва ОП шароитида ёки стационарда даволанадиганларни аниқлашдан иборат. Шунинг учун ҳам бундай касалликлар УАШ тайёорлаш дастурига киритилаган.

УАШни ўз вақтида диагностика ва дифференциал диагностикага қилишга ва юрак конфигурацияси ўзгариши яни турли кардиомиопатиялар билан кечувчи касалликлар ривожланганда оптимал даволаш турини аниқлашга ва “УАШ квалификациян тавсифномаси” талаблари назарда тутган соғлиқни сақлашнинг бирламчи бўғинида беморларни олиб боришга ўргатиш.

Юрак конфегурацияси ўзгариши яни турли кардиомиопатияларда диагностика масалаларини кўриб чиқиш. Юрак конфегурацияси ўзгариши билан кечадиган касалликга чалинган беморларни кўрсатиш. “УАШ квалификациян тавсифномаси”га асосан бундай беморларни олиб боришни кўриб чиқиш. Дорисиз ва дорилар ёрдамида даволашни кўриб чиқиш.

ҚВП ва ОП шароитида беморларни кузатиш ва мониторингини олиб бориш. Бундай касалликларда бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактикани муҳокама қилиш. Юрак конфигурациясини ўзгариш (кардиомиопатия) механизмини. Юрак конфигурациясини ўзгариши (кардиомиопатия) билан кечувчи касалликларнинг клиник намоён бўлишини.

Юрак конфигурациясини ўзгариши (кардиомиопатия) билан кечувчи касалликларни дифференциал ташхисини. Юрак конфигурациясини ўзгариши (кардиомиопатия) билан кечувчи касалликларнинг физикал белгиларини. УАШ тактикасини.

Юрак шовқинлари ва кардиомегалия. Сурункали юрак этишмовчилигини ва ФСни таққослама ташхисоти. УАШ тактикаси

Кўпинча шиш синдроми билан касалланган беморлар умумий амалиёт врачларига мурожаат этишади. Бундай ҳолларда УАШнинг диққат эътибори шиш синдроми диагностикасига қаратилган бўлади. УАШ бундай беморларга тиббий ёрдам кўрсатиши ва ҚВП ёки ҚПшароитида даволаши ёки ихтисослашган стационарга юбориши лозим. Шу ҳолат бу мавзунини УАШ тайёрлаш дастурига киритишга асос бўлди.

Умумий амалиёт врачларини ЮЕ ни ўз вақтида ташхислаш ва қиёсий ташхислашга ўргатиш, физикал маълумотларнинг ўзига хос жиҳатларини тушунтириш ҳамда Соғлиқни Сақлашнинг бирламчи бўғинида “УАШ квалификациян характеристикаси”да кўрсатилган талабларга мос ҳолда

беморни олиб бориш тамойилларини ўргатиш. Касаллик сабабини ВОП топиши, шиш сабабини ва стационарда даво кераклигини билиши.

ЮЕ даволашни УАШ билиши керак. Шиш синдромида УАШ тактикаси. Диуретик ваЮГ қабул қилганда асоратларини билиши шарт. УАШ билиши шарт ЮЕда профилактика, меҳнатга яроқлийликни. УАШ квалификациян характеристикаси рамкасида беморни олиб боришда тегишли саволларни муҳокама қилиш. Даво усулларини муҳокама қилиш (Медикоментоз ва Номедикоментоз).

ҚВП ёки ОП шароитида беморларни олиб бориш, кузатиш ва мониторинг принципларини муҳокама қилиш. Этиология ва патогенез. Қон айланиш етишмовчилигини классификацияси. Уткир ва сурункали қон айланиш етишмовчилигини. Шиш синдромини диагностика ва дифференциал диагностикаси. Юрак, упка, буйрак, ичак, анемияларда шиш синдроми. ТактикаУАШ.

Модуль 4. Гастроэнтерология.

Дисфагия. Эзофагит, рефлюкс-езофагит, склеродермиядаги дисфагия ва қизилўнгач ўсмаларини таққослама ташхисоти. УАШ тактикаси

УАШ дисфагия шикоятлари билан кечувчи касалликларда диагностика қилиш, ҚВП (ОП) шароитида ва ихтисослаштирилган стационарга юбориш. Бу ҳолат УАШларни тайёрлашга қаратилган мавзу ҳисобланади. Дарс беришдан мақсад: турли касалликлар натижасидаги дисфагия ҳолатларида УАШларни диагностикаси ва қисий ташхислаш ва оптимал даволашни “УАШнинг Квалификациян характеристикасига асосан” танлаш.

Талабаларни дисфагия билан боғлиқ муоммоларни ечишга, дисфагия муоммоси билан боғлиқ бўлган ҳолатда ўз вақтида диагностика қилишга, дисфагия билан кечадиган касалликларни бир биридан ажрата олишга, дисфагияси бор беморларни муоммосини хал қилишда билим, малака ва кўникмаларни шакллантириш (маълумот йиғиш, муоммосини аниқлаш, объектив кўрик, беморларга лобаратор - асбобий текширувларни буюриш), талабаларга олиб бориш тактикасини танлашга, беморларга даволаш ва профилактикасини ва уларни ҚВП ва ОП шароитида олиб боришга ўргатиш.

Ўқитишдаги вазифалар. Дисфагиянинг диагностикасидаги саволларни кўриб чиқиш.

Дисфагияли беморларни кўрсатиш. Дисфагияда клиник ва лобаратор-инструментал текширувларни муҳокама қилиш. Дисфагияни дифференциал диагностикасини муҳокама қилиш. УАШларнинг квалификациян характеристикаси асосида беморларни олиб боришни муҳокама қилиш. Даволаш тамойилларини муҳокама қилиш. (номедикаментоз ва медикаментоз). ҚВП ва ОП шароитида олиб бориш, кузатиш ва мониторингни олиб боришни муҳокама қилиш. Ушбу касалликда бирламчи, иккиламчи, учламчи профилактикаси ҳақида муҳокама қилиш.

Ушбу дарс касалликни ўз вақтида ва тўғри ташхис қўйиш, лаборатор-инструментал текширув ва клиникасига асосан дифференциал диагностика ўтказишни, дастлабки ташхисни тўғри қўйишни ўргатиш ва беморларни олиб боришни ўргатади.

УАШ дисфагия сабаби ва механизмини, дисфагиянинг клиник намоён бўлишини, дисфагия диагностикасини, дисфагиянинг дифференциал диагностикасини, УАШ тактикаси, ушбу касалликларда даволаш тамойиллари. (медикаментоз ва номедикаментоз), ҚВП ва ОП шароитида диспансер назорати ва мониторинги принциплари, ушбу касалликда бирламчи, иккиламчи, учламчи профилактикаси ҳақида муҳокама қилиш. билиши керак.

Қориндаги оғриқ. Гастрит ва яра касаллиги (12 б.и ва ошқозон) таққослама ташхиси. УАШ тактикаси

Талабаларни қоринда оғриғи бор беморлар муаммосини синдромал хал қилишга ҳамда УАШ квалификациян тавсифномаси доирасида соғлиқни сақлашнинг бирламчи бўғинида беморларни олиб бориш тамоилига ўргатиш. Таълим беришнинг вазифаси: талабаларни қоринда оғриқ билан боғлиқ муаммоларни ечишга, қоринда оғриқ билан боғлиқ муаммолар бўлганда ўз вақтида ташхислашга, қоринда оғриқ билан кечувчи касалликларни таққослашга, қоринда оғриқ беморлар муаммоларини ечишда керакли билим, малака ва кўникмаларни мукамаллаштириш (маълумот йиғиш, муаммоларни аниқлаш ва физикал кўрик ҳамда лаборатор-инструментал текширув усулларини асосли буюриш), қоринда оғриқ беморларни олиб бориш тактикасини асосли танлашга, ҚВП ва ОП шароитида даволаш-профилактика чораларни ва кузатувни асосли амалга оширишни ўргатиш.

Мавзуни асослаш: Кўпчилик ошқозон ва 12 б. и. яра касаллиги билан оғриган беморлар тиббий ёрдамга дастлаб УВШга мурожаат этадилар. Бундай вазиятда УАШ харакати ҚВП (ШВП) шароитида тиббий ёрдам кўрсатиш учун касалликка ташхис қўйиш ва ихтисослаштирилган стационарга юборишга қаратилган бўлиши керак. Шу ва бошқа ҳолатлар ушбу мавзуни УАШ тайёрлаш дастурига киритишга асос бўлиб ҳисобланади.

Ўқитишдан мақсад: УАШни сурункали гастрит, ошқозон ва 12 б. и. яра касаллигида даволаш тактикасининг оптимал вариантини танлаш ва солиштирма ташхислашга ҳамда “УАШ квалификациян тавсифномаси” талаблари назарда тутган соғлиқни сақлашнинг бирламчи бўғинида беморларни олиб боришга ўргатиш.

Таълим бериш вазифалари: сурункали гастрит, ошқозон ва 12 б. и. яра касаллигини ташхислаш масалаларини кўриб чиқиш, беморларни кўрсатиб бериш. клиник, лаборатор-инструментал текширув маълумотларини муҳокама қилиш. Сурункали гастрит, ошқозон ва 12 б. и. яра касалликлари солиштирма ташхисини ўтказиш. УАШ квалификациян тавсифномаси доирасида олиб бориш тактикаси масалаларини муҳокама қилиш. Даволаш

тамоилларини муҳокама қилиш (номедикаментоз ва медикаментоз). ҚВП ёки ОВП шароитида беморларни олиб бориш, кузатиш ва мониторинги тамоилларини муҳокама қилиш. Шу касалликларда бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактика тамоилларини муҳокама қилиш.

УАШ билиши керак: сурункали гастрит, ошқозон ва 12 б. и. яра касаллигининг келиб чиқиш механизми ва сабабини, касалликларнинг клиник намоён бўлишини, солиштирма ташхисини, уларнинг фармакодинамикасини ва дозалашни, 3 ва 4 компонентли даволашни, Беморларни ҚВП ёки ОВП шароитида кузатиш ва мониторингини, бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактика тамоилларини.

УАШ қила олиши керак: сурункали гастрит, ошқозон ва 12 б. и. яра касаллигини ташхислашда шикоят ва анамнез маълумотларини таҳлил қилишни, клиникаси, лаборатор-инструментал текширув орқали ташхислаш ва солиштиришни, медикаментоз дори воситаларини тўғри танлашни, УАШ тактикасини, даволаш тамоилларини (номедикаментоз ва медикаментоз), беморларни ҚВП ёки ОВП шароитида диспансер кузатув ва мониторинги тамоиллари. Шу касалликларда бирламчи, иккиламчи ва учламчи профилактика тамоилларини.

Қориндаги оғриқ. Сурункали холитсиситит ва сурункали панкреатитга қослама ташхиси. УАШ тактикаси

Оғриқ синдроми – асосий белги. Яллиғланиш жараёни ошқозон ости безини бошчасида жойлашганда оғриқ эпигастрал соҳа ўнг тарафида, ўнг қовурға ёйи остида; 6-9 инчи кўкрак умуртқалари соҳасига узатилади. Яллиғланиш жараёнига ошқозон ости безининг тана қисми қўшилганда оғриқ эпигастрал соҳада жойлашади, дум қисми зарарланганда чап қовурға ёйи остида кузатилади, бунда оғриқлар чап ва юқорига 6-кўкрак умуртқасидан 1-бел умуртқаси соҳасигача тарқалади. Ошқозон ости безини тотал зарарланишида оғриқлар қоринни юқори қисмида белбоғсимон жойлашади.

Сурункали панкреатитни даволаш дастури.

1. Этиологик даво.
2. Сурункали панкреатит яққол кўзиш даврида:
 - а) оғриқ қолдириш;
 - б) ошқозон ости безини секретсиясини камайтириш;
 - в) ошқозон ости бези ферментлари активлигини камайтириш;
 - г) антибактериал ва яллиғланишга қарши терапия;
 - д) ошқозон ости бези йўли гипертензиясини тушириш;
 - е) интоксикация, сувсизланиш, электролит БУТТлишлар ва томирлар етишмовчилигига қарши кураш.
3. Пархез.
4. Ошқозон ости бези ташқи ва ички секретор функциясини тўғирлаш.
5. Ошқозон ости безидаги репаратив жараёнларни кучайтириш.
6. Иммунологик номутаносибликни тўғирлаш.

Allergiya yunoncha suzdan olingan bo'lib, «alos» begona va «ergo» ta'sir suzlaridan kelib chiqqan bo'lib, u organizmga tushgan et eki begona moddalarga javob berish degan ma'noni bildiradi. Bu tushunchani birinchi bo'lib 1904 yilda Avstraliyalik bolalar shifokor i Klemans fon Pirke aniqlagan. Allergologiyada ko'proq ishlatiladigan allergen va antigen tushunchalari mavjud. Allergen bu organizmga allergik reaksiyalar chakiradigan modda xisoblanadi. Organizmga yuborilgan et modda xisobiga allergik reaksiyalar sodir bo'lsa bu allergen xisoblanadi. Organizmga yuborilgan et modda xisobiga immun o'zgarishlar sodir bo'lsa, bu antigen xisoblanadi.

Allergen va antigenlar katta molekulyarligi oksil tabiatliligi va shu organizm uchun boshqa ekanlilik xususiyatiga ega. Ayrim oksil tabiatga ega bo'lmagan katta molekulali moddalar xam allergik reaksiyalar chakirishi mumkin. Masalan: dori moddalari, ximiyaviy moddalar, (brom,yod, xrom, nikel) ayrim oziq-ovqat maxsulotli I oksil tabiatga ega emas, bularni gaptenlar deb aytiladi. Gaptenlar organizmga tushishi bilan immun o'zgarishga olib keladi. Antigen va antitelearning birikishi natijasida komplekslar xosil bo'ladi.

«Idiosinkraziya» bu odam organizmining ba'zi ovqat lar va dori moddalariga nisbatan irsiy ortikcha sezuvchanlik xolati borligi xisoblaniladi, «paraallergiya» bu esa organizmning antigen tabiatga ega bo'lmagan allergenga javob reaksiyasidir.

Xozirgi vaqtda 150 dan ortik allergenlar klinikalarda kullanilmokda bularga usimliklar guli changi, uy changi, xasharotlar, oziq-ovqat maxsulotlari, kimeviy birikmalar saklovchi va x.k. kiradi.

Allergenlar 2 ta katta guruxga bo'linadi «ekzoallergenlar» va «endoallergenlar».

I. Ekzoallergenlar - insonni urab turgan muxitda yashaydi va uz navbatida ular xam kator kichik guruxlarni tashki l qiladi.

1. Oziq - ovqat allergen lari.
2. uy - ruzgor allergen lari
3. Epidermal allergenlar (turli xayvonlarning juni, ot kazgogi)
4. Bakterial allergenlar
5. Zamburugli allergenlar
6. Virusli allergenlar
7. Dori modda allergen lari

8. Gelmintli allergenlar (gijjalari va ularning zaxarlari)
9. Insekt allergenlar (asalari zaxri, chivinlar, xasharotlar ustki kobigi koldig'lari)
10. Sanoat va kasbga oid allergenlar
11. Usimlik guli changlari allergenlari

II. Endoallergenlar - ular sog'lom inson organizmida doimo joylashgan, lekin kalini kobikka uralgan bo'ladi, umumiy qon okimiga tushmaydi, shuning uchun fakat ularni boshqa to'qimalardan ajratib turuvchi tusiklar buzilgandagina uz ta'sirini namoan qiladi. Ulardan eng asosiylari kalqonsimon bezning tireoglobulinni muskul tolalaridagi mielin, kuz gavxari oksili, nerv utkazuvchi tolalar oksili, sperma (urug suko'pligi).

Allergenlarning boshqa tasniflari xam mavjud. A.D.Ado va A.A.Polner (1963) yilda allergen l arni ikkita katta guruxga bo'ladi l ar.

1. Noinfeksion egzoallergenlar (uy - ruzgor allergenlari, usimlik changi, dori moddalari)
2. Infeksion egzoallergenlar (bakteriyalar, zamburuglar, virus l ar). Allergik kasalliklarning rivojlanish mexanizmi 2 ta tipga ajratish taklif etilgan 1970 yilda A.D.Ado tomonidan. Bular:

I. tez sodir bo'ladigan allergik reaksiyalar. Ular odatda allergen organizmga tushgandan 20-40 daqiqa utgach paydo bo'ladi va gumoral (organizmni ichki suko'p muxiti) antitelalar ishtirokida amalga oshadi shuning uchun bu reaksiyalar ximerik reaksiyalar deyiladi.

II. Asta - sekin (suet) rivojlanadigan allergik reaksiyalar ular 24048 soatdan keyin rivojlanadi va okqon xujayralari bilan boglik bo'ladi, shuning uchun ular kitergik reaksiyalar deb nom olgan.

Tez sodir bo'ladigan reaksiyalar asosan B limfotsitlar ishtirokida sodir bo'ladi. Bunda qonda plazmatik xujayralar Ko'payadi, immunoglobulinlarning turli sinfga mansub bo'lgan maxsus antitelalari ishlab chikariladi. Asta-sekin sodir bo'ladigan reaksiyalar imxmunitetning T limfotsitlari orqali amalga oshadi va sensibilizatsiyalangan T limfotsitlar yigilishi bilan xarakterlanadi.

Kumbs va Djella tasniflariga muvofik allergik reaksiyalar 4 ta tipga bo'linadi. I tip - tez sodir bo'ladigan allergik reaksiyalar. Bunda immunoglobulin E miqdori Ko'payadigan anafilaktik allergik reaksiyalari kiradi. Bunda antigenning 2 va undan ortik immunoglobulin E antitelalarining birikishi okibatida mastotsitlarning (antigen bilan antitelaning o'zaro ta'sirlashuvi) buzilishi kuzatiladi, to'qimalardagi tuyingan xujayralarning xamda qondagi bazofillarning buzilishi - bu ularning gistaminga qarshi dori-darmonlar olgan bo'lsa, bu xolda xam bu usul manfiy natija berishi mumkin.

Allergik kasalliklarning aniqlash vositalariga quyidagilar kiradi:

- Allergik anamnez. To'g'ri yigilgan anamnez, ayniksa bolalarda dori allergiyasini aniqlashda muxim axamiyat kasb etadi.
- Allergologik anamnez yigishning bir necha turlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning xar biri uziga xos xususiyatlarga ega. Biz xam anamnez sxemasini ishlab chiqqanmiz va buni kuyida xavola kilamiz.
- Bemorlarning ismi, otasining ismi, tugilgan yili, kuni

Tashxis.

Oilaviy anamnez:

- Otasida
- onasida
- aka-ukalarida
- opa-singillarida
- buva-buvilarida
- xola va xolavachchalarida

dikkinafas (bronxial astma), pichan isitmasi, ya'ni pollinoz, eshakem, Kvinke shishi, nafas yo'llari (rinit, rinosinusit, bronxit, laringit, traxeolaringit, pnevmoniya va b. Allergiyalari, dori-darmonlarga, ovqat ga reaksiya, bod, sil kasalliklari bor ko'pligi surab bilinadi. Onasida xomiladorlik davrining utishi (xomiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmidagi zaxarlanish -

toksikoz) alomatlari, shu davrda Qanday dori-darmonlarni olgani, ovqat lanish tartibi, nimaga boshQorong bo'lgani.

- Tug'ruq... Bolaning ogirligi... buyi...
- Onasi necha oy eki necha yil kukrak berib bokkan. Emizish davrida onaning ovqat lanish tartibi. Boshdan kechirgan kasalliklari va ularga Qanday davo kilingani.
- Kushimcha ovqat lar berish boshlangan vaqt, ovqat larda bolada reaksiya bo'lgan-bo'lmagan ligi. Boshdan kechirgan kasalliklari va ularga Qanday davo kilingani, emlash (ularning vaqti, reaksiya bo'lgan-bo'lmagan ligi).
- Uy sharoitlari. Kiyim boshi, estigi, kurpa – tushagi. Turmushdagi allergenlarning turlari. Antibiotiklar olgan olmaganligi (qachon, qaerda olgan, ularga reaksiya bo'lgan-bo'lmagan ligi haqida ma'lumot), boshqa dori –darmonlar olganmi? Ularga sezgirligi.
- Ekssudativ diatez (eritema. gneys, bichilish, toshmalar tilning jugrofiya xotirasiga uxshash karash boglashi) belgilari.

Qanday ovqatga va qachon reaksiya bo'lgan.

Asosiy shikoyatlari. Boshlanishi, allergik xolatning kurinishlari, allergik xolatning ruy-rost paydo bo'lgan vaqti, kaytalanishi, faslga boglikligi. Allergik xolatningkelib chiqishiga nima turtki bo'lgan (yuqori nafas yo'llari ning shamollashi, zotiljam, ichak ko'pumli kasalliklari, sarik, ovqat allergenlari, emlash vositalari va boshqa sabablar). Keyingi vaqtda Qanday dorilar olgan. Ularning davomlilik, miqdori, olgan soatlari, kiritish yo'llari . Yuqoridagi zikr kilingan allergologik anamnezni yigishda shifokor nixoyatda sabr tokatli bo'lishi lozim. Allergologiya va immunologiya - nisbatan yangi fan, Ko'pchilikning tibbiyotning bu soxasidan xabari ko'pligini inobatga olib, savol-javob vaqtida Ko'p savollarni oddiy qilib tushuntirishga to'g'ri keladi

Allergik sinash usullari.

- Allergik sinash usullari ko'pincha teri yuzida, ikkinchi urinda esa shokli a'zolarga to'gridan – to'g'ri ta'sir qilib o'tkaziladi. Bu sinash usullarini o'tkazishdan oldin bemorni bu tadbirga oldindan tayorlash lozim. Buning uchun bemor amalda soglom bo'lishi, sunggi 2-3 hafta mobaynida organizm sezgirligini pasaytirib yuboradigan dori-darmonlar qabul qilmagan bo'lishi lozim. Agar bemor gormonal dorilar ichgan, gistaglobulin eki allergoglobulinlar olganligi ma'lum bo'lsa, unda sinash usullarini 2 oydan keyin o'tkazish lozim.

Tomchi va suyuqlik bilan o'tkaziladigan sinash.

- Tomchi bilan sinashni doriga allergiya bo'lgan xollarda uning unchalik xatarli emasligini xisobga olib ko'proq qo'llaniladi.
- Bilak yuzasini 70 gradusli spirtda artib, kuriguncha kutib turiladi, so'ngra 1 ml fiziologik eritmada juda past konsentratsiyada eritilgan allergen (tekshirilaetgan dori, antibiotik) dan bir tomchini bilak yuzasiga tomiziladi. Agar bemorda doriga sezgirlik bo'lsa, 20 daqiqa dan keyin tomizilgan soxada kizarish, qavariqsimon shish xamda kichish alomatlari paydo bo'ladi.

Epidermal sinash

- Kulning bilak yuzasidan chechakka qarshi emlaydigan lanset yordamida 1 sm kub kattalikda epidermaning yuza qismi olib tashlanadi. Xudda ana shu soxaga tekshiriladigan doridan 1 tomchi tomiziladi, keyin gistamin va nixoyat sinalaetgan dori eritmasining uzidan xam tomiziladi. Agar tez orada reaksiya yuz bersa, eritmani usha zaxoti artib tashlash kerak.

Skarifikatsiya usuli bilan sinash.

- 70 gradusli spirt eritmasi bilan artilgan bilak terisiga aloxida shprints bilan tekshiriladigan allergen tomiziladi, so'ngra allergen eritma va ketma-ket 0,1% li gistamin tomiziladi. Tomchilar orasidagi masofa 3-4 sm ni tashkil qilishi lozim. Sterillangan skarifikator eki muolaja ignasi yordamida xar bir tomchi ustidan parallel xolda 5 mm uzunlikda tiraladi. Oradan 5-10 daqiqa utgandan keyin paxta tampon yordamida xar qaysi tomchi

qoldig'i artib olinadi. 10 – 20 daqiqa dan sung allergik reaksiya belgilari paydo bo'lsa, maxsus jadval kursatkichi yordamida o'qib, natija eziladi.

Provakatsiya usuli bilan sinash.

Bu usul fakat kasallik alomatlari bo'lmagan vaqtda amalga oshiriladi. Bemorga antibiotik eki boshqa dorilarni tezda yuborishga xaetiy zarurat bo'lsa, bu usuldan foydalaniladi.

Kasallarda ma'lum dorilarga sezgirlik bo'lsa, bu usuldan foydalanish mumkin emas. Agar maktabgacha va maktab eshidagi bolalarga ular anamnezida kullanilaetgan dorilarga allergik sezgirlik borligi ma'lum bulmasa til ostida sinash usulii kullash mumkin. Bu usul quyidagicha amalga oshiriladi: sinalaetgan dori miqdorining 1/5 - Ul qismini yutmasdan til tagida 3-5 daqiqa saqlanadi. Agar til tagida shish, qavariqsimon toshma paydo bo'lsa, dorini usha zaxoti olib tashlanadi.

Trombotsitopenik indeks.

Dori allergiyasini aniqlash maqsadida trombotsitopenik va leykopenik testlarni kullash mumkin. Organizmida sezgirliigi bor bemorlarga usha sezgirlikka moe allergen tushea, trombotsitopenik reaksiya sodir bo'ladi. Trombotsitlar miqdorining kamayib ketishi antigen- antitana urtasida maxsus reaksiyaning okibatidir.

Tekshirish naxorda o'tkaziladi. Bemor barmogidan bir tomchi qon olinib, maxsus laboratoriya buyum oynasi ustida yangi tayerlangan 14% li magniy sulfatning bir tomchisi bilan aralashtiriladi. Trombotsitlar soni allergenni organizmga kiritishdan oldin sanab chiqiladi. Keyin bemorga 30-50 gradus S isitilgan allergenni ichishga eki eyishga beriladi, oradan 30-90 daqiqa utgandan sung qon tomchisi kayta olinib, trombotsitlar soni sanaladi. Ma'lumot uchun trombotsitlarning eng kam foizi olinadi, bu miqdor trombopenik indeks deyiladi.

Trombopenik indeks - trombotsitlar sonining allergenni tanaga kiritguncha va tanaga kiritgandan keyingi farkidir.

Prausnits - Kyustner bo'yicha oshgan sezgilikni passiv o'tkazish usuli.

Bu usul 1921 yilda nemis shifokor lari tomonidan taklif kilingan bo'lib, ular bu usulni uzlari kullaganlar. Ko'pgina mualliflarning fikricha, bu sinash 70 foizdan 100 foizgacha sezgir bo'lib, aniq natija beradi. Bu sinash usuli bolalarda allergik kasallikni aniqlashning boshqa usullarini kullab bo'lmagan xollarda juda kul keladi. Bu sinashning asosi bemor qonida ma'lum allergenga nisbatan paydo bo'lgan antitana -reaginlarning allergik xastaligi bo'lmagan soglom kishida o'tkazishga asoslangan. Buning uchun bemordan olingan qon sentrifugada aylantirilib, zardobi ajratiladi. SHu zardobdan 0,1 ml ni soglom kishining bilak terisi orasiga yuboriladi. 24 soat utgandan sung zardob yuborilgan joyga shubxa kilinaetgan allergendan 0,05 ml yuboriladi. Sinashni solishtirish uchun soglom odam zardobi yuborilgan nuktadan foydalaniladi. Sinash 15 daqiqa dan keyin toshma paydo bo'lishi bilan ulchanadi. Soglom odam zardobi yuborilgan nukta bilan solishtiriladi. Sinashga baho teri orasiga allergen yuborilganda uqiladigan jadval yordamida o'tkaziladi. Qavariqning diametri 4-8 mm dan oshishi kerak. Bu sinash usulining ogirliigi shundaki, bemorning soglom karindosh-uruglarini topish oson emas, ularning Ko'pchiligida u eki bu allergik kasallik bo'lishi mumkin.

Laboratoriya usullari.

Dori allergiyasini aniqlashda laboratoriya usullari juda kimmatli bo'lib, ular radioallergosorbent (RAST), leykotsitoliz reaksiyasi, bazofil leykotsitlar reaksiyasi degranulyasiyasi testi, tuyingan biriktiruvchi to'qimalarning degranulyasiyasi usuli va boshqalardan iborat.

Radioallergosorbent (RAST) usulida qon zardobida kasallikni keltirib chikargan maxsus allergen 1gE aniqlanadi.

RAST usuli Kumbs usulining uzgartirilgan turi xisoblanadi. Bu usulning moxiyati shundaki, kiziktiraetgan allergen kogozi diskka kovalent biriktiriladi. Zardob qo'shilganda zardobda shu allergenga muvofik keladigan 1gE bo'lsa, allergenning antitana bilan boglanishi bilan sodir bo'ladi. Nospetsifik 1gE yuvilgandan keyin 1gE ga qarshi radioaktiv yod bilan nishonlangan antitanalar qo'shiladi. Allergen (kogozi) + spetsifik 1gE + 1gE ga antitanalar kompleksi xosil bo'ladi. Boglanmagan 1gE antitanalar chikariladi. Kompleks radioaktiv ligi gamma-xisoblagichda aniqlanadi. Radioaktivlik qancha yuqori bo'lsa, patsient zardobida shu kadar Ko'p

spetsifik 1gE bo'ladi. Bu usulning afzal tomoni shundaki, bitta allergen bilan test qo'yish uchun atigi 0,05 ml bemor zardobi kerak bo'ladi.

Leykotsitoliz reaksiyasi.

Allergik reaksiyalarda leykotsitlar miqdorining kamayishi Ko'p yillardan buen ma'lum.

1956 yilda Biak leykotsitlarning xalokatga uchrash xolatini allergik kasalliklarni aniqlashda kursatkich bula olishini isbotlab berdi. Bunda maxsus lyuminessent mikroskop yordamida allergenlar ta'sirida leykotsitlarning emirilishi xolati kuzatiladi. Bazofil leykotsitlarning degranulyasiyasi.

Tez utadigan allergik (ximergik) xolatlarda sodir bo'ladigan atopik kasalliklarda to'qimalarning tuyingan xujayralari va qon bazofillari emiriladi, xatto erib xam ketadi. Ana shu emirilish va erish (lizis) jaraenida biologik (gistamin, bradikinin, serotonin va b.) moddalar ajralib chiqadi.

SHelli 1962 yilda antigen-antitana urtasida sodir bo'ladigan jaraenda bazofillarning emirilib, erib ketishini allergik xastaliklarni aniqlashda kullashni taklif kildi. Bu usulning ikki kurinishini (to'gridan-to'gri va bilvosita) allergik kasalliklarni aniqlashda kullash yulga kuyilgan bo'lib, bu usul fanga SHelli testi nomi bilan kiritilgan. Bu reaksiyani qo'yish uchun allergen, bemorning qon zardobi xam da soglom kuen zardobi bo'lishi lozim.

A.A.Polner bu reaksiyani 3 bosqichga bo'ladi:

1. yashirin davr (10-15 daqiqa) jaraenning tezlashish vaqti (15-20 daqiqa)
2. to'qimalarning nisbiy tinch xolatga kaytish davri.

Tuyingan biriktiruvchi to'qimaning degranulyasiyasi usuli.

Ma'lumki, SHelli usulini kullashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelinadi. Ana shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida professor L.M.Ishimova (1971) tuyingan biriktiruvchi to'qimalarning degranulyasiyasi usulini taklif kildi. Bu laboratoriya usulini yulga qo'yish uchun quyidagilar lozim. komplement - odamning yangi olingan qon zardobi: minutiga 1500 marta aylanadigan sentrifugada tayerlangan atopik dikkinafas (astma), polinozli bemordan tayerlangan usimlik changi, epidermal, maishiy allergenlariga qarshi qon zardobi, xamma turdagi allergenlar. Degranulyasiyaga uchragan to'qimalar mikroskop osti da sanaladi: suet musbat (+) - 10 -20 % xalokatga uchragan to'qimalar. O'rtacha (++) - 21 - 40 % xalokatga uchragan to'qimalar. U ta musbat (+++) - 40 % dan ortik xalokatga uchragan to'qimalar.

Interfaol usul :Miya shturmi

Uslubning asosiy koidalari:

- Goya xosil qilishga xalakit beruvchi xech Qanday tanbex va tankidiy fikr bildirmaslik
- Eng Ko'p miqdorda takliflar olish
- Goyalar kombinatsiyasi va ularni rivojlantirish
- Keng baen kilmay qisqacha fikr bildirish
- Guruxlarni goya ishlab chiqaruvchilarga va ularga ishlov beruvchilarga ajratish

O'qituvchi guruxdagi xar bir talabaning muxokamada ishtirokini kuzatib boradi. Birorta xam javob to'gri eki noto'gri deb sharxlanmaydi. Xamma variantlar tugagandan sung muxokamani boshlash mumkin.

Savollar:

1. Allergen nima?
2. Antigen nima?
3. Idiosinkraziya suzini tushintirib bering
4. Idiopatiya suzini ma'nosi
5. Provokatsion sinamalarni sanab o'ting
6. Teri sinamalarni sanab o'ting
7. Ingalyasion sinamalar nima maqsadda qo'llaniladi
8. Applikatsion sinama qaysi sinamaga kiradi
9. Prausnits-Kyustner sinamasi bajarilish texnikasi
10. Gapten nima?
11. Allergologiyada laborator usullarni kullash
12. Trombotsitopenik sinama allergiyani qaysi turiga qo'llaniladi

13. Skarifikatsiya usuli bilan sinash
14. Epidermal sinash usuli texnikasi
15. Tomchi va suyuqlik bilan o'tkaziladigan sinamalarni texnikasi

Multimedia va slydlar:

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Ado A.D. CHastnaya allergologiya. M.1976
 Nazarov A.A. Atopicheskaya bronxialnaya astma. T.1994
 Nazarov O.A., YUldasheva F.U. Allergologiya. T.2001
 Piskiy V.I. Allergicheskie zabolevaniya.
 Allergicheskie bolezni, Pod red.CHuxalina(per s angl) M.2000
 Globalnaya strategiya lecheniya i profilaktiki bronxialnoy astmi 1990
 Natsionalnaya programma «Lechenie i profilaktika bronxialnoy astmi u detey i vzroslix».
 Prakticheskoe rukovodstvo dlya vrachey obshey praktika, allergologov. Tashkent1998
 Studenkin M.YA. Balabolkin I.I. Allergicheskie bolezni u detey. M. 1998.
 Fedoseev G.B., Ubaydullaev A.M., Rannyaya diagnostika i pervichnaya
 profilaktika bronxialnoy astmi. T. 1989.
 Meditsinskie standarty osnovnix allergicheskix zabolevaniy (pod
 redaksiyey professora A.A.Nazarova) Tashkent 2004.
 Internet saytlari:
 w.w.w. allergologi .ru
 w.w.w. lechvrach.ru.

2-mavzu. Allergik kasalliklarda kechiktirib bo'lmaydigan xolatlar. Tashxislash, taqqoslash va yordam ko'rsatish. Umumamaliyot shifokori taktikasi. Oldini olish tadbirlari.

1.1.Ma'ruza mashg'ulotning texnologik modeli

| | |
|-------------------------------------|--|
| Mashg'ulot vaqti -2 soat | Talabalar soni : 18-24 gacha |
| Mashg'ulotning shakli | Ma'ruza axborot ma'ruza, slayd ma'ruza, multimedia ma'ruza shaklida |
| Mashg'ulotning rejasi | 1.Kirish 2. Bronxial astma epidemiologiyasi 3. Bronxial astma turlari 4. Bronxial astma tasnifi 5. Bronxial astma klinikasi 6. Bronxial astma profilaktikasi 7. Xulosa |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi | Maqsadi yoritiladi. Ta'limiy: Bronxial astma, etiologiya, patogenez, klinika, davolash va profilaktikani tushuntirish Tarbiyaviy: 1. Talabalarga bronxial astma tarkalishini tushuntirish 2. Bronxial astma turlarini talabalarga tushuntirib berish 3. Bronxial astma haqida ma'lumot berish 4. Bronxial astma klinikasini tushuntirish 6. Bronxial astma profilaktikasi haqida ma'lumot berish |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, darslik, ma'ruza matni, proektor, kompyuter, multimedialar |
| Mashg'ulot uslubi | Axborotli, suxbat, ommaviy, jamoaviy |

| | |
|------------------------|--|
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

1.2 Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyatining mazmuni | |
|---|--|---|
| | Ta'lim beruvchi | Ta'lim oluvchilar |
| Tayyorgarlik bosqichi (5 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish | Talabalar |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1. Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi 2. Mavzu bo'yicha savollar beradi. | Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar |
| 2.Asosiy bosqich (55 daqiqa) | 1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi | Tinglaydilar Tinglaydilar |
| 3.YAkuniy bosqich (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi | Tinglaydi |
| 4.Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar (5 daqiqa) | 1. Mustaqil ish beradi 2. Uyga vazifa beradi | Yozib oladi Yozib oladi |
| Jami: 90minut-2soat | | |

Mavzu bayoni: Bronxial astma, etiologiya, patogenez, klinika, davolash va profilaktika

So'nggi yigirma yil ichida astma bilan kasallanish holatlari ko'paydi va bugungi kunda astma ta'siridan taxminan 300 million kishi aziyat chekadi. Bu jins va yoshdan qat'iy nazar, insonlarda eng keng tarqalgan surunkali kasalliklar sirasidan. Bronxial astma bilan kasallanganlar orasida o'lim darajasi juda yuqori. So'nggi yigirma yil ichida bolalardagi bronxial astma holatlari ortib borishi bunday hoaltni nafaqat kasallik, balki ijtimoiy muammo deb qarashga undamoqda va unga qarshi kurash uchun maksimal kuchlar qaratilgan. Nafas qisilishi xurujlari turli tezliklarda kuzatiladi, ammo *remissiya* bosqichida (surunkali kasallikning vaqtinchalik yengillashishi) ham havo yo'llarida yallig'lanish jarayoni saqlanib qoladi. Bronxial astmada havo oqimining buzilishida quyidagi tarkibiy qismlar yotadi:

- Bronxlarning silliq mushaklarining spazmlari yoki ularning shilliq qavatining shishishi tufayli nafas olish yo'llarining to'silib qolishi.
- Nafas olish yo'llarining shilliq osti bezlari giperfunktsiyasi sababli sekretsiyasi tomonidan bronxlarning to'silib qolishi.
- Bronxial devorda sklerotik o'zgarishlarga olib keladigan, kasallikning uzoq davom eitishi natijasida bronxnning mushak to'qimasini biriktiruvchi to'qimaga almashishi.

Murakkablikka qaramasdan bronxial astma yaxshi davolanadi, buning natijasida doimiy va uzoq muddatli remissiyaga erishish mumkin. Bemorlar o'z holatini doimiy nazorat qilishi ularni nafas qisilishi xurujlari boshlanishini oldini olish, kamaytirish yoki xurujalrni bartaraf etish uchun yordamchi dorilarni qabul qilishlardan halos etadi, shuningdek, faol hayot tarzi olib borish

imkonini beradi. Bu o'pka funksiyasini saqlab qolishga va asoratlar xavfini to'liq bartaraf etishga yordam beradi.



Kasallik tarixi

Gippokrat zamonida (miloddan avval) ham ayni bahor kezlarida o'simliklar changining atrofga tarqalib kishilarda allergiya qo'zg'ashi ma'lum bo'lgan. Lekin u vaqtlarda allergiya holatidan hech kimning xabari yo'q edi. Gippokrat nafasi qisib qolgan bemorlarga efedra giyohini yoqib tutunidan hidlash zarurligini tavsiya etgan.

Abu Bakr ar-Roziy "Tibbiyotga doir mukammal kitob" asarida bironxial astma alomatlarini batafsil bayon etib ba'zi gullarning va ayrim ovqat mahsulotlarining bu kasallikka sabab bo'lishini ko'rsatib o'tadi. Keyinchalik esa Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" ning uchinchi kitobida astma to'g'risida so'z yuritib, bu kasallik xurujlari boshlanishida tabiiy va iqlimiy omillarning ahamiyati katta ekanini qayd etadi. Nafas qisishi xurujlarining badan terisiga toshma toshishi bilan birga davom etishini ham ibn Sino birinchi bo'lib kuzatgan.

O'n sakkizinchi asrda bir qancha olimlar astmani "asabiy holatlar natijasida o'pkaning tirishib qisilishidan" boshlanadigan alohida bir turdagi hansirash deya fikr bildirishgan. Rus terapevti Sokolskiy fikriga ko'ra xurujlar asosan kechalari, ya'ni odamning his-tuyg'ulari junbushga kelganda vegetativ asab tizimi qo'zg'alishi natijasida tutib qoladi, bu ko'pincha bronxial astmaning psixonevroz holati sifatida talqin etiladi.

O'n to'qqizinchi asr boshlariga kelib avstriyalik pediater shifokor Pirke "allergiya" atamasini klinik amaliyotga birinchi marta joriy etdi. Pirke ko'pgina kishilarning organizmi befarq bo'ladigan moddalarga nisbatan ayrim odamlarning organizmi o'ta sezgir bo'lishini payqadi. Uning ta'kidlashicha astma allergik kasallik hisoblanib, bu – organizmning ayrim ta'sirlarga javob odatdan tashqari, ya'ni boshqacha tarzda javob berishidir.

Bronxial astma etiologiyasi

Astmani rivojlantiruvchi eng xavfli omillarga ekzogen allergenlar hisoblanadi. Laboratoriya sinovlari astmatik bemorlarda va xavf guruhidagi insonlarda allergenlarga sezuvchanlik yuqori darajada ekanligini tasdiqlaydi.

Eng keng tarqalgan allergenlarga bu maishiy allergenlar — uy va kitob changi, shuningdek, akvariumdagi baliqlar ozuqasi, uy hayvonlari qazg'oqi, o'simlik tabiatli allergenlar va nutritiv deb ataluvchi oziq-ovqat allergenlarni sanaladi. Bronxial astmadan aziyat chekuvchi bemorlarning 20-40 foizida dori-darmonlarga, 2 foizida salbiy ta'sir qiluvchi ishlab chiqarish joylarida ishlash, masalan parfyumeriya do'konlarda ishlash natijasida allergiya muztiladi.

Infektsion omillar ham bronxial astma patogenezida muhim bo'g'in hisoblanadi, chunki mikroorganizmlar, ularning metabolik mahsulotlari allergen sifatida ta'sir qilishi va shu sabab sensibilizatsiyaga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, infeksiya bilan doimiy aloqada bo'lsih bronxial yo'llarning yallig'lanishini faol holatda ushlab turadi.

Gapten allergen deb atalmish, oqsil tuzilishli bo'lmagan allergenlar inson organizmiga tushishi va uning oqsillari bilan bog'lanishi natijasida ham allergik xurujlar yuzaga kelishi va bronxial astma xavfini oshiradi. Sovuq qotish, nasliy tarix va stress holatlari kabi omillar ham broxial astma etiologiyasida muhim o'rin tutadi.

Bronxlarning o'zgarishi asosida organizmning **sensibilizatsiyasi** (sezuvchan bo'lib qolishi) yotadi. Anafilaksiya shaklida kechuvchi tezkor allergik reaksiyalar natijasida organizm **anitanalar** ishlab chiqaradi va o'sha allergen qayta kuzatilsa tezda **gistamin** chiqarilishi yuzaga keladi, u esa bronx shilliq qavatining shishishiga va va bezlarning gipersekretsiyasiga olib keladi. Immunokompleks allergik reaksiyalar va kechiktirilgan sezuvchanlik reaksiyalari shunga o'xshash tarzda rivojlanadi, ammo sustroq alomatlar bilan namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda qondagi kalsiy miqdori ham moyillik omili sifatida qaralmoqda, chunki ortiqcha kaltsiy spazmga olib kelishi mumkin, shu jumladan, bronxial mushaklar spazmlarini ham.

Nafas qisilishi natijasida vafot etganlarning patologoanatom tekshiruvlarida bronxlarning yopishqoq, quyuq shilliq bilan to'liq yoki qisman to'silib qolishi va nafas chiqarish qiyinchiligi tufayli emfizematoz o'pka kengayishi qayd etiladi. To'qimalarning mikroskiopda tekshirilishi shunga o'xshash tasvirni beradi — qalinlashgan muskul qavati, gipertrofiyalangan bronxial bezlar, bronxial devorlarning infiltratif, deskvamatsiyalangan holati.

Bronxial astma tasnifi

Yuzaga kelishi bo'yicha:

- Allergik bronxial astma
- Noallergik bronxial astma (allergik bo'lmagan)
- Aralash bronxial astma
- Aniqlanmagan bronxial astma

Og'irlik darajasi bo'yicha:

- Intermittiv, ya'ni davriy
- Yengil darajadagi persistiv
- O'rta darajadagi persistiv

- Og'ir darajadagi persistiv

Holati bo'yicha:

- Kuchayishi
- Remissiya
- Beqaror remissiya
- Barqaror remissiya

Nazorat darajasi bo'yicha:

- Nazorat ostida
- Qisman nazorat qilinadi
- Boshqarib bo'linmaydigan

Ya'ni, bronxial astma bo'lgan bemorning tashxisini yuqorida keltirilgan xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, «Allergik bo'lmagan bronxial astma, davriy, nazorat ostida, barqaror remissiya bosqichida».

Bronxial astma alomatlari va belgilari

Bronxial astmada nafas qisilishi xurujlari uch bosqichga bo'linadi:

- Qo'zg'atuvchi ta'siri davri;
- Avj olishi davri;
- Orqaga rivojlanish davri.

Qo'zg'atuvchi ta'siri davri infeksiyon-allergik tabiatga ega bronxial astmatik bemorlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi: burun-halqum a'zolari tomonidan vazomotor reaksiyalar (burun oqishi, tinimsiz akse urish).

Ikkinchi davr (u to'satdan boshlanishi mumkin) ko'krak qafasidagi torlik hissi bilan ifodalanadi, bu erkin nafas olish imkonini bermaydi. Nafas olish keskin va qisqa bo'lib, nafas chiqarish uzoq va shovqinli bo'ladi. Nafas olish baland ovozli xirillash, yopishqoq balg'amli yo'tal yuzaga kelib, bu nafas olish aritmiyasini keltirib chiqaradi.

Xuruj paytida bemorning holati majburiy, u odatda, oldinga egilgan holda o'tirib, tirsaklarini tizzalariga tirashga harakat qiladi. Yuzi shishib ketadi va nafas chiqarish vaqtida bo'yin venalari shishadi. Xurujning og'irligiga qarab, nafas chiqarishdagi qarshilikni yengishga yordam beradigan muskullar ishtirokini kuzatsa bo'ladi.

Perkussiyada ovoz aniq va bo'sh qutini urganda chiqadigan ovozga o'xshash, chunki o'pkada havo ortib ketgan, o'pka harakatchanligi cheklanadi va ularning chegaralari pastga siljiydi. O'pka eshitib ko'rilganda uzoq va zaiflashgan hamda quruq xirillash bilan nafas chiqarishi eshitiladi.

Orqaga rivojlanish davrida balg'amning asta-sekin chiqarilishi boshlanadi, xirillashlar soni pasayadi va nafas qisilishi xuruji tobora pasayib ketadi.

Bronxial astma mavjudligidan shubha qilish mumkin bo'lgan alomatlar.

- Nafas chiqarish paytida yuqori tondagi xirillashlar, ayniqsa, bolalarda.

- Qaytalanuvchi xirillash epizodlari, nafas qisilishi, ko'krak qafasidagi og'riqlar va kechalari yomonlashadigan yo'tal.
- Nafas olish organlari sog'lig'ining mavsumiy yomonlashuvi.
- Ekzemaning mavjudligi, anamnezdagi allergik kasalliklar.
- Allergen bilan aloqada bo'lganda, dori-darmonlar qabul qilganda, tutun bilan aloqada bo'lganda, atrof-muhit harorati keskin o'zgarganida, o'tkir respirator kasalliklar davomida, jismoniy harakatlar va hissiy stressdan keyin simptomatikaning paydo bo'lishi yoki og'irlashishi.
- Pastki nafas yo'llarida tez-tez uchraydigan shamollashlar.
- Antigistamin va antiasmatic preparatlarni qabul qilganidan keyin umumiy holatning yaxshilanishi.

Bronxial astmaning asoratlari

Nafas qisilishining davomiyligi va kasallikning og'irligiga qarab bronxial astma o'pka emfizemasi va ikkilamchi yurak-o'pka yetishmovchiligi kabi asoratlar qoldirishi mumkin. Beta-adrenostimulyatorlarning peredozirovkasi yoki glyukokortikosteroidlar dozasi keskin kamaytirilishi, shuningdek massiv allergen bilan aloqa qilish astmatik status (*Status asthmaticus*)ga olib kelishi mumkin, bunda nafas qisilishi xurujlari birin-ketin yuzaga keladi va ularni to'xtatish uchun deyarli imkonsiz. Astmatik status o'limga olib kelishi mumkin.

Bronxial astmani tashxislash

Tashxis odatda shikoyat va alomatlarga tayangan holda o'pka mutaxassisi (pulmonolog) tomonidan qo'yiladi. Barcha boshqa tadqiqot usullari kasallikning og'irligi va etiologiyasini aniqlashga qaratilgan.

Spirometriya. Bu, bronxial obstruksiya darajasini baholash, uning o'zgarishi va tiklanishini aniqlash, shuningdek, tashxisni tasdiqlash uchun yordam beradi. Astma nafas olish bronxial keyin Bronxial astmada bronxolitik ingalyatsiyadan keyin 1 sekunddagi nafas chiqarish hajmi 12%ga (200ml) ko'paydi. Ammo aniqroq ma'lumot olish uchun spirometriya bir necha marta bajarilishi kerak.

Pikfloumetriya yoki nafas chiqarishning cho'qqiga chiqqan faolligini o'lchash bemorning umumiy holatini monitoring qilish va natijalarni solishtirish imkonini beradi.

Qo'shimcha tashxis usullari allergenlar bilan sinovlar, qonning gaz tarkibini baholash, EKG, bronxoskopiya va rentgenogrammani o'z ichiga oladi.

Laboratoriya tahlillari allergik astma tabiatini tasdiqlash uchun, shuningdek, davolash samaradorligini nazorat qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

- **Umumiy qon tahlili.** Eozinofiliya va ECHTning biroz ortishi.
- Umumiy balg'am tahlili. Bal'ganga mikroskop ostida qaralganda unda ko'p miqdorda eozinofillarni, Sharko-Leyden kristallarini, Kurshman spirallarini aniqlash mumkin. Neytral leykotsitlar faol yallig'lanish jarayoni ostida bo'lgan, infeksiya bilan bog'liq bronxial astma bilan og'riq bemorlarda aniqlash mumkin.

- Qonning biokimyoviy tahlili — tashxislashning asosiy usuli emas, bemor hoaltini aniqlash uchun qo'shimcha sifatida qo'llaniladi.
- Immunitet holatini o'rganish. Bronxial astmada T-supressorlarning soni va faolligi keskin kamayadi, qonda immunoglobulinlarning soni ortadi. Immunoglobulin E miqdorini aniqlash uchun testlardan foydalanish allergologik sinovlari o'tkazish imkoniyat bo'lmaganda muhim ahamiyatga ega.

Bronxial astmani davolash

Bronxial astma surunkali kasallik bo'lgani va xurujlar davriyligidan qat'iy nazar, davolashning asosida allergenlar bilan aloqani cheklash, to'g'ri parhezga rioya qilish va to'g'ri ishda ishlash yotadi. Agar allergenni aniqlash imkoni bo'lsa, o'ziga xos giposensibitiv davolash allegenga organizmning reaksiyasini kamaytirishga yordam beradi.

Nafas qisilishi xurujlarini bartaraf etish maqsadida aerosol shaklida beta-adrenomimetiklar qo'llaniladi, ular bronxlarni tezda kengaytishiga va bal'gam ko'chishiga yordam beradi. Unday prearatlar fenoterol gidrobromidi, salbutamol, ortsiprenalini. Har bir holatda doza alohida-alohida tayinlanadi. ipratropium Shuningdek nafas qisilishi xurujlarini m-xolinolitik guruhidagi preparatlar yaxshi bartaraf etadi — ipratropiy bromid aerosoli va uning fenoterol bilan birlashmasi.

Bronxial astma bilan kasallangan bemorlar orasida ksantin mahsulotlari juda mashhurdir. Ular uzoq vaqt ta'sir ko'rsatadigan, tabletkalar shaklidagi astma xurujlarini oldini olish uchun tayinlanadi. So'nggi yillarda, **mastotsitlarning** (granulositlarning bir turi) degranulyatsiyasiga to'sqinlik qiladigan dorilar astmani davolashda ijobiy natijalar bermoqda. Bular ketotifen, natriy kromoglikat va kaltsiy ionlari antagonistlari.

Bronxial astmaning o'gir shakllarini davolashda gormonal terapiya qo'llaniladi, bemorlarning chorak qismi glyukokortikosteroidlarni talab qilishadi. Ertalab 15-20mg Prednilozon va oshqozon shilliq qavatini himoya qiluvchi antasidlar qabul qilinadi. Kasalxonada gormonal preparatlar in'ektsiya shaklida qo'llanilishi mumkin.

Astmani davolashning o'ziga xos xususiyati — eng kam miqdorda va eng samarali preparatlardan foydalanishdir. Balg'amni yaxshi ajralishi uchun ekspektoranlar va mukolitik preparatlar buyuriladi. Shuningdek, astmani yuzaga kelishida ishtirok etadigan kasalliklar — surunkali bronxit, pnevmoniyalarni o'z vaqtida davolash ham muhim o'rin tutadi.

Bronxial astmani oldini olish va kasallik yakuni

Bronxial astmaning kechishi avj olish va remisiiya davrlaridan iborat, kasallik o'z vaqtida aniqlanganda tegishli davolash choralari bilan uzoq muddatli va samarali remissiyaga erishish mumkin. Kasallikning yakuni bemor o'z salomatligi haqida qanday qayg'urishi va shifokor ko'rsatmalariga qanday amal qilishiga bog'liq.

Surunkali bronxitni oldini olish, chekishni tashlash va allergenlar bilan aloqani kamaytirish profilaktikada muhim ahamiyatga ega. Bu xavf ostida bo'lgan yoki oila tarixga ega odamlar uchun ayniqsa muhimdir.

So'nggi yigirma yil ichida astma bilan kasallanish holatlari ko'paydi va bugungi kunda astma ta'siridan taxminan 300 million kishi aziyat chekadi. Bu jins va yoshdan qat'iy nazar, insonlarda

eng keng tarqalgan surunkali kasalliklar sirasidan. Bronxial astma bilan kasallanganlar orasida o'lim darajasi juda yuqori. So'nggi yigirma yil ichida bolalardagi bronxial astma holatlari ortib borishi bunday hoaltni nafaqat kasallik, balki ijtimoiy muammo deb qarashga undamoqda va unga qarshi kurash uchun maksimal kuchlar qaratilgan.

Nafas qisilishi xurujlari turli tezliklarda kuzatiladi, ammo *remissiya* bosqichida (surunkali kasallikning vaqtinchalik yengillashishi) ham havo yo'llarida yallig'lanish jarayoni saqlanib qoladi. Bronxial astmada havo oqimining buzilishida quyidagi tarkibiy qismlar yotadi:

- Bronxlarning silliq mushaklarining spazmlari yoki ularning shilliq qavatining shishishi tufayli nafas olish yo'llarining to'silib qolishi.
- Nafas olish yo'llarining shilliq osti bezlari giperfunktsiyasi sababli sekretsiyasi tomonidan bronxlarning to'silib qolishi.
- Bronxial devorda sklerotik o'zgarishlarga olib keladigan, kasallikning uzoq davom etishi natijasida bronxning mushak to'qimasini biriktiruvchi to'qimaga almashishi.

Murakkablikka qaramasdan bronxial astma yaxshi davolanadi, buning natijasida doimiy va uzoq muddatli remissiyaga erishish mumkin. Bemorlar o'z holatini doimiy nazorat qilishi ularni nafas qisilishi xurujlari boshlanishini oldini olish, kamaytirish yoki xurujlarni bartaraf etish uchun yordamchi dorilarni qabul qilishlardan halos etadi, shuningdek, faol hayot tarzi olib borish imkonini beradi. Bu o'pka funksiyasini saqlab qolishga va asoratlar xavfini to'liq bartaraf etishga yordam beradi.



ANAFILAKTIK ShOK Anafilaksiya – bu sensibilizatsiyalangan organizmning antigen bilan qayta muloqoti (aloqa) natijasida yuzaga kelib chiqadigan o'tkir reaksiya bo'lib, allergik reaksiyaning I tipi bo'yicha rivojlanadi (tezkor reaksiya turi). Anafilaktik shok – gemodinamikaning buzilishi natijasidagi qon aylanishi etishmovchiligi va hayotiy muhim a'zolarining gipoksiyasi bilan kechadigan xavf soluvchi, o'tkir rivojlanuvchi holatdir. XKK – 10 •

T 78.2 Aniqlanmagan anafilaktik shok. | T78.0 Oziq ovqat mahsulotlariga patologik reaksiya orqali yuzaga kelgan anafilaktik shok. | T80.5 Zardob yuborilishi bilan boG'liq b6lgan anafilaktik shok. T88,6 Mos ravishda tanlangan va t6G'ri yuborilgan dori vositalar ta'siridagi yuzaga kelgan anafilaktik shok. EPIDEMIOLOGIYA SI • Anafilaktik reaksiya holatlarida 4,4% anafilaktik shokka t6G'ri keladi. • Anafilaktik shok allergik kasalliklar bilan oG'rigan bemorlarda rivojlanadi. Atopik kasalliklari b6lgan bemorlarda anafilaktik shok rivojlanish darajasi yuqoriroq. • Anafilaktik shokka quyidagi vositalar olib kelishi mumkin: dori vositalari (20,8% gacha, YaQDV dori vositalariga ayollar erkaklarga nisbatan 5 marta k6proq reaksiya beradilar), geterologik zardoblar (hayvonlar qonidan olingan), vaksinalar, pardaqaotlilar zaharlari, oziq-ovqat va gul changi, ba'zi bir bakteriya allergenlari, moyilligi b6lgan bemorlarda sovuq ta'siriga reaksiya. • Anafilaktik shok gul va uy changi epidermal va insekt allergenlar bilan 6tkaziladigan allergen spetsifik immunoterapiya oqibatida yoki asorati b6lib rivojlanishi mumkin. Bundan tashqari ushbu allergenlarni diagnostik maqsadlarda q6llanganda ham anafilaktik shok rivojlanish hollarda q6llaniladi. • Pardaqaotlilar chaqishidan rivojlangan anafilaktik shok olib kelgan 6lim holati 1 mln aholining 0,4-2 6lim oqibatiga t6G'ri keladi.

PROFILAKTIKASI

Dori vositalarni ayniqsa antibiotiklarni mos ravishda tanlab q6llash (pala-partish tarzda tanlab q6llangan dori vositalar organizmni sensibilizatsiyaga va keyinchalik anafilaktik reaksiyaga sabab b6lishi mumkin). • Allergik spetsifik immunoterapiya va diagnostik qon provakatsion sinamalar faqatgina allergolog tomonidan, yuzaga kelishi mumkin b6lgan anafilaktik shok reaksiyalarni bartaraf etish uchun zarur b6lgan barcha vositalar bilan ta'minlangan allergologik xonalarda yoki shifoxonalarda 6tkaziladi. • Allergik kasalliklari b6lgan bemorlarda sababchi allergen ellimanatsiya chora-tadbirlari darkor. Dori vositalarga allergiyasi b6lgan bemorlarga davolash rejasi tuzilayotganda allergolog bilan maslahatlashgan holatda tanlanadi. • Anamnezida anafilaktik reaksiyalar b6lgan bemorlar reaksiya yuzaga chiqqan holatda qanday chora-tadbirlar q6llash kerakligi haqida ma'lumot beramiz. Ushbu ma'lumot davolovchi allergolog tomonidan bemorga berilgan pasportda k6rsatilgan b6lishi kerak.

DIAGNOSTIKASI Anafilaktik shokning birlamchi diagnostikasi kasallikning klinik manzarasi va allergen chaqiruvchi omil haqidagi ma'lumotlar asosida q6yiladi. Bemorni umumiy ahvoli turG'unlashgandan s6ng allerlogik tekshiruv 6tkaziladi.

ANAMNEZI

Allergik anamnez yiG'ish k6pincha anafilaktik shokni bartaraf etish borasida 6tkazilgan terapiyadan s6ng mumkin b6ladi. Biroq ba'zi hollarda shokka olib kelgan sabab aniq b6ladi. • Anafilaktik shok k6p holatlarda allergen parenteral yuborilganda rivojlanadi, biroq ba'zan allergen ingalyatsiya, teri, shilliq qavatlar va oshqozon ichak tizimiga bevosita aloqa tushganda ham rivojlanish ehtimoli bor. • Belgilarni paydo b6lish vaqti bir necha minutdan, bir necha soatgacha b6lishi mumkin. • Dori vositalar (antibiotiklar va YaQDV) pardakanotlilar zahari (asalari va boshqa arilar), oziq-ovqat allergenlari (3 yoshgacha bolalarda tovuq tuxumi, katta yoshlilarda erylG'oq, baliq, qisqichbaqasimonlar), gul changi, geterologik zardob va vaksinalar anafilaktik shokka olib keluvchi allergenlardir. • Anafilaktik shok gul va uy changi epidermal va inspekt allergenlar bilan 6tkaziladigan allergen spetsifik immunoterapiya oqibatida yoki asorati b6lib rivojlanish hollari

FIZIKAL TEKSHIRUVLARI

Klinik manzarasi: klinik belgilar silliq mushaklar qisqarishi, qon tomirlar 6tkazuvchanligi ortishi, endokrin bezlari disfunktsiyasi, qon ivishi buzilishi holatlari bilan boG'liq b6ladi. Klinik k6rinishni belgilovchi asosiy belgilardan kardiovaskulyar va respirator buzilishlar b6lib, ulardan biri anafilaktik shok namoyon b6lishida ustunlik qilishi mumkin.

- Yurak qon-tomir tizimidagi özgarishlar.
 - Yurak etishmovchiligi (qon-tomir tonusini boshqaruvchi markaz falaji, qon tomirlar kollapsi, qon-tomir tizimida suyuqlikni atrof töqimalarga ötishi hisobiga kelib chiqqan gipovolemiya)
 - AB keskin tushib ketishi, miokardga nojöyö ta'sir qiladi (anafilaktik shok qon-tomir kassaliklari bölgan bemorlarga katta xavf tug'diradi).
 - öpka bronx tizimidagi özgarishlar va nafas etishmovchiligi.
 - Bronxospazm. Shilliq gipersekretsiyasi
 - Nafas yo'llari turli qismlaridagi yaqqol namoyon bölgan shish. Halkum shishi (asfiktsiya xavfi).
 - öpka töqimasidagi gemorragiyalar va atelektazlar, kichik qon aylanishi doirasidagi dimlanish.
 - Boshqa a'zo va tizimlardagi özgarishlar.
 - Miya qon aylanishi buzilishi, demilinizatsiyalovchi jarayonlar.
 - Jigar mayda qon tomiri, silliq mushaklari spazmi, qorin böshligi kapilyarlari va arteriyalarining kengayishi va ularda qonning yiG'ilishi (turib qolishi), oshqozonda pepsin va NSL ishlab chiqarish kuchayishi
 - Siydik qopi va ichaklarning silliq mushaklari spazmi (ixtiyorsiz defikatsiya va siyish)
 - Bachadon silliq mushaklari spazmi (qonli ajralmalar kelishi)
 - Hujayralardan qisqa vaqt mobaynida katta miqdorda geparin ajralishi va qonni ivishga qarshi tizimi faollashuvi, qon ivuvchanligining pasayishi, bu esa öz navbatida gemorragik asoratlarga olib kelishi mumkin.
- Anafilaktik shok turli körinishlar va belgilar bilan kechishi mumkin
- Engil kechishi: anafilaktik shok reaksiyadan oldingi belgilar bilan boshlanadi (prodromal davri) – xavotir hissi, qörquv, holsizlik, qizib ketishlar. Terida (toshmalar) qichishish, eshakemi körinishida toshmalar, eritema, Kvinke shishi, tovushning böG'ilishi (afoniya darajasigacha), yutinishning qiynlashuvi, bosh aylanishi, bosh oG'riG'i, qulokda shanG'illash, barmoqlarning, til va lablarning uvishishi va sanchishi. Rinit va konyuktivit belgilari, qorinda, bel va yurak sohasida oG'riqlar kuzatiladi. Kurak sohasida – teri qoplamlari rangparligi. Nafas siqishi stridoroz tipdagi nafas xirillashlar. Qayt qilish, beixtiyor defikatsiya va siyish.

LABORATOR TEKSHIRUVLAR • Shokni bartaraf etishga qaratilgan terapiya mobaynida EKG monitoringi va kislata ishqoriy muhitni (KIM) nazoratini olib borish.

- Allergik tekshiruvlar ötkir holatlarni bartaraf etilgandan söng ötkaziladi.

DIFFERENTIAL DIAGNOSTIKASI • Differentsial diagnostika barcha nafas olish buzilishlari, arterial gipotenziya va hushdan ketish bilan kechuvchi kasalliklar bilan: ötkir yurak qon-tomir etishmovchiligi, MI, sinkopal hushdan ketishlar, öATE, epilepsiya, oftob urishi, gipoglikemiya, dori vositalari miqdoridan oshib ketgan holatlar, aspiratsiya, septik shok.

- Anafilaktoid reaksiya. Anafilaktik shokni tizimli anafilaktoid reaksiya bilan differentsial diagnostika ötkazish kerak. Asosiy farqi: anafilaktoid reaksiya ba'zi dori vositalarini birinchi marta yuborishdayoq yuzaga chiqishi mumkin (polimeksin, pentamedin, opeoidlar, J2 tutuvchi rentgen kontrast moddalar).

DAVOLASH

Maqsad: töliq tuzatish yoki mehnat faoliyatini tiklash. Shifoxonaga yotqizishga körsatmalar: anafilaktik shok oG'irlik darajasidan qat'iy nazar shifoxonaning reanimatsiya va intensiv terapiya bölimiga davolash uchun yotqizish mutloq körsatma hisoblanadi.

DORILARSIZ DAVOLASH • Organizmga allergen kirishini töxtatish.

- Bemorni yotqizish va boshini yonboshga qaratib pastki jaG'ini oldinga tortish.
- Dori vositasi yuborilgan yoki hashorot chaqqan joydan yuqori sohaga jgut qöyish.
- Nafas olish va qon aylanishi töxtagan holatlarda yurak va öpka reanimatsiyasini ötkazish.

DORILAR BILAN DAVOLASH

- 0,3-0,5 ml. 0,1% epinefrin teri ostiga yuborish.

Agarda shok ari chaqishi yoki dori yuborishdan kelib chiqsa, zararlangan soha atrofiga 0,1% epinefrin yoki 0,1-0,3 ml. norepinefrinni 4-5ml. fiz.eritmaga eritilgan holda bir necha joyga in'ektsiya kilish. Shu sohaga muz qöyish.

- Vena ichiga quyidagi dorilarni yuborish (tomchilab): 5% - 300 ml. glyukoza Q0,1% - 1 ml. norepinefrin eritmasi. örin bosuvchi sifatida: gemodinamik körsatkichlarni tiklash maqsadida

dopamin (4-10 mkg/kg/min. lekin ushbu doza 15-20 mkg/kg/ min. dan oshmasligi kerak) yuborish. Ushbu dorilarni yuborish davomiyligi gemodinamik kōrsatkichlar bilan belgilanadi. • Vena ichiga tomchilab GKS larni yuborish: gidrokortizon 250 mg. yoki prednizalon 90-120 mg. yoki deksametazon 8,32 mg.. • Broxoobstruktiv sindrom yuzaga kelganda 2,4% – 10 ml aminofellinni fiz. eritmada yuborish. ōpka shishida GKS dozasini oshirish. Bundan tashkari vena ichiga 0,05%-0,5 ml strofantin K 40%-10 ml glyukozada eritib yuborish. Zarurat bōlganda intubatsiya yoki traxeostomiya qilinib ōSV ga ōtkaziladi. Burun kateteri orqali namlangan kislorod bilan ingalyatsiya muolajasi bajariladi. • Diuretiklar - AB ma'yori chegarasida bōlganda. • Sistolik AB 90 mm. sim. ust. baland bōlganda antigistamin dorilar yuborish. • Plazma ōrnini bosuvchi preparatlar, tomchilab yoki oqim bilan suyuqliklar yuborish. • GKS va antigistamin dori vositalar yuborishni bemor umumiy ahvoli yaxshilangunga davom ettirish. Yuqorida kōrsatilgan dori vositalari asta- sekin va bemor umumiy ahvoli yaxshilangandan sōng bekor qilinadi. • Nafas va yurak qon- tomir tizimi doimiy monitoringi. Asoratlar: MI, ōpka va miya shishi rivojlanishi mumkin. Davolash davomiyligi bir necha soatdan bir necha kungacha. **XIRURGIK DAVOLASH** Halqum shishishi oqibatida yuzaga kelgan asfiktsiyada traxeostomiya ōtkazish.

BEMORNI O'RGATISH • Anafilaktik shok ōtkazgan bemorlar umumiy amaliyot vrachi bilan bir qatorda allergolog nazoratida bōlishlari lozim. Bemor bilan kasallik tabiati, profilaktikasi, davolash chora- tadbirlari haqida suhbat ōtkaziladi. • Bemorni shifoxonadan chiqaruv varaqasida uning allergik kasalligi pasporti beriladi va unda quyidagi axborotlar bōlishi zarur: F.I.Sh. va tuG'ilgan yili, diagnozi, sensibilizatsiyalangan allergen ta'sir doirasi (ōsimlik changi, dori vositalar, oziq-ovqat mahsulotlari, hashorot allergenlari va b.); sababchi allergenlar bilan qayta uchrashmaslikka qaratilgan chora-tadbirlarni ōtkazish; sovuqqa bōlgan reaksiyalar natijasida kelib chiqadigan belgilarni pasportga belgilash. Bemor aptechkasida bōlishi kerak: rezinali jgut, steril shprints, bir martalik vena infuziyasi uchun sistema, 0,1% epinefrin, 0,2% li norepinefrin, klemastina, 2,4% aminofellin, 40% li glyukoza, deksametazon (prednizalon) eritmali. Yuqorida kōrsatilgan dori vositalarni bemor 4-5 ampuladan yonida olib yurishi maqsadga muvofiq.

MUTAXASSIS MASLAHATIGA KO'RSATMALAR

Keyingi davo chora-tadbirlari masalasini hal qilish va tekshiruv natijalari asosida bemorda amaliy kōnikmalar hosil qilish uchun shifokor allergolog maslahati zarur bōladi. Anafilaktik shok asoratlari rivojlangan taqdirda quyidagi mutaxassislar: kardiolog, nefrolog, nevropatolog, gapatolog maslahati.

KEYINGI OLIB BORISH Shifoxonada davolash davomiyligi 1-10 kungacha. Bemor umumiy ahvoli turG'unlashgandan sōng organizm sensibilizatsiya darajasini aniqlashga qaratilgan allergik tekshiruvlar ōtkaziladi. Anafilaktik shok rivojlanishi sababi aniqlangandan sōng bemorga pasport va kasallik tarixidan tōliq kōchirma beriladi. Keyinchalik bemorga shifokor allergolog kōrigida bōlishi tavsiya etiladi.

PROGNOZI

- Anafilaktik shok oqibati kasallik kechishi va uning oG'irlik darajasiga, yondosh kasalliklarga (yurak qon-tomir, ōpka va bronx), davolash chora- tadbirlarini ōz vaqtida va mos ravishda olib borilganligiga boG'liq bōladi.
- Anafilaktik shokdan ōlim darajasi asosan 20 yoshdan oshgan bemorlarda yuqoriroq bōladi. Kasallikni ōlim bilan tugashini asosiy sabablari ōtkir yurak, nafas etishmovchiligi, hayotiy muhim a'zolarga qon quyilishi va trombozlaridir.
- asoratlari: anafilaktik shokdan sōng gepatit, glomerulonefrit va nerv tizimining diffuz shikastlanishi kabi holatlar rivojlanishi mumkin. • Allergen bilan qayta aloqa bōlgan hollarda uning takroran rivojlanishi kuzatiladi.

Anafilaksiya grek suzidan olingan bo'lib, ana – yana, aphyllaxis – ximoyasiz, ya'ni ximoya kila olmaydigan degan ma'noni bildiradi

Anafilaktik shok yurak qon aylanish doiralarining o'tkir buzilishi okibatida quyidagi belgilar bilan namoen bo'ladi:

- teri rangining okish ko'kimtir eki marmarsimon rangga kirishi, sovuq ter bosishi.
- tirnok osti satxida qon okishining xaddan tashkari sekinlashuvi,
- xalovatsizlik, es xushning xiralashuvi – dispnoe,
- siydik miqdorining kamayishi, yaxni kam siyish- oliguriya.
- Tomir urishining tezlashuvi – taxikardiya,
- Qon bosimining pasayib ketishi kabi xolatlar ana shular jumlasidandir

Anafilaktik shokning kelib chiqish sabablariga karab, dori-darmonlarni kullash okibatida kelib chiqadigan anafilaktik shok, zardob xamda vaksinalarni kullash natijasida yuzaga keladigan shok, allergik ovqat lar, xasharotlarning chakishidan vujudga keladigan shoklar fark qilinadi.

H, P.Schuster H.Schonborn R., Ianer(1975) anafilaktik shok sabablarini 2 turkumga bo'ladilar :

- 1 Tashxis (diagnostika) va davolash maqsadida ishlatiladigan vositalar :
- -dori-darmonlar.immun zardoblar:
- -uzida yod saklagan rentgen kontrast moddalar va boshqa turli testlar uchun
- -teri orqali allergik kasalliklarni davolash va aniqlash maqsadida ishlatiladigan allergenlar
- kolloid xolatdagi qon urnini bosuvchilar
- qon qo'yish xamda shu qo'yish jaraenida yul kuyilishi mumkin bo'lgan xatoliklar
- 2. Xayvonlar zaxari:
- asalari,oddiy beli ingichka ari,kovokari va boshqalar chakkanda.
- Yuqorida qayd kilingan sabablar orasida dori-darmonlarni ishlatish natijasida kelib chiqadigan allergik xolatlardan anafilaktik shok birinchi urinda turadi.YU.P.Borodin (1973) ma'lumotlariga karaganda,dori-darmon bilan davolash okibatida kelib chiqqan anafilaktik shok xolatlar 10dan 30 foizgacha ulim bilan tugagan.

Dori-darmonlar ishlatishdan kelib chiqadigan anafilaktik shokni ularning tutgan urniga karab quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. tabiiy (penitsillin,bitsillin) va yarim sintetik penitsillinlar (oksatsillin,ampitsillin va boshqalar) guruxi;
2. tetratsiklin guruxiga kiruvchi dori-darmonlar (tetratsiklin,randomitsin, metatsiklin, morfotsiklin, glikotsiklin va boshqalar) guruxi.
3. Fenotiazin va ba'zi bir xil gistaminlar qarshi ishlatiluvchi dorilar (aminazin va uning analoglari, pipolfen, diprazin),
4. Streptomitsin va aminoglikozidlar (neomitsin, kanamitsin, gentamin va boshqalar) guruxi.
5. Uz tarkibida yod saklaydigan barcha dori- darmonlar (lyugol eritmasi, sayodin kontrast dorilar),
6. Vitamin V 1 (tiamin bromid) va kokarboksilaza,
7. Barbituratlar (fenobarbital va boshqalar) guruxiga kiruvchi dorilar,
8. Pirazonon turkumiga kiruvchi dorilar (analgin, antipirin, amidopirin, butadion), atsetilsalitsilat kislota va fenilpropionatlar (brufen va boshqalar),
9. Novokain, sulfanilamid va uning turkumiga kiruvchi dorilar,
10. Etilendiamin(suprastin va boshqalar) guruxi bilan eufillin guruxi,
11. Sefalosporin guruxi.

Kasallikning rivojlanishi.

Ma'lumki, anafilaktik shok tez utadigan ximergik kurinishdagi allergik jaraen turiga kiradi.

- A.A. Polner (1973) fikricha, ximergik kurinishdagi xamma allergik reaksiyalarga, shu jumladan, odam tanasida sodir bo'ladigan anafilaktik shokka ikkita asosiy xususiyat sodir etgan :

1. qonda aloxida kurinishdagi antitanalar (reaginlar eki IgE ga boglik antitanalar) ning aylanib yurishi,

2. allergik kasalliklarga irsiy moyillik (konstitutsiya eki A.D.Ado bo'yicha allergik konstitutsiya) bo'lgan kishilarda allergik reaksiyaning rivojlanishi.

- Odam organizmining turli allergenlarga nisbatan sezgirligining oshib ketishi turli muolajalar qilish, ogiz orqali, nafas yo'llari ga dori-darmonlar purkash yo'llari bilan davo qilinadi.

Anafilaktik shokda odam a'zolarida sodir bo'ladigan xaddan tashkari murakkab jaraenlar rivojlanishini

3 bosqichga bo'lish mumkin:

- 1) immunologik bosqich,
- 2) biokimeviy bosqich,
- 3) anafilaktik shok belgilari keng yuzaga chiqqan kasallik fiziologiyasi bosqichi.

Keyingi vaqtda doriga bo'lgan allergik reaksiyalar tobora Ko'payib bormokda

G.V.Grebnevning boshqa mualliflar bilan keltirgan ma'lumotlariga k ra (1991), keyingi 2 yil ichida allergik kasallikka uchragan 617 bemordan 171 ta bolada dori va zardoblarga nisbatan sezgirlik oshib ketganligi aniqlanadi.

Xar xil kasalliklarni davolashda ishlatiladigan antibiotiklar ichida penitsillindan kelib chiqadigan anafilaktik shok yuqori foizni tashkil qiladi.Xozirgi kunda bu 0,6 dan 16 foizgachadir.

Dori-darmonlar ishlatishdan kelib chiqadigan anafilaktik shokni ularning tutgan urniga karab quyidagilarga bo'lish mumkin:

1) tabiiy (penitsillin,bitsillin) va yarim sintetik penitsillinlar (oksatsillin,ampitsillin va boshqalar) guruxi;

2) tetratsiklin guruxiga kiruvchi dori-darmonlar (tetratsiklin,randomitsin, metatsiklin, morfotsiklin, glikotsiklin va boshqalar) guruxi.

3) Fenotiazin va ba'zi bir xil gistaminlar qarshi ishlatiluvchi dorilar (aminazin va uning analoglari, pipolfen, diprazin),

4) Streptomitsin va aminoglikozidlar (neomitsin, kanamitsin, gentamin va boshqalar) guruxi.

5) Uz tarkibida yod saklaydigan barcha dori- darmonlar (lyugol eritmasi, sayodin kontrast dorilar),

7) Barbituratlar (fenobarbital va boshqalar) guruxiga kiruvchi dorilar,

8) Pirazonon turkumiga kiruvchi dorilar (analgin, antipirin, alidopirin, bUtadion), atsetilsalitsilat kislota va fenilpropionatlar (Srufen va boshqalar),

9) Novokain, sulfanilamid va uning turkumiga kiruvchi dorilar,

10) Etilendiamin(suprastin va boshqalar) guruxi bilan eufillin guruxi

11) Sefalosporin guruxi.

Adabietda anafilaktik shokning ogir kurinishi dori-darmonlarni juda oz miqdorda kullaganda xam yuzaga kelganligi haqida ma'lumotlar bor.

-Penitsillin antibiotigini ishlatish maqsadida kullanilgan shprints, terilizator xam anafilaktik shok xastaligini boshidan kechirgan bemorlar uchun uta xavflidir. Odatda anafilaktik shok konstitutsiyasida anomaliyasi bo'lgan xam; i allergik kasalliklarga moyilligi bor bolalarda eki katta eshdagi kishilarda sodir bo'ladi.

Xasharotlar chakishi okibatida tana sezgirligining oshib ketishi E.Rayk (1966) ma'lumoti bo'yicha 5%ni tashkil qilgan bo'lsa, xozir bu kursatkich Birmuncha Ko'paygan.

AKSH da 1956 - 1959 yillardaek xasharotlar chakishi okibatida 220 ta oda da ulim yuz bergan. Keyingi vaqtda bizning tibbiyot jurnallarimiz saxifalarida xam xasharotlar chakishidan kelib chiqadigan anafilaktik shok haqida Ko'plab ma'lumotlar e'lon kilinmokda.

Respublika bolalar allergik kasalliklari okibatida yuz bergan xar xil kurinishdagi allergik reaksiyalarning 2 tasida anafilaktik shok xolati uchraydi.

Xasharotlar chakishidan kelib chiqadigan javob jaraeni allergik reaksiyalardan iboratligi xammaga ravshan.

Xasharotlar chakishi okibatida kelib chiqadigan anafilaktik shok dori lieriyasi okibatida yuzaga keladigan belgilardan fark kilmaydi, lekin xasharotlar zaxarining uziga xos xususiyatlari xam bor.

Xasharotlar zaxari ichida asalari zaxarigina urganilgan, xolos. Asalari zaxari (apitoksin) - asalarining maxsus bezlari (apis) ning m xsulidir. Apgoksinning ta'sir qismi oksil modsa bulmish mellitin va 18 ta murakkab aminokislotalardan iborat. Asalari zaxaridan 2 fosfolipaza A fermenti va gialuronidaza xamda atsetilxolin, gistamin va juda oz miqdorda boshqa kimyoviy elementlar ajratilgan. Ko'pchilik bolalarda xasharotlar chakishidan kelib chiqadigan allergik jaraen asta -sekin boshlanadi. Avvaliga xasharot chakkan soxada makalliy jarayon shish ko'rinishida, eshakem, Kvinke shishi, nafas kisish xuruji sifatida namoyon bo'lib, so'ngra xar xil ogirlikdagi anafilaktik shok xodisalari yuz berishi tajribada kurilgan. Anafilaktik shokning kelib chiqishida ovqat allergiyasining urni Qanday?

Allergenli ovqat lar xisoblanmish sigir suti, engok, tuxum, pista, pistabodom, pishlok, balik, shokolad, moshli (moshxurda, moshkichiri) taomlar, kofe, kakao, tomatlar, kuziQorinlar, sitrusli mevalar (limon, apelsin, mandarin, xypmo) asal, tovuk gushti, pepsi-kola, koka-kola, tarxun kabi ichimliklarni iste'mol kisilish natijasida kelib chiqqan anafilaktik shok jumxuriyat bolalar allergik kasalliklari yillik tajribasida uchramadi.

Tibbiy adabiyotda kasallikni aniqlash maqsadida ishlatiladigan ovqat allergenlariga nisbatan bitta-ikkita misollar bor xolos.

1963 yilgacha bo'lgan tibbiy adabiyotlarda kukrak eshidagi bolalardan 40 tasida sigir sutiga nisbatan, to'grirogi V-laktoglobulinga nisbatan anafilaktik shok yuz berganligi qayd kilingan.

Sovuq xavoga nisbatan allergik sezgirlik bor bolalarda tananing katta qismiga sovuq ta'sir kilganda (daryo yoki dengizda chumilish vaqtida) anafilaktik shok yuz berishi mumkinligini A.D.Ado va YU.A. Poroshina (1976) qayd qilib utganlar.

Allergik kasalliklarni davolash jaraenida maxsus sezgirlikni pasaytirish usuli (spetsifik giposensibilizatsiya) 1911 yildan, ya'ni Noon va Freeman bu usul taklif kilganlaridan buyon 20 marta ulim bilan tutagan anafilaktik shok sodir bo'lgan.

Respublika bolalar allergik kasalliklari markazida 20 yil mobaynida maxsus giposensibilizatsiya olgan 700 nafar bemordan atigi bittasida anafilaktik shok xolati sodir bo'lgan.

Davolash

- ▶ Anafilaktik shokni davolash oson ish emas. Bunda xar bir daqiqa kimmatli bo'lib, uni kuldanda boy bermaslik darkor. Shifokor saviyasining pastligi xamda anafilaktik shokka qarshi kurashni tashkil kila olmaslik va uning bemor tepasida esankirab kolishi davoning muvaffakkiyatsiz chiqishiga olib kelishi mukarrar. Anafilaktik shokda bemorga quyidagicha yordam kursatilishi kerak.
- ▶ 1. Bemorga yordam ko'rsatish uchun ikkita shifokor va tajribali xamshira kerak. Bir shifokor kasalning qon bosimini ulchash bilan band bo'lsa, ikkinchi shifokor bemorga dori darmonlar buyurib, uni xamshira yordamida amalga oshirish bilan shugullanadi.
- ▶ 2. Bemorning qoniga shokka sababchi allergenning tushishini albatta to'xtatish darkor. Buning uchun dori yuborilgan eki xasharot chakkan joydan yuqorida jgut boglanadi.

- ▶ 3. Anafilaktik shok xolatida dori-darmonlar ichida yordam berib, ulimdan olib koladigan adrenalini va uning guruxidagi preparatlar xisoblanadi. SHuning uchun xam shifokor anafilaktik shokda bemor ogir xavfli xolatdan chiqib ,qon bosimi kutarilgunga kadar adrenalini kullaniishi kerakligini unutmasligi lozim. Avvalo xasharotlar chakkan joy atrofiga teri ostiga , mushak orasiga 0,1% 0,3-0,5 ml adrenalini eritmasi yuboriladi. Xasharot chakkan joydan uning nishtarini olib tashlash kerak. U joyni ukalash man etiladi, chunki xar bir ukalash xarakati qon tomirlariga allergenlarning surilishini tezlashtiradi.

Kvinke shishi.

Derma va teri osti klechatkasining aniq lokalizatsiyalangan shishi, okish, zich infiltratning nomi Kvinke shishi deb aytiladi. Kvinke shishida zararlanish uchogi ko'pincha govak klechatka joylarida uchraydi. Shishlar shilliq qavatlarida xam joylashishi mumkin. Labda, kovokda, ogiz bushligi shilliq qavatlarida ko'proq uchraydi. Ayniksa xiqildoqda joylashgan Kvinke shishi xavfli xisoblaniladi.

Patogenezi

Allergik reaksiya reagen tipda kechadi, allergenlar tushgach organizm tomonidan antigen sifatida qabul qilinib unga qarshi antitelolar ishlab chikariladi. Antigen antitelo kompleksi bulutsimon xujayralarda va bazofillarda fiksatsiyalanadi va ulardan bir qancha mediatorlar (serotonin, bradikinin, gistamin) ajralib chiqishiga sabab bo'ladi, natijada allergik reaksiya kelib chiqadi.

Klinikasi:

Katta, oqish, qattiq qichimaydigan infiltrat bosganda chukurcha xosil qilmaydi. Agar shish xiqildoqda joylashsa avval ovoz xirrilashi, akkilovchi yo'tal inspirator nafas qiyinligi, shovkinli stridoroz xarakterdagi nafas eshitaladi, keyinchalik yuzda sianoz kelib chiqib vaqt o'tgach yuz oqaradi. Bemorlar bezovta bo'ladi, agar jarayon traxeobronxial daraxt shilliq qavatida bo'lsa bronxial astma sindromi qo'shiladi. Ogir xolatlarda ratsional yordam berilmaganda bemorlar asfiksiyadan ulishi mumkin. Engil o'rtacha og'irlikdagi shish bir soatdan bir sutkagacha o'tkir davr tugagach bir necha vaqt davomida ovoz bo'g'ilishi, tomoqda og'riq nafasning qiyinlashuvi auskultatsiyada quruq va xo'l xirrilashlar saqlanib turadi. Xiqildoq soxasidagi shish kechiktirib bo'lmas intensiv terapiyani taqazo qiladi. Og'ir xolatlarda traxeostamiyagacha borishi mumkin.

Zardob kasalligi

Allergik kasallik bo'lib, geterologik yoki gomologik zardob yoki preparatlarning kiritish natijasida paydo bo'lib, tomirlarning va biriktiruvchi to'qimaning yallig'lanish xarakteridagi zararlanishi bilan kechadi.

Klinikasi zardobni birlamchi kiritganda nosensibilizatsiyalashgan shaxsda o'tkir reaksiyadan oldin inkubatsion davr kelib chiqadi. Bu davr in'yeksiyadan 7-10 kunni tashkil qiladi. Prodromal davrda: giperimiya, giperisteziya, regional limfa tugunlarining kattalashuvi in'yeksiya joyida bir oz toshmalar ko'rinadi. Kasallikning o'tkir davri tana xaroratining subfebril darajadan 39 – 40° C gacha ko'tarilishi bilan boshlanadi.

Davolash.

- Og'ir umumiy reaksiya kelib chiqqan davrda anafilaktik shokka qarshi ishlar olib boriladi.
- Kasallikning engil formasida kalsiy preparatlari, asQorutin, antigistamin vositalari bilan chegaralanish mumkin. Kichishni kamaytirish uchun ilik vannalar, terini 5% li mentol spirti bilan artish kerak. O'rtacha va ogir formalarida antikoagulyantlar, bo'g'im zararlanishida yalliglanishga qarshi nosteroid preparatlar beriladi, ba'zan delogil yaxshi

natija beradi. YUrak va nerv sistemasi zararlanganda Qortikosteroidlar beriladi. Rivojlangan shishda siydik xaydovchi vositalar o'tkaziladi.

- Astmatik statusda birinchi yordam. Astma xurujini to'xtatishda simpatomimetiklar, xolinolitiklar ksantinli birikmalardan foydalaniladi. Simpatomimetiklar bronx sillik mushaklarning V-adrenergik retseptorlari funksional aktivligini oshirish natijasida ijobiy o'zgarish kuzatiladi.

1.2. Amaliy mashg'ulot materiallari

1- amaliy mashg'ulot

Allergologiyada tekshirish usullari.

Klinik mashg'ulot: Allergologiyada tekshirish usukkarini bajarish texnikasi

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|---|---|
| Mashg'ulot vaqti -4 soat | Talabalar soni : 8-10 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Amaliy mashgulot |
| <p>Amaliy mashgulot rejasi</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Allergologiyada tekshirish usullari 2. Provokatsion sinamalar 3. Praustnits-Kyustner sinamasining moxiyati 4. Instrumental tekshirish usullarini sanab bering 5. Laborator tekshirish usullari | <p>Amaliy mashgulotning qisqacha annotatsiyasi</p> <p>Allergologiyada tekshirish usullari bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish. Terida o'tkaziladigan allergik sinamalar, provokatsion sinamalar va laborator usullar to'grisida talabalarga etarlicha ma'lumotlarni etkazish va b usullarni amalda qo'llay bilish</p> |
| <p>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</p> <p>Allergologiyada tekshirish usullari bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish</p> | <p>Maqsadi yoritiladi.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Allergologik tekshirish usullarini talabalarga tushuntirib berish 2. Provokatsion sinamalar: rinokonyunktival, nazal, sublingval, ingalyasion sinamalarni kullash, texnikasi. 3. Allegologik sinash usullari texnikasi, moxiyati 3. Praustnits-Kyustner sinamasining moxiyati, kullanilishi 3. Instrumental tekshirish usullari 4. Laborator tekshirish usullari tushuntiriladi |
| Ta'lim berish usullari | Multimedia, interfaol usullar |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqichlari va vaqti. | Ta'lim beruvchi | Ta'lim oluvchilar |
|---------------------------|---|-------------------|
| Tayyorgarlik | 1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi | Talabalar amaliy |

| | | |
|------------------------------------|---|---|
| bosqichi 5 daqiqa | 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi | mashgulotga tayyor bo'lishi kerak, davomat tulik bo'lishi kerak |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish | Talabalar tinglaydilar |
| 2 – asosiy bosqich (40 daqiqa) | 1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. “SWOT-tahlil” usuli Muammoning asosiy to'rt jihatni yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi,ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, xal qilish imkoniyatlarini topadi. U yordamida muammoning quyidagi jixati taxlil qilinadi: S -kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish) W - kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta'sirini o'rganish) O - imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlash) T - tahdidnu o'rganish (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta'siri aniqlash) 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi (Allergologiyada tekshirish usullari: allergologik anamnez, provokatsion sinamalar. Klinik va instrumental tekshirishlar) 3. Slaydlar, multimedialardan foydalanadi 4. Allergologik bemorlardan anamnez yig'adi, sinamalar o'tkazadi umumiy qon, peshob, balg'am tahlillari interpretatsiya qiladi. Dermatologik sindromi bor bemorlarni kuratsiyasi.Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 3-Klinik mashg'ulot (90 daqiqa) | Allergologiyada tekshirish usukkarini bajarish texnikasi | |
| 4-yakuniy bosqich (15 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |
| Jami: 160 daqiqa , 4 soat | | |

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

Allergologiya fani anatomiya, normal fiziologiya, patologik anatomiya va fiziologiya, bioximiya va barcha klinik fanlar bilan integrativ bog'liklikda utiladi va bu fanlardan olingan bilim saviyalari e'tiborga olinadi. «Klinik allergologiya» fanini urganishi talabalarning gumanitar, fizik- ximik, tibbiy fanlar bo'yicha olingan bilimlariga asoslangan, etarlicha chukurligi va kengligi xos, «Davolash ishi» soxasidagi klinik fanlar (terapiya, farmakologiya, dermatologiya, otolaringologiya, reanimatsiya), va pediatriya bilan birlashgan.

Mavzu bayoni

Allergik kasalliklarning aniqlash vositalariga quyidagilar kiradi:

Allergik anamnez. To'g'ri yigilgan anamnez, ayniksa bolalarda dori allergiyasini aniqlashda muxim axamiyat kasb etadi.

Allergologik anamnez yigishning bir necha turlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning xar biri uziga xos xususiyatlarga ega. Biz xam anamnez sxemasini ishlab chiqqanmiz va buni quyida xavola kilamiz.

Bemorlarning ismi, otasining ismi, tugilgan yili, kuni

Tashxis.

Oilaviy anamnez:

otasida

onasida

aka-ukalarida

opa-singillarida

buva-buvilarida

xola va xolavachchalarida

dikkinafas (bronxial astma), pichan isitmasi, ya'ni pollinoz, eshakem, Kvinke shishi, nafas yo'llari (rinit, rinosinusit, bronxit, laringit, traxeolaringit, pnevmoniya va b). Allergiyalari, dori-darmonlarga, ovqat ga reaksiya, bod, sil kasalliklari bor ko'pligi

surab bilinadi. Onasida xomiladorlik davrining utishi (xomiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmidagi zaxarlanish - toksikoz) alomatlari, shu davrda Qanday dori-darmonlarni olgani, ovqat lanish tartibi, nimaga bosh Qorongi bo'lgani.

Tug'ruq... Bolaning ogirligi... buyi...

Onasi necha oy yoki necha yil kukrak berib bokkan. Emizish davrida onaning ovqat lanish tartibi. Boshdan kechirgan kasalliklari va ularga Qanday davo kilinganligi.

Qo'shimcha ovqat lar berish boshlangan vaqt, ovqat larda bolada reaksiya bo'lgan-bo'lmagan ligi. Boshdan kechirgan kasalliklari va ularga Qanday davo kilingani, emlash (ularning vaqti, reaksiya bo'lgan-bo'lmagan ligi).

Uy sharoitlari. Kiyim boshi, yostigi, kurpa – tushagi. Turmushdagi allergenlarning turlari. Antibiotiklar olgan olmaganligi (qachon, qaerda olgan, ularga reaksiya bo'lgan-bo'lmagan ligi haqida ma'lumot), boshqa dori –darmonlar olganmi? Ularga sezgirligi.

Ekssudativ diatez (eritema, gneys, bichilish, toshmalar tilning jugrofiya xotirasiga uxshash karash boglashi) belgilari.

Qanday ovqat ga va qachon reaksiya bo'lgan.

Asosiy shikoyatlari. Boshlanishi, allergik xolatlarining kurinishlari, allergik xolatning ruy-rost paydo bo'lgan vaqti, kaytalanishi, faslga bog'likligi. Allergik xolatning kelib chiqishiga nima turtki bo'lgan (yuqori nafas yo'llari ning shamollashi, zotiljam, ichak ko'pumli kasalliklari, sarik ovqat allergenlari, emlash vositalari va boshqa sabablar). Keyingi vaqtda Qanday dorilar olgan. Ularning davomlilik, miqdori, olgan soatlari, kiritish yo'llari . Yuqoridagi zikr kilingan allergologik anamnezni yigishda shifokor nixoyatda sabr tokatli bo'lishi lozim. Allergologiya va immunologiya - nisbatan yangi fan, Ko'pchilikning tibbiyotning bu soxasidan xabari ko'pligini inobatga olib, savol-javob vaqtida Ko'p savollarni oddiy qilib tushuntirishga to'g'ri keladi

Allergologik sinash usullari.

Allergologik sinash usullari ko'pincha teri yuzida, ikkinchi urinda esa shokli a'zolarga to'gridan – to'gri ta'sir qilib o'tkaziladi. Bu sinash usullarini o'tkazishdan oldin bemorni bu tadbirga oldindan tayirlash lozim. Buning uchun bemor amalda soglom bo'lishi, sunggi 2-3 hafta mobaynida organizm sezgirligini pasaytirib yuboradigan dori-darmonlar qabul kilmagan bo'lishi lozim. Agar bemor gormonal dorilar ichgan, gistaglobulin yoki allergoglobulinlar olganligi ma'lum bo'lsa, unda sinash usullarini 2 oydan keyin o'tkazish lozim.

Teri sinamalari. Bunda allergen teriga kiritilib, organizmning spetsifik sensibilizatsiyasi dori darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan diagnostik usuldir. Bunda terida paydo bo'ladigan shish yoki yalliglanish jarayoniga baho beriladi. Bilamizki, teri sinamalari kasallikning remissiya bosqichida qo'yiladi. Bu sinamaning sifatiy, miqdoriy, to'gri va nofaol (passiv) turlari farqlanadi.

Sifatiy sinamalar quyidagi savolga: berilgan allergenga sezgirligi bormi yoki ko'pmi? javob berish lozim. Musbat natija aynan ushbu allergendan kasallikning kelib chiqishini isbotlamaydi. Kasallikning etiologik faktori boshqa allergen bo'lishi mumkin, qaysi kim bu allergen xali bemor terisiga kiritilmagan bo'lishi mumkin. Teri sinamalarida musbat natija bemorning anamnezidagi ma'lumotlariga mos kelishi zarur. Agar bunday moslik kuzatilmasa yoki teri sinamasining natijasi ifodalangan bo'lsa, provakatsion testlar qo'yiladi.

Miqdoriy sinamalar esa organizmning sensibilizatsiya darajasi haqida ma'lumot beradi. Bu sinama individual sezgirlikni aniqlash uchun qo'yiladi va spetsifik giposensibilizatsiya o'tkazishda allergenning dastlabki dozasini tanlash maqsadida ishlatiladi.

-To'gri teri sinamasida allergen teriga kiritilishi bevosita bemorning uzida bajariladi

-Passiv yoki bilvosita teri sinamasida esa bemorning qon zardobi soglom kishining terisining ichiga, keyin esa zardob yuborilgan soxaga allergen qo'yiladi (Praustnits –Kyustner reaksiyasi)

Teri sinamasida reaksiyaning bemor terisida vujudga kelishi allergik reaksiyaning tipiga bogliq. Allergik reaksiyaning reaginli tipida teridagi o'zgarishlar 10-20 minutdan keyin ko'rinadi, bu o'zgarishlar dumalok qavarchiqlar yoki noto'gri shaklli psevdopadiya bilan xarakterlanadi. Rangi kizgish yoki ok bo'lishi mumkin. Buning asosida esa teri surgichsimon qavatining chegaralangan shish va qon tomirlar utkazuvchanligining shishi yotadi.

Bu reaksiya qavarchiq, urtikar yoki tez rivojlanuvchi tip nomini oldi. Allergik reaksiyaning 3-4 tipida terida o'tkir yalliglanishning barcha belgilari, ya'ni kizarish, shish, usha soxada maxalliy temperaturaning oshishi, og'riq kuzatiladi. 3 tipda yalliglanish jarayoni aniqroq ifodalangani, 4-6 soatdan keyin namoyon bo'lib, 12-24 soatdan keyin ko'poladi, 4 tipda esa allergik reaksiyaning maksimal rivojlanishi 24-48 soatdan sung kelib chiqadi.

SHunday qilib, teri sinamalari orqali allergenga nisbatan yuzaga keladigan allergik tipini aniqlash mumkin.

Kuyida teri sinamalarining turlariga ta'rif berilgan

Prik-test (test ukol) usuli: allergen teriga tomiziladi. Keyin esa qisqa tigli lanset yoki igna bilan 60 daraja burchak ostida sanchiladi. Teri sinamalarining barcha turlarida qon chikmasligi kerak. Bemorda ushbu allergenga nisbatan sezgirlik bo'lsa, terining usha soxasida 5-10 minutdan keyin qavarchiqlar, toshmalar toshishi mumkin.

Applikatsiya usuli –allergen bilan namlangan doka teri ustiga qo'yilib, selafan bilan yopiladi va bilakka bint yordamida urab qo'yiladi.

Praustnits-Kyustner usuli. Terini passiv sensibilizatsiyalash: bemor boladan qon olinib zardobi ajratiladi va 0,1 ml teri orasiga soglom donorga (ota yoki onasiga) yuboriladi. 1 sutkadan keyin terining shu soxasiga antigen kiritiladi. Qavarchiq yoki toshmalarning paydo bo'lishi ma'lum antigenga nisbatan maxsus antitela borligidan dalolat beradi

Terida deraza usuli. Skarifikator yordamida terida qon tomchisi paydo bulgunga kadar chiziladi, shu soxaga allergen tomizilib, shisha oynacha bosib surtma olinadi va surtmadagi eozinofillar aniqlanadi, agar ularning soni 5 % Ko'p bo'lsa reaksiya «+» musbat bo'ladi.


Kurshovga oluvchi antiteloni aniqlash usuli. Bunda bemor terisi ichiga antigen xamda bemorning zardobi davolagunga kadar va davolashdan keyin kiritiladi. Sensibilizatsiya darajasi shu soxada paydo bo'lgan 2 ta qavarchiqning diametri ulchanadi. Organizmdagi fark bilan takkoslanadi. Odatda xar bir allergenga teridagi reaksiyani baholash uchun jadval ilova kilingan. Tomchi va suyuqlik bilan o'tkaziladigan sinash.

Tomchi bilan sinashni doriga allergiya bo'lgan xollarda uning unchalik xatarli emasligini xisobga olib ko'proq qo'llaniladi.

Bilak yuzasini 70 gradusli spirtida artib, quriguncha kutib turiladi, so'ngra 1 ml fiziologik eritmada juda past qonsentratsiyada eritilgan allergen (tekshirilayotgan dori, antibiotik) dan bir tomchini bilak yuzasiga tomiziladi. Agar bemorda doriga sezgirlik bo'lsa, 20 daqiqa dan keyin tomizilgan soxada kizarish, qavarchiqsimon shish xamda kichish alomatlari paydo bo'ladi.

Epidermal sinash

Qo'ning bilak yuzasidan chechakka qarshi emlaydigan lanset yordamida 1 sm² kattalikda epidermaning yuza qismi olib tashlanadi. Xuddi ana shu soxaga tekshiriladigan doridan 1 tomchi tomiziladi, keyin gistamin va nixoyat sinalayotgan dori eritmasining uzidan xam tomiziladi. Agar tez orada reaksiya yuz bersa, eritmani usha zaxoti artib tashlash kerak.



Skarifikatsiya usuli bilan sinash.

70 gradusli spirt eritmasi bilan artilgan bilak terisiga aloxida shprints bilan tekshiriladigan allergen tomiziladi, so'ngra allergen eritma va ketma-ket 0,1% li gistamin tomiziladi. Tomchilar orasidagi masofa 3-4 sm ni tashkil qilishi lozim. Sterillangan skarifikator yoki muolaja ignasi yordamida har bir tomchi ustidan parallel xolda 5 mm uzunlikda tiraladi. Oradan 5-10 daqiqa utgandan keyin paxta tampon yordamida xar qaysi tomchi qoldig'i artib olinadi. 10 – 20 daqiqa dan so'ng allergik reaksiya belgilari paydo bo'lsa, maxsus jadval kursatkichi yordamida o'qib, natija yoziladi.

Skarifikatsion sinamani baholash

| Reaksiya | Shartli belgilar | Reaksiyadan tashki ko'rinishi va ulchami |
|----------------------------------|------------------|--|
| Manfiy | - | Ulchamlari xuddi nazoratdagidek |
| Xavf soluvchi | ± | Skarifikatsiya soxasida, giperemiya, lekin qavarchiq yo'q |
| Qisman musbat | + | Teri tortilganda skarifikatsiya soxasida 2-3 mm o'lchamdagi qavarchiqning xosil bo'lishi |
| O'rta darajadagi musbat | ++ | Qavarchiq 5 mmdagi o'lchamda atrofi qizargan, teri tortilmasada yaqqol ko'rinadi |
| Aniq musbat | +++ | Qavarchiq qizarishi bilan va psevdopodiyalar 10 mm diametri |
| O'ta musbat ifodalangan reaksiya | ++++ | Qavarchiq kizarishi bilan va psevdopodiyalar 10 mm dan katta |



Teri orasiga allergen yuborib sinash.

Bu sinash usuli skarifikatsiyada manfiy natija olingan xollardagina qo'llaniladi. Bu sinash usuli yuqori sezgirlik xususiyatiga ega. Teri orasiga allergen yuborib, sinash usulini tuberkulin shpritsi va uning ignasi yordamida o'tkaziladi.

Teri orasiga qonsentratsiyasi yuqori eritmada 0,01 ml sinalayotgan dori yuboriladi. 12 mm kattalikdagi papula paydo bo'ladi. Nazorat qilish uchun dori eritilgan suyuqlik teri orasiga yuboriladi. Teri ostida dori yuborib sinash usuli natija bermasligi xam mumkin, chunki dori odam organizmiga tushib, oksil bilan birikkandan keyingina haqiqiy allergenga aylanadi, shuning uchun xam manfiy natija kasallik ko'pligidan darak bermaydi. Agar bemor sinash usulini o'tkazish arafasida gistaminga qarshi dori-darmonlar olgan bo'lsa, bu xolda xam bu usul manfiy natija berishi mumkin.

Provakatsion sinama bu – allergik reaksiyalarning etiologik diagnostikasi bo'lib, allergenni to'gridan-to'gri shokli organdan keltirishdan iborat (ya'ni, shokli organ allergik kasallikda yaqqol zararlangan a'zodir).

Provakatsiya usuli bilan sinash.

Bu usul fakat kasallik alomatlari bo'lmagan vaqtda amalga oshiriladi. Bemorga antibiotik yoki boshqa dorilarni tezda yuborishga xayotiy zarurat bo'lsa, bu usuldan foydalaniladi.

Provakatsion sinama quyidagi turlari

Til ostiga sinash

Ingalyasion

Sovuq bilan o'tkaziladigan sinama

Issik bilan o'tkaziladigan sinama

Ekspozitsion sinama

Qonko'ptival

Endonazal

Leykotsitopenik va trombositopenik indeksni tekshirish

Til ostiga PT. Kasallarda ma'lum dorilarga sezgirlik bo'lsa, bu usuldan foydalanish mumkin emas. Agar maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga ular anamnezida qullanilayotgan dorilarga allergik sezgirlik borligi ma'lum bulmasa til ostida sinash usulini kullash mumkin. Bu usul quyidagicha amalga oshiriladi: sinalayotgan dori miqdorining 1/5 – j qismini yutmasdan til tagida 3-5 daqiqa saqlanadi. Agar til tagida shish, qavariqsimon toshma paydo bo'lsa, dorini usha zaxoti olib tashlanadi.

Ingalyasion sinama – asosan bronxial astmada o'tkaziladi. Kasalxona sharoitida kasallikning remissiya bosqichida bu test o'tkaziladi. Agarda nazorat ostiga olinmasa bemorda jiddiy xolatlar (tez rivojlanuvchi yoki kechrok rivojlanuvchi (4-24 s) bronxial astma bilan namoyon bo'lishi mumkin. Bu testni o'tkazishdan oldin spirografda forsirlangan o'pka tiriklik sigimi yozib olinadi va birinchi soniyalarda uning kattaligi xisoblanadi. YAna Tiffno koeffitsienti xisoblanadi

va bu FO‘TS ning O‘TSga nisbatan % ni aniqlaydi. Soglom odamlarda 70-80 % ni tashkil etadi. So‘ngra tekshirilayotgan bemor ingalyator orqali nazorat suko‘pligini suradi, bunga reaksiya bo‘lmagan xolda allergen eritmasi bilan nafas oladi. Fakatgina past qonsentratsiyadan boshlaymiz va ozgina reaksiya kelib chikkuncha davom ettiramiz. Xar birida spiogrammada yozib olinadi. Test FO‘TS va Tiffno koeffitsientining 20 %ga kamayganida (+) musbat xisoblanadi. Rivojlanayotgan bronxospazm bronxodilyatatorlar bilan bosiladi.




-Sovuq bilan o‘tkaziladigan PT-sovuq dan kelib chiquvchi eshakemni qo‘llaniladi. Bemorning bilak soxasiga muz bo‘lakchasi 3 minut davomida qo‘yiladi. Musbat reaksiya kuzatilsa usha soxaga muz olib tashlangandan 5-6 minutdan keyin qavarchiqli teri reaksiyasi kelib chiqadi.

-Issik bilan utkazilganda PT- issikdan kelib chiquvchi eshakemda qo‘llaniladi. Bemorning bilak soxasiga issik suvli bko‘ps (40-42 gradus S)ni 10 min qo‘yiladi. Musbat reaksiyada o‘sha soxada qavarchiqlar paydo bo‘ladi.

-Ekspozitsion PT biror bir muxitga muljallanadi. Agarda tekshiriluvchida kasallikning aniq bir belgilari kuzatilmasa, bemorni taxmin kilinayotgan muxitga tushiriladi. M: dorixonona, sex, otxona, gulzorlar. Qaysi bir muxitdagi allergenga sezgirligi bo‘lsa, kasallik xuruji kuzatiladi.

-Qonko‘ptival – eritilgan allergen pastki qonko‘ptiva xaltachasiga bir tomchi tomiziladi. Agar sinama musbat bo‘lsa, ko‘zda kizarish va shish ko‘zdan yosh okishi, ko‘zning qichishishi kuzatiladi.



Endonazal: diametri 5 mm bo‘lgan yumaloqlangan paxta sharchasiga 0,7 ml allergen tomiziladi va pastki burun supralari chiganoqlari old qismiga 10 daqiqa qo‘yiladi. Burunning ikkinchi yarmiga esa nazorat suyuqligi tomizilgan paxta sharchasi kiritiladi. Nazoratli sinama manfiy bo‘ladi (bo‘lishi kerak). Agar burunda shish, kizarish, tumov, suv oqish belgilari bo‘lsa reaksiya «+» musbat bo‘ladi. U rinoskopiya, rinotaxometriya apparati yordamida aniqlanadi.

Trombotsitopenik indeks.

Dori allergiyasini aniqlash maqsadida trombotsitopenik va leykopenik testlarni kullash mumkin. Organizmda sezgirligi bor bemorlarga o‘sha sezgirlikka mos allergen tushsa, trombotsitopenik reaksiya sodir bo‘ladi. Trombotsitlar miqdorining kamayib ketishi antigen - antitana o‘rtasida maxsus reaksiyaning oqibatidir.

Tekshirish naxorda o‘tkaziladi. Bemor barmogidan bir tomchi qon olinib, maxsus laboratoriya buyum oynasi ustida yangi tayerlangan 14% li magniy sulfatning bir tomchisi bilan aralashtiriladi. Trombotsitlar soni allergenni organizmga kiritishdan oldin sanab chiqiladi. Keyin bemorga 30-50 gradus S isitilgan allergenni ichishga eki eyishga beriladi, oradan 30-90 daqiqa utgandan sung qon tomchisi kayta olinib, trombotsitlar soni sanaladi. Ma‘lumot uchun trombotsitlarning eng kam foizi olinadi, bu miqdor trombopenik indeks deyiladi.

Trombotsitopenik indeks – trombotsitlar sonining allergenni tanaga kiritguncha va tanaga kiritgandan keyingi farkidir



Eliminatsion testlar- allergen bilan bemor urtasidagi bogliklikni ko‘potib kasallik belgilarini ko‘potishga karatilgandir. Bu usul ko‘pincha ovqat va (kam) dori allergiyalari diagnostikasida

va remissiya boshlangandan sunggina shubxa kilingan allergenga nisbatan provakatsion sinamalar utkaziadi. Eliminatsion sinama ma'lum ovqat maxsulotini va barcha shu turdagi maxsulotlarni ovqat ratsionidan chetlash. Masalan: (sut va sut maxsulotlari). Parhez 1-2 hafta mobaynida buyuriladi va keyin provakatsion test buyuriladi. Parhez: tuxumsiz, bugdoysiz, glyutensiz bo'ladi. Agar eliminatsion sinama bilan anamnezidagi ovqat maxsulotiga allergiyasi aniqlash qiyin bo'lsa, tulik parhez 4-5 kunga buyuriladi. Fakatgina karama- qarshi ko'rsatmalar bulmasligi lozim.

Laborator tekshirish usullari

Laborator tekshirish usullari, allergologik kasalliklarning quzish davrida , allergen bilan massiv qontaktida bo'lgan xollarda, bemorlarning alergenga nisbatan yuqori sezuvchanlik xolatlarida , kasbga oid allergik kasalliklarda kullanilib, nospetsifik va psevdoadlergik xollar bo'lsa inQor etiladi. Yuqoridagi tekshirish usuli inson uchun umuman xavfli emas.

I.Sensibilizatsiya reaginli tipli kechishida quyidagi reaksiyalarni kullash mumkin.

1) allergen – specific JgE test va radioallergosorbent (RAST) bunda turli allergenga nisbatan JgE antitelo aniqlanadi.

2) 3M total JgE FAST – test va radioimmunosorbent testi (RIST) , bu usul JgEning umumiy qonsentratsiyasini aniqlashga yordam beradi. RAST usuli bir muncha aniq tekshirish usuli bo'lib, radioallergosorbent (RAST) usulida qon zardobida kasallikni keltirib chikargan maxsus allergen 1gE aniqlanadi.

RAST usuli Kumbs usulining uzgartirilgan turi xisoblanadi. Bu usulning moxiyati shundaki, kiziktiraetgan allergen kogos diskka kovalent biriktiriladi. Zardob qo'shilganda zardobda shu allergenga muvofik keladigan 1gE bo'lsa, allergenning antitana bilan bog'lanishi bilan sodir bo'ladi. Nospetsifik 1gE yuvilgandan keyin 1gE ga qarshi radioaktiv yod bilan nishonlangan antitanalar qo'shiladi. Allergen (kogosda) + spetsifik 1gE + 1gE ga antitanalar kompleksi xosil bo'ladi. Boglanmagan 1gE antitanalar chikariladi. Kompleks radioaktiv ligi gamma-xisoblagichda aniqlanadi. Radioaktivlik qancha yuqori bo'lsa, patsient zardobida shu kadar Ko'p spetsifik 1gE bo'ladi. Bu usulning afzal tomoni shundaki, bitta allergen bilan test qo'yish uchun atigi 0,05 ml bemor zardobi kerak bo'ladi.

3) SHuls Deylning bevosita va passiv allergenni aniqlash usuli. Bevosita usul tajribada aniqlanib, sensibilizatsiyalashtirilgan xayvonning sillik muskulli organi olinib, eritma solingan vannaga qo'yilib uning qisqarishi yozib olinadi. So'ngra vannachaga allergen qo'shiladi va yana sillik mushak qisqarish intensivligi baholanadi.

Passiv reaksiyada bemor odam qoni zardobidagi reaginlarni aniqlashda qo'llaniladi, buning uchun maymunning yonbosh ichagidan bir bulagini eritmali vannachaga solinadi, keyin esa bemorning qon zardobi vannachaga solinadi. Antitelo borligi uchun ular ichakka yopishadi, keyinchalik allergenni kushganda ichakning qisqarishiga olib keladi.

4) Bazofil test bevosita va bilvosita.(bazofillar maxsus bevosita jaroxatlanishi)

Bevosita reaksiyani olib borishda tekshirilayotgan 5 ml qon olinib 1 soat mobaynida sentrafugada aylantiriladi keyin esa leykotsitlar chukmasi Paster pipetkasi bilan olinib toza probirkaga solinadi so'ngra sentrafugadagi probirkalarga 0,3 ml da solinadi. Birinchi probirkaga (tajribadagi) 0,1 ml NaClning izotonik eritmasi, allergen ma'lum dozada qo'shiladi. Ikkinchisiga (nazoratdagi) 0,1 ml NaClning izotonik eritmasi allergensiz qo'shiladi. 10 minut davomida 37° S xaroratda probirkalar qo'yiladi va keyin 1500 aylangan sentrafugada 10 minut davomida aylantiriladi. Probirkalarda Paster pipetkasi yordamida saklanma aloxida buyum oynachalariga o'tkaziladi va mikroskop ostida bazofillar jaroxatlanishi kuriladi.

Tajribadagi va nazoratdagi preparatlarda xujayralarning jaroxatlanishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$BMJR (RSPB) = \frac{\text{tajribadagi bazofillar jaroxati } \%}{\text{Bazofillar maxsus jaroxatlanish r-yasi} \cdot \text{nazoratdagi bazofillar jaroxati } \%}$$

Reaksiya kursatkich 1,4 va undan yuqori bo'lsa «+» musbat xisoblanadi.

II.Sensibilizatsiyaning sitotoksik tipi va quyidagi reaksiyalardan foydalanish mumkin:

Immunoflyurorestensiya

Autoimmungemolitin anemiyadagi Kumbs testi

Radioimmunologik tekshirish

SHteffen reaksiyasi

III. Sensibilizatsiya immunokompleksli tipida:

Sirkulyasiyalangan immun komplekslarni aniqlash

Revmatoid faktorni aniqlash

Pretsipitirlangan antitelolarni aniqlash usuli

IV. Sensibilizatsiyaning sekin tipda kechishi

Qondagi leykotsitlar migratsiyasining tormozlanish reaksiyasi, bu usulning moxiyati shundaki, sensibilizatsiyalashgan T limfotsitlar (masalan gapten ta'sirida) limfokinni ajratadi. Limfokin – leykotsitlar migratsiyasini tormozlovchi faktor xisoblanadi.

Leykotsitoliz usuli. 1956 yilda Biak (Biack) leykotsitlarning xalokatga uchrash xolatini allergik kasalliklarni aniqlashda kursatkich bula olishini isbotladi. Maxsus lyuminessent mikroskop yordamida allergenlar ta'sirida leykotsitlarning emirilish xolatini kuzatdi.

Allergologiyada instrumental tekshirish

Nafas olish sistemasining allergik jarayonlarida klinik-rentgenomorfologik taksimlanishi

| Jarayonning joylashuvi | Nozologik tasnifi | Klinik-rentgenologik o'zgarishlar | Morfologik o'zgarishlar | Okibati |
|---|-------------------------------|--|--|--|
| Allergozlar | | | | |
| Yuqori nafas yo'llari burun | Sennaya lixoradka, rinopatiya | Eozinofiliya burun gidroreyasi | Eozinofilli shilliq infiltrat | Polipoz granulema |
| Gaymor bushligi | gaymorit | Uchuvchi infiltrat (Qorayish) | Eozinofilli infiltrat, shish | Granulema |
| Xalkum | Faringit (Kvinke shishi) | Uchuvchanlik (letuchest) | | |
| Xiqildoq | Laringit (Kvinke shishi) | | | |
| Traxeya | traxeit | Eozinofilli balgam | | |
| O'rta nafas yo'llari bo'lak bronxlari | bronxit | Astmaga uxshash (bronx utkazuvchanligining reaktiv o'zgarishi) | Ko'p uchraydigan endo-mezo, -peripan bronxit | Pnevmoskleroz, o'pka emfizemasi, bronxoektaz surunkali o'pka yurak |
| Segmentar subsegmentar bo'lakchalar ichi | Bronxoeolit Bronxial astma | Eozinofiliya | | |
| Pastki nafas yo'llari bo'lakchalar pastidagi bronxlar | Bronxial astma | Uchuvchanlik (letuchest), retsidivlanish | Eozinofiliya infiltrat shish | Granulema eozinofiliya pnevmoskleroz |
| Terminal bronxiolalar | Eozinofilli infiltrat | Izolyasiyalanganlik, Ko'plab bo'lishi, katta uchokli | SHish | Surunkali allergik pnevmoniya |

| | | | | |
|--|---|--|--|---|
| | | bo'lishi | | o'tkir osti va surunkali nafas yetishmovchiligi |
| Alveolyar yul | O'tkir shishi Atelektaz | Subsegmentar, segmentar, kichik uchokli disseminatsiya | | |
| Plevra | Plevrit 1.Plevraning birlamchi eozinofilli inf-ti 2.Ikkilamchi a)pnevmoplevrit (spontan pnevmotoraksdan sung) b)gemoplevrit (gemotoraks kasalliklari) v)Parapnevmoniya allergik plevrit g) Rakli, reak allergik plevrit d) Tuberkulyozli reaktiv allergiya plevrit | Adgeziv o'pka suratining kuchayishi va deformatsiyasi | Fibrinoz eozino-li seroz eozinofilli Yiringli eozinofilli gemorragik eozinofilli neytrofilli eozinofiliya Limfotsitar eozinofiliya | Plevroskleroz, o'tkir , o'tkir osti, surunkali nafas etishmovchiligi |
| Kollagenozlar | | | | |
| O'pka qon tomirlari | Vaskulit (tomirli pnevmoniya) a)izolyasiyalangan b)kollagenozning ko'rinishidan biri | O'tkir uchoklar sikllilik, retsdivlanish. Qon tupurish | Nekrozlangan panvaskulit Perivaskulyar eozinofilli xujayra ilfiltratsiyasi | Gemosideroz o'pka tomirlari sklerozi, surunkali nafas yetishmovchiligi |
| O'pka to'qimasi | Interstitsial pnevmoniya (pnevmonit) a)izolyasiyalangan (Xamon-Rich sindromi) b)kollagenoz kurinishlaridan biri | O'tkir kechadi Asta-sekin kechadi tursimon tuzilishga ega o'pka suratining kuchayishi, asosan bazal,urta qismlarida, disksimon attelektazlar | Diffuz fibroz. Karnifikatsiya bilinar-bilinmas diffuz pnevmoskleroz | O'tkir osti nafas yetishmovchiligi tursimon pnevmoskleroz diffuz pnevmoskleroz Surunkali o'pka yurak |
| Parazitozlar | | | | |
| Qon tomirlar, parenxima,oralik to'qima | Trixinellyoz askaridoz | O'tkir uchoklar kam simptomli uchoklar. Polimorf infiltratsiya | Vaskulit o'tkir regional shish, eozinofilli infiltrat | Qon tomirlar sklerozi Granulema |

| | | | | |
|--------------------------------------|--|---|-------|----------------------------------|
| | Exinokokkoz Ankilostomidoz Strongiloidoz | | | |
| Bo'laklar osti bronxlar Plevra | paragonimoz | Sekinlik bilan kechadi. Astmatoidli xurujlar. Uchokli infiltratlar | | Segmentar pnevmoskleroz |
| | Filyariatoz (Veyngarten kasalligi) | Astmatoidli xurujlar buzilishi | shish | O'tkir nafas yetishmovchiligi |

2-mavzu. Dermatologik sindromni taqqoslash: teri kichishi, shish, toshmalar. Eshak emi. Kvinke shishi.

Klinik mashg'ulot: Allergologik bemorlardan anamnez yig'ish

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|--|--|
| Mashg'ulot vaqti -4 soat | Talabalar soni : 8-10 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Amaliy mashgulot |
| <p>Amaliy mashgulot rejasi</p> <p>Reja:</p> <p>1. Teri kichishi, shish, toshmalar haqida ma'lumot.</p> <p>2. Eshakemi etiopatogenezi va klinikasi</p> <p>3. Kvinke shishi, klinik turlari</p> <p>4. Yuqoridagi kasalliklarni tashxisoti va davolash</p> <p>5. Kvinke shishi va eshakemining birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi</p> <p>6. Eshakemiga birinchi yordam kursatish</p> <p>7. Psevdoallergik reaksiyalar haqida ma'lumot</p> | <p>Amaliy mashgulotning qisqacha annotatsiyasi</p> <p>Dermatologik sindromni taqqoslash usullarini urganish. Teri kichishi, shishlar, toshmalarni taqqoslashni talabalarga o'rgatish.</p> <p>Eshakem klinkasi davolash chora- tadbirlarni talabalarga o'rgatish, Kvinke shishi xakidagi ma'lumotlarni urganish va rivojlantirish va talabalarga o'rgatish.</p> <p>Kvinke shishi va eshakemining birlamchi va ikkilamchi profilaktikasini olib borish chora- tadbirlarini talabalarga tushuntirish</p> <p>Eshakemiga birinchi yordam kursatishni o'rgatish</p> <p>Psevdoallergik reaksiyalarni davolash, tashxislashni talabalarga o'rgatish</p> |
| <p>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</p> <p>Allergologiyada dermatologik sindromni taqqoslash bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish</p> | <p>Maqsadi yoritiladi.</p> <p>1. Teri kichishi, shish, toshmalar talabalarga tushuntirish</p> <p>2. Eshakem etiopatogenezini klinik kechishini davolash usullari haqida ma'lumot berish</p> <p>3. Kvinke shishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.</p> <p>4. Psevdoallergik reaksiyalar haqida ma'lumot berish</p> |
| Ta'lim berish usullari | Multimedia, interfaol usullar |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqichlari va vaqti. | Ta'lim beruvchi | Ta'lim oluvchilar |
|--------------------------------------|--|---|
| Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa | 1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi | Talabalar amaliy mashgulotga tayyor bo'lishi kerak, davomat tulik bo'lishi kerak |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish | Talabalar tinglaydilar |
| 2 – asosiy bosqich (40 daqiqa) | 1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. “Klaster” usuli Puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi (Dermatologik sindromni taqqoslash: teri kichishishi, shish, toshmalar. Eshak emi. Kvinke shishi. Psevdoallergiya.) 3. Slaydlar, multimedialardan foydalanadi 4. Provokatsion sinamalar o'tkazadi, pikfloumetriya, spirografiya o'tkazadi va baholaydi. Ko'krak qafasi, burun oldi bo'shliqlari rentgenografiyasi interpretatsiya qiladi. Respirator allergiya va bronxospatik sindromi bor bemorlarni kuratsiyasi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 3- Klinik mashg'ulot (120 daqiqa) | Allergologik bemorlardan anamnez yig'ish | |
| 4-yakuniy bosqich (20 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |
| Jami: 240 daqiqa , 6 soat | | |

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

Allergologiya fani anatomiya, normal fiziologiya, patologik anatomiya va fiziologiya, bioximiya va barcha klinik fanlar bilan integrativ bog'liklikda utiladi va bu fanlardan olingan bilim saviyalari e'tiborga olinadi. «Klinik allergologiya» fanini urganishi talabalarning gumanitar, fizik- ximik, tibbiy fanlar bo'yicha olingan bilimlariga asoslangan, etarlicha chukurligi va kengligi xos, «Davolash ishi» soxasidagi klinik fanlar (terapiya, farmakologiya, dermatologiya, otolaringologiya, reanimatsiya), va pediatriya bilan birlashgan.

Mavzu bayoni

Eshakemi (urticaria)-terining surgichchsimon qavatining chegaralangan qismini egallagan kichuvchi toshmalar, qavarchiqlar bilan xarakterlanuvchi kasallikdir. Bu kasallik birinchi bo'lib 1882 yilda N.Quinke tomonidan aniqlangan.

Eshakemi eng Ko'p tarkalgan kasallik bo'lib, bronx Adan keyin ikkinchi urinda turadi. Bu kasallik 21 yoshdan to 60 yoshgacha bo'lgan ayollarda ko'proq uchraydi, bu ularning neyroendokrin sistemasining tuzilishiga boglik. Irsiy moyillik 25-56 % xollarda uchraydi.

G.Fineman (1984 y) bo'yicha eshakemning klassifikatsiyasi. Bu klassifikatsiya etiologik faktorlarga asosan tuzilgan.

Immunologik: I tip, II tip, III tip

Anafilaktoid:

- tugma angionevrotik shish
- mediatorlarning kimyoviy liberatorlari
- gistaminga nisbatan sezgirlikning yuqoriligi

Fizik

- dermatografiya
- sovuq
- issik
- vibratsion
- xolinergik
- kuyoshli
- mexaniq kisilishdan
- akvagen

Aralash gurux

- papullez eshakemi
- pigmentli eshakemi
- mostotsitoz sistemali
- ko'pumli kasalliklarga uxshash
- tizimli kasalliklar (biriktiruvchi to'qima aktivligi, ba'zi o'smalar, endokrin kasalliklar)
- idiopatik
- psixogen

Piskiy (1987 y) bo'yicha eshakemi kechishi davrlari: (patogenetik jarayonga nisbatan)

- o'tkir
- o'tkir osti
- surunkali
- surunkali retsdivlovchi

Eshakemning kliniko-patogenetik variantlari (Piskiy V.I, Smirnova S.V 1987 y)

1.Allergik

1.1.Oshqozon ichak kasalliklari bilan boglik bo'lmagan

1.2.OIT kasalliklari bilan boglik xollar

2.Psevdoallergik

2.1.Ilgari gepatoksik ta'sirlarni boshdan kechirgan xolatlar (gepatit A va V infeksiyalari, malyariya, Qorin tiflari, dizenteriya, sepsis va boshqalar) zaxarlanish-kuziQorin, is gazi, benzin va boshqalar.

2.2.Nonarkotik analgetiklarga nisbatan yuqori sezgirlik bilan bog'lik xollarda (salitsil kislota birikmalari, pirazon birikmalari)

2.3.Parazitar kasalliklar bilan boglik kasalliklar

Eshakemning etiologiya va patogenezini

Allergik eshakemi-eshakemning bu shaklida to'qimaning allergik tip ta'sirlanishi yotadi. Allergen sifatida:

-dori vositalari

-oziq-ovqat maxsulotlari

-insekt allergenlar ishtirok etadi

Eshakemning rivojlanishida asosan reaginli mexanizm yotadi. Sitologik mexanizm bilan qon kuygan xollarda kechadi. Immunokompleksli mexanizm organizmga dori vositalari (masalan: penitsillin), antitoksik zardob, gamma globulinlar kiritilganda yuzaga keladi.

Psevdoallergik eshakemi. Ta'sir kiluvchi faktorlar: gistamin liberatorlari, komplement aktivatorlari, kaplikrein-kinin sistemalari aktivatorlari bo'lib xisoblanadi. Bu faktorlar ichida – dori moddalari (antibiotiklar, rentgen kontrast m-lari va boshqalar) zardob, j-globulin, bakterial polisaxaridlar.

Psevdoallergik eshakemi kasalligi patogenetik zvenosi rivojlanishida OIT kasalligi va gepatobiliar tizimi funksiyasining buzilishi asosiy bo'lib xisoblanadi. Demak, shunga binoan: manfiy eliminatsion test, ya'ni eshakemi belgilarining ko'zishi yoki 3 va 5 kunlik ochlikdan sung o'zgarishlarning bulmasligi

bilirubinli test –eliminatsion test vaqtida bilirubin miqdorining qonda yuqori bo'lishi

eshakemi ko'zishda bevosita gepatobiliar sistema kasalligining ko'zishi bilan boglik

OIT kasalliklarini davolash okibatining yaxshi bo'lishi

Bilamizki, jigar bare funksiyasini bajargan xolatda biogen aminlar, kininlar detoksikatsiyasi inaktivatsiyasida prostoglandinlar leykotrinlar almashinuvida ishtirok etadi. Turli infeksiya va toksik moddalar jigarining barer funksiyasini buzib, terida mediator paydo bo'lishiga olib keladi va qon tomir utkazuvchanligini oshiradi. Soglom odamlarda gistaminli nagruzka (-2,75 mg/kg ogirlikda)ni zond orqali 12 barmokli ichakka yuboriladi. 165-200 mg gistamin 10 min davomida yuborilganda sezilarli bo'lmagan darajada qonda gistamin oshishiga olib keladi. Ichak-jigar bare funksiyasi buzilgan xolatlarda bu doza eshakemning rivojlanishiga olib keladi.

Klinikasi

O'tkir eshakemi monomorf toshma bilan xarakterlanib, birlamchi elementi –qavarchiq bo'lib, dermaning surgichsimon qavatida paydo bo'ladi. Kasallik butun gavda yoki ma'lum badanning qismlarida kichish bilan boshlanadi. Kichish joylarida birozdand keyin toshmalar teridan kutarilib turadi. SHishning oshishi okibatida kapillyar tomirlar kisilib, qavarchiqlar okara boshlaydi. SHishning markazida ekssudatsiya okibatida pufakcha epidermis kipiklanishi bilan kuzatiladi. Eshakem gemorragik tusga xam Kirishi mumkin, bunda qon tomirlarda qonning shokli elementlari tashkariga chiqadi. Keyinchalik eritrotsitlar parchalanib atrof to'qimada pigmentli doglarni tashkil qiladi. Toshmalar tuganok boshchasidan to gigant ulchamlarigacha etishi mumkin. Bu elementlar aloxida yoki bir-biriga kushilgan bo'ladi. Kasallikning o'tkir davri bir necha soatdan bir necha kungacha bo'lishi mumkin. Agarda kasallik 5-6 haftadan uzok davom etsa surunkali shakliga utadi.

Ular ko'pincha Kvinke shishi bilan kechadi. Surunkali tipda urtikar element papullyoz elementlarga utadi. Kichish bemorlarni Ko'p azob beradi. Kichish joylaridan qon chiqib infeksiya kushilishi mumkin va yiringli uchoklarni xosil qilishi mumkin.

Diagnostika va differensial tashxisda asosiy usul eliminatsion sinama bo'lib, statsionar sharoitida olib boriladi. Bemorga 3-5 kun mobaynida suv ichish tavsiya etiladi. Xaar kuni tozalovchi xukna, dush, engil fizik zurikish buyuriladi. Ochlikdan oldin shu bilan birga tuzli surgi (karlovar geyzer tuzi- 1 st koshik tuzni 1\2 stakan xona xaroratida suvga eritib beriladi) Ochlikka absolyut karama-qarshi ko'rsatma.:

Tuberkulyozning ko'zish fazasi

Qon kasalliklari

Sepsis

YOmon sifatli o'smalar

Nisbiy qarshi ko'rsatma:

yalliglanish jarayonining birgalikda kushilib kelishi (o'tkir va surunkali zotiljam, yiringli obstruktiv bronxit, angina, O'RVI)

QAYe, buyrak yetishmovchiligi, endokrin va gepatobiliar sistema kasalligining dekompensatsiya bosqichida

Ruxiy kasalliklar ko'zish davri

Xomiladorlik va emizish

Gormonga bogliq xollarda

Yuqoridagi monelik xolatlari bemorda qayd etilsa, induvidual diagnostik eliminatsion parhez buyuriladi:

qaynatilgan go'sht bilan va non

sutli maxsulotlar va non eliminatsion dieta kuni 7-10 kunga cho'ziladi

Eliminatsiyaning musbat ta'sir etishi eshakemning allergik turi borligidan dalolat beradi. Agar manfiy natija bersa, kayta ovqat lantirish quyidagicha olib boriladi: 1 kunda sok, sabzavotlar, mevalar; 2 kunda-sut maxsulotlari va nonli maxsulotlar; 3kunda gushtli va balikli maxsulotlar beriladi

Allergik eshakemida eliminatsion dieta okibatida kasallik belgilarining ko'polishi va kamayishi natijasini provakatsion sinamalar orqali taxmin kilingan ovqat maxsulotiga nisbatan sezgirligini aniqlash mumkin.

bilirubinli test – haqiqiy allergik eshakemida bilirubin miqdori oshmaydi ba'zan kamayishi mumkin

flyuoessentli zond – 3 metoksibenzatronli test. Bu bemor qonidan olingan limfotsitlar aralashmasiga qo'shiladi. Haqiqiy allergik eshakemda normaga nisbatan uning yoruglanishi pasayadi. Psevdoallergikda esa doimo oshadi.

Qiyosiy tashxisoti

Gemorragik vaskulitda gemorragiya okibatida shish bo'lganligi sababli, urtikar toshmalar mayda ko'kimtir, qizil va pushtirang bo'lishi mumkin.

Ko'pincha bo'g'imlarning yozuvchi yuzalarida lokalizatsiyalanadi. Pigmentli eshakemi (mastotsitoz) –semiz xujayralar yigiladi. Turlari:

pigmentli dogsimon

tugunsimon

bullyozli

papullyoz

mostotsitoma

diffuz

Bu kasallik uchun Unn belgisi musbat bo'ladi: mexaniq ta'sirlardan keyin eritema va qavarchiqlar xosil bo'ladi (semiz xujayralar biologik aktiv moddalar, asoan gistamin ajralib chiqadi)

Surunkali retsidivlovchi eshakemni kichima kasalligi bilan adashtirish mumkin. Kichima kasalligida asosiy elementlari okimtir, papullalar uzidan keyin doglar koldiradi. Kichishdan keyin qonli kipikchalar xosil bo'ladi. Toshmalarning lokalizatsiyasi: oyok- kullarning yozuvi qismlarida. Surunkali kichimada zararlangan teri soxalari kalinalashadi, rangi uzgaradi. Ba'zan ikkilamchi infeksiya kushilib, maxallik limfadenit kelib chiqishi mumkin. Bemorlarda ok dermografizm xarakterli.

Polimorf ekssudativ eritemada toshmalar simmetrik, kichimaydigan, og'riqli, barmoklarning orkasi va tovonda joylashadi, shilliq qavatlarda vezikulyar toshmalar kuzatiladi. Ogir xollarda

toshmalar vezikulo-bullyoz xarakterga kirib, bemorning umumiy axvolini ogirlashtiradi (Stivens-Djonson kasalligiga utishi mumkin.)

Sifilisning ikkilamchi davrida molekulyar toshmalar ba'zan urtikar xarakterga ega. Sifilitik toshmalar kichimaydi, simmetrik joylashadi, serologik reaksiyalar musbat bo'ladi.

Eshakemining turli shakllarida qiyosiy tashxisot

| Belgilar | Allergik eshokemi | | Psevdoallergik eshakemi | | |
|--|--|-------------------------------------|---|---|------------------------------------|
| | O.I.Tkasalliklari bilan bogliq emas | O.I.Tkasalliklari bilan bogliq turi | Ilgari gepatotoksik | Nonarkotik alergenlarga sezgirlik yuqori | Parazitar kasalliklar bilan bogliq |
| Toshma xarakteri | Tipik | | Ko'pincha demografik va oralash | | |
| Toshmalarning tarkalishi | Ba'zi va keng joylarda | Ba'zi joylarda joylashgan | Ko'pincha kata va birlashgan | Ko'pincha aloxida | Ko'pincha katta birlashib ketgan |
| O.I.T tomonidan shikoyatlar | ko'p | kam | | ko'pincha | |
| O.I.T zararlanish belgilari | ko'p | ko'pincha | | ko'pincha | |
| Kasallikning kechishi | Uzok davom etadigan remissiya. Allergen bilan qontaktdan sung ko'zish fazasi | | Doimiy retsidivli. Ko'zish fazasi. O.I.Tkasalliklari bilan bogliq | Uzok davom etuvchi remissiya NPVP va ovqatli kushimchalardan keyin ko'zishi | Doimiy retsidivlanuvchi |
| Kasallikning mavsumiyligi | Uzok davom etadigan remissiya. Alergen bilan qontaktdan sung ko'zish fazasi | | ko'p | | |
| Eliminatsiya effektivligi | Xammada | Ko'pgina xollarda bor | ko'p | Ba'zi xollarda bor | ko'p |
| Antigistamin vositalardan keyingi samaradorlik | xammada | Ko'pgina xollarda bor | Ba'zi xollarda bor | Ba'zi xollarda bor | ko'p |
| Boshqa allergiyalardan sodir bo'lishi | ko'pincha | | Ba'zi xollarda | ko'pincha | |
| Anamnezida o'tkir infeksiya va zaxarlanish | ko'p | kam | Ko'p xollarda | Kam | |
| Ishlab chikarishdan | Ba'zi xollarda | | ko'pincha | Ba'zi xollarda | |

| | | | |
|--------------|--|--|--|
| zaxarlanishi | | | |
|--------------|--|--|--|

Davolash

1. Allergen bilan qontaktni ko'potish
2. Gipoallergik parhez , enterosorbentlar (aktivlangan kumir yoki biosorb 12-18 gr kuniga yoki pektin) birgalikda buyuriladi.
3. Antigistamin vositalar klaritin yoki ebastin (10 mg x 1 m kuniga, zaruriy xolatlarda 2-3 xaftagacha) bulmasa zaditen -1 tabletka (1 mg) x2 maxal kuniga , agarda ovqat ga nisbatan allergen bo'lsa, 1-2 oy beriladi. Ketotifen sedativ ta'sir kilsa 1 ta tabletka urniga 1\2 tabletka kuniga 2 maxal buyuriladi. Xaydovchilar va Ko'p fizik ishlarni kiluvchilarga, xomiladorlarga tavsiya etilmaydi.
4. Mikrotsirkulyasiyani va qon tomir utkazuvchanligini pasaytirish maqsadida asQorbin kislotasi va kalsiy glko'ponat tavsiya etiladi
5. Surunkali eshakemda boshqa OIT tomonidan kasallik borligini aniqlab, kushimcha giposensibilizatsiyalovchi terapiya buyurish mumkin: vena ichiga 100 mg 5 % li aminokapron kislotasini NaSl 0,9 % li eritmasiga aralastirib kuniga 1 maxal tomchilab 5 kun mobaynida yoki natriy tiosulfat 30 % li 20,0 kunaora vena ichiga 5 ta yoki gistoglobulin teri ostiga sxema bo'yicha: 0,2-0,4-0,6-0,8-1,0 ml kunora 4-5 kundan keyin esa 2 mldan 5 kun mobaynida qilinadi.
6. Kichimaga qarshi maxalliy allergodil yoki gistilit aerzollari; mentolning 0,5-1 % li eritmasi bilan artish; 1 % limon kislotasi yoki 1 % ichimlik sodasi eritmasi bilan artish.
Kichishga qarshi va maxalliy yalliglanishag qarshi glko'poQortikosteroidlarni malxami yoki krem xolida (elokom 1 malxam kuniga terining zararalangan soxasiga) surtiladi. Radonli vannalar yoki igna bilan davolash o'tkaziladi.

Kvinke shishi .

Kvinke shishi (angionevrotik shish, gigant eshakema) derma va teri osti yog' klechatkasining aniq chegaralangan shishi. Birinchi bo'lib N.Quincke 1882 yilda aniqlagan.

Etiologiya va potogenez:

Irsiy angionevrotik shish rivojlanishida 1 komponent kompliment ingibitorning yetishmovchiligi okibatida kelib chiqadi. Bu nasldan naslga autosom dominant tipda utadi. Bu kasallikning 3 ta klinik turi farklanadi.

I tip ingibitor yetishmovchiligi 85 % ni tashkil qiladi.

II tip ingibitor miqdori normada lekin aktiv emas.

III tip ingibitor miqdori 3-4 martaga oshgan, lekin u strukturaviy uzgargan va u albumin bilan kompleks hosil qiladi.

Kvinke shishning etiologik foktorlari:

Dori vositalari, oziq ovqat mahsulotlari insenkt allergenlar ishtirok etadi. Kvinke shishining rivojlanish asosida reaginli mexanizm yotadi.

Klinika

Kvinke shish katta oqish, qattiq qichimaydigan infiltrat bosganda chuqurcha hosil bulmaydi. Ko'p tarqalgan bo'lsa gigant eshakemi deb aytiladi. Kvinke shishi ko'pincha g'ovak to'qimalarda va shilliq qavatlarda bo'ladi. Ular ko'pincha lablarda, qovoq, yorg'oq, og'iz shilliq qavatlari (til, yumshoq tanglay, bodomcha bezlari) da uchraydi.

Klinik turlari.

1. Hiqildoq turi
2. Oshqozon ichak traktida bo'lsa (abdonimal)
3. Yuz sohasi
4. Ko'krak sohasi (kam uchraydi)
5. Urogenital

Hiqildoq sohasida shishning bo'lishi eng xavfli hisoblanadi. Hiqildoq sohasida shish bo'lsa ovozning hirrilashi, akkilovchi yo'tal, keyinchalik nafas olishning qiyinlashuvi, insprator

hansirashga o'tishi. Keyinchalik esa hansirash inspirator – ekspirator xarakterga ega bo'ladi. Nafas shovkinli, stridoroz xarakterga ega bo'ladi.

Yuz rangi avvaliga sionotik bo'lib so'ngra okarib ketadi. Bemorlar xalovatini ko'potib, azoblanadi. Shish traxeobronxial daraxtgacha etib borsa o'tkir Xiqildoq shishi simptomlariga diffuz ekspirator xirillashlar bilan kechuvchi BA sindromi qo'shiladi. Og'ir bosqichlarda tezda yordam kursatilmasa bemor asfiksiyadan vafot etishi mumkin. O'rta va yengil kechishda xiqildoq shishi 1 soatdan 24 soatgacha davom etishi mumkin.

Patogenetik kechishiga ko'ra angionevrotik shishlar quyidagilardir:

A) allergik

B) irsiy

Ularning klinik kechishi turlicha kechadi va bu quyidagi jadvalda keltirilgan:

| Belgilar | Irsiy angionevrotik shish | Allergik angionevrotik shish |
|--|---|---|
| - Kakallikning boshlanishi | Yoshligidan | Ko'pincha kattalarda |
| - Prodromal davr | Aniq ifodalangan | Ko'p yoki kam ifodalangan |
| -Irsiylik | Autosom dominant tipda oila a'zolarida nasldan naslga o'tuvchi Xiqildoq shishning bo'lishi(ulim xolatlarining bo'lishi) | 30-40% xollarda bo'lishi mumkin |
| -Ko'zg'atuvchi omillar | Mikrotravma jaroxatlanishi operatsiya va boshqa stress xolatlar | Turli xil allergenlar. |
| -Kasallik boshlanishi | SHish bir necha soat davomida paydo bo'ladi. | SHish 1 minutdan 1 soatgacha paydo bo'ladi |
| -Eshakemi | Bulmaydi | Ko'pgina xolatlarda |
| -Joylashishi | Ko'pincha yuqori nafas yo'llari va OIT | Xar xil. 25% xollarda xiqildoq |
| -SHishning tashki kurinishi | Oq, juda xam qattiq konsistensiyali, katta maydonni egallaydi | Kattaligi va qonsisten siyasi xar xil uzgaruvchan, rangi oqimtir, oq-qizgish ba'zan ko'kimtir Allergen bilan bog'lik xolatda |
| -Kasallik kechishi | Remissiya davri 1 yildan ortik ko'pincha birdaniga qo'zgash Samarasiz | Samarali |
| -Gormanal antigistaminlarning effektivligi | va Yomon | YAxshi |
| -Oqibat | Kamaygan, Ko'paygan, | Norma |
| S ₁ inaktivatori miqdori | normal | Norma |
| -S ₄ S ₂ miqdori | Kamaygan | Ko'pincha oshgan |
| -Qonda umumiy Ig E miqdori | Normal | |

Xiqildoq shishida o'tkir davri tugagandan keyin xam ovoz xirrilashi, Xiqildoqdagi og'riqlar, qiyinlashgan nafas olish, o'pka da auskultativ quruq va xul xirillashlar eshitiladi. Xiqildoq shishi bilan kechuvchi Kvinke shishlari juda xam tez intensiv terapiyani talab qiladi va bu terapiya bilan bemor axvoli yaxshilanmasa traxeotomiya qilinadi.

SHishning OIT da joylashishi abdominal sindrom bilan namoyon bo'ladi. Bemorda 1-navbatda kungil aynishi, ovqat va keyinchalik ut suko'pligi bilan birga kusish kuzatiladi. Qorin soxasida lokal og'riqlar va bu og'riqlar butun Qorin soxasiga tarkaladi, meteorizm va ichaklar peristaltikasi kuchayadi. Bu davrda Shyotkin simptomi (+) musbat Bo'lishi mumkin. Xuruj profuz ich ketish bilan tugaydi. Axlal mikroskopik tekshirilganda eozinofillar va SHarko – Leyden kristallarini ko'rish mumkin. Abdominal shishlar 30% xollarda teridagi o'zgarishlar birga kuzatiladi.

Patologik jarayon urogenital soxalarda joylashsa, o'tkir sistit belgilari bilan kechib keyinchalik siydik chikmasdan kolishi mumkin. Ayollarda bachadon va tuxumdon soxalarida kuchli og'riqlar bilan kechadi.

Agarda jarayon yuz soxasida joylashsa miyaning seroz qavatlari zararlanib, miningial simptomlar bilan ya'ni ensa mushagi rigidligi, kuchli bosh ogrigi, kusish ba'zan esa tutkanok bilan birga kechadi. Kamdan kam xolatlarda labirint tizimning zararlanishi okibatida Mener sindromi kuzatiladi. Bunda bosh aylanishi, kungil aynishi, kusish bilan namoyon bo'ladi.

Ba'zan kukrak kafasida xam shish bo'lishi mumkin. Bunda jarayon yurak qon tomir soxasidagi o'zgarishlar bilan birga kechadi. Paroksizmal taxikardiya xurujini eslatib ekstrasistoliyalar xam kuzatiladi.

Demak, Kvinke shishning ogirlik darajasi potologik jarayonning lokalizatsiyasi xamda intensivlik darajasiga boglik.

Irsiy angionevrotik shish klinikasida uzok vaqt davom etuvchi juda xam qattiq shish xarakterli. Bunda shishning Xiqildoq va abdominal sindrom bilan kechuvchi xolatlarini kuzatiladi, terida kichish va toshmalar bulmaydi va antigistamin vositalari samarasiz xisoblanadi.

Tashxis va qiyosiy tashxis.

Agarda Kvinke shishdan oldin eshakemining retsidivlangan yoki surunkali formalari bilan birga kechsa tashxis qo'yish unchalik qiyinchilik tugdirmaydi. Agarda shish xech Qanday eshakemi belgilsiz utuvchi shishlarda irsiy angionevrotik shish bormi yoki ko'pligini inkor etish lozim. Bu maqsadda qon plazmasidagi S_1 ingibitor va S_2 S_4 va S_3 lar miqdorini aniqlash lozim. Irsiy angionevrotik shishda S_1 ingibitor miqdori normal kursatkichning 20-30% ni tashkil etadi va bu kursatkich kasallikning ko'zish davrida nolga tushishi mumkin. SHuni esda tutish lozimki 15% bemorlarda miqdoriy etishmovchilik emas balki komplementning S_2S_4 komponentlari funkcionol yetishmovchiligi kuzatiladi. Uning miqdori normaning 30-40% ni tashkil etadi. S_3 – komponent odatda uzgarmaydi. L. Jager (1986) qon plazmasidagi komplement komponentlari S_1 ingibitor - 180 mg/l, S_1 – 30 mg/l, S_2 – 30 mg/l, S_3 – 900 – 1500 mg/l. S_4 – 200 – 600 mg/lidir.

Qiyosiy tashxisoti: allergik va psevdallergik angionevrotik shish qiyosiy tashxisotiga uxshaydi.

Irsiy anginevrotik shish sindromini surunkali yurak qon tomir va siydik ajratish tizimi kasalliklaridagi shishlaridan farqlash kerak. Bu kasalliklarda shish doimiy bo'lib ertalabki soatlarda kuchayadi va asosiy kasallik simptomatikasi bilan kechadi.

Misher makroxeylitida xam uzok vaqt davom etuvchi labning shishi kuzatiladi. Kvinke shishda esa maksimal shishning davomiyligi 10 - 14 kun davom etishi mumkin.

Davolash prinsipi:

Davolash

1.Allergen bilan kontaktni yo'qotish

2.Gipoallergik parhez, enterosorbentlar (aktivlangan ko'mir yoki biosorb 12-18 gr kuniga yoki pektin) birgalikda buyuriladi.

3.Antigistamin vositalar klaritin yoki ebastin (10 mg x 1 m kuniga, zaruriy xolatlarda 2-3 xaftagacha) bulmasa zaditen -1 tabletka (1 mg) x2 maxal kuniga , agarda ovqat ga nisbatan

allergen bo'lsa, 1-2 oy beriladi. Ketotifen sedativ ta'sir kilsa 1 ta tabletka urniga 1\2 tabletka kuniga 2 maxal buyuriladi. Xaydovchilar va Ko'p fizik ishlarni kiluvchilarga, xomiladorlarga tavsiya etilmaydi.

4.Mikrotsirkulyasiyani va qon tomir utkazuvchanligini pasaytirish maqsadida asQorbin kislotasi va kalsiy glko'ponat tavsiya etiladi

5.Surunkali eshakemda boshqa OIT tomonidan kasallik borligini aniqlab, kushimcha giposensibilizatsiyalovchi terapiya buyurish mumkin: vena ichiga 100 mg 5 % li aminokapron kislotasini NaSl 0,9 % li eritmasiga aralashtirib kuniga 1 maxal tomchilab 5 kun mobaynida yoki natriy tiosulfat 30 % li 20,0 kunora vena ichiga 5 ta yoki gistoglobulin teri ostiga sxema bo'yicha: 0,2-0,4-0,6-0,8-1,0 ml kunora 4-5 kundan keyin esa 2 mldan 5 kun mobaynida qilinadi.

6.Kichimaga qarshi maxalliy allergodil yoki gistilit aerzollari; mentolning 0,5-1 % li eritmasi bilan artish; 1 % limon kislotasi yoki 1 % ichimlik sodasi eritmasi bilan artish.

Kichishga qarshi va maxalliy yalliglanishag qarshi glko'poQortikosteroidlarni malxami yoki krem xolida (elokom 1 malxam kuniga terining zararalangan soxasiga) surtiladi. Radonli vannalar yoki igna bilan davolash o'tkaziladi.

Irsiy anginevrotik shish davosi uchun tezda S₁ ingibitor urinbosari kuyilishi kerak. Bemorga muzlatilgan toza plazma 250 – 300 ml miqdorda qo'yiladi. O'tkir davrda E – aminokapron kislotasi 5% - 100 – 200 ml tomchilab o'tkazish mumkin. Keyin 100,0 vena ichiga xar 4 soatga yoki 4–5 maxal 4,0 ml peroral toki ko'zish fazasi tugaganicha beriladi.

Agar Xiqildoqda shish bo'lsa LOR bo'limiga yotqizilib kerak bo'lganda traxeostomiya qilish lozim.

Irsiy anginevrotik shishlarda nafas yo'llari shishlarida o'tkir davrda vena ichiga tomchilab 200,0 – 300,0 ml toza muzlatilgan plazma, 200,0 – 300,0ml 5% E – aminokapron kislotasi, 40 – 80 gr laziks, 8 – 12 mg deksamezaton vena ichiga tomchi sifatida, qon tomir qisqartiruvchi vositalar (0,1% adrenalin 5% efedrin, naftizin yoki YA adrenostimulyatorlar) beriladi.

Abdominal sindrom bilan bemorlar xirurgiya bo'limiga yotqiziladi. Og'riqsizlantiruvchi, spazmolitiklar buyuriladi. Uzoq davom etuvchi shish ichaklar nekroziga va operativ muolajalarga majbur etish mumkin.

Psevdoallergik reaksiyalar

Psevdoallergik reaksiyalar haqiqiy allergik reaksiyalardan farkli 2 ta rivojlanish bosqichiga ega: patokimyoviy va patofiziologik. Ba'zi reaksiyalar borki haqiqiy reaksiyaga xam psevdoallergik reaksiyalarga xam kirmaydi. Klinik xolati uxshab ketishi mumkin. Asosiy kriteriy qilib patokimyoviy bosqich olinadi. Psevdoallergik reaksiyada xam haqiqiy allergik reaksiyaning patokimyoviy bosqichida ajraladigan mediatorlar ishtirok etadi. Psevdoallergik reaksiyalarda maxsus tekshirishlar olib borilganda immun mexanizmlar aniqlanmaydi, biokimyoviy tekshirishda qon plazmasida gistamin miqdorining oshganligini ko'rish mumkin. Ba'zi kasalliklar borki klinikasi bilan psevdoallergik reaksiyalarga uxshaydi, r-n allergiyaga xech Qanday alokadorligi ko'p. M: primaxinga boglik gemolitik kamqonlik (malyariyaga qarshi primaxin dori vositasini ishlatgandan kelib chiqadi). Bu kasallikni yana 8-aminoxinolin guruxi vositalari, sulfanilamidlar, nitrofurantoin, mitilen kuki va boshqalar keltirib chikarishi mumkin.

Klinikasida dori vositasiga nisbatan uziga xos bo'lmagan reaksiya bo'ladi, bu gemolitik kriz tarzida namon bo'lib, xatto ulimga xam olib kelishi mumkin. Uning asosida enzimopatiya G 6 FD ning eritrotsitlarda yetishmovchiligi yotadi.

Psevdoallergik reaksiyaning rivojlanishida asosiy mediatorlardan, gistamin, leykotrien, komplement aktivlovchi maxsulotlar, kallekrein kinin sistemalari ishtirok etadi. Bu mediatorlar to'gridan to'gri xosil bo'ladi.

Psevdoallergik reaksiyalarning bir guruxi semiz xujayralardan Ko'p miqdorda gistamin ajralishi yoki gistamin inaktivatsiyasining buzilishi bilan boglik. Fizik faktorlar: yuqori xarorat, ultrabinafsha nurlanishi ionli radiatsiyalar semiz va bazofil xujayralarga to'gridan to'gri ta'sir qilib , gistaminni ajratadi.

Ko'pgina kimyoviy moddada xujayra membranasini zararlamasdan gistaminni ajralishiga olib keladi. M: polimer aminlar, polisaxaridlar (dekstran), antibiotiklar (polimiksin V), enzimlar (ximotripsin) kationli oksillar, zaxarli moddalar, rentgen kontrast vositalar.

Psevdoallergik reaksiyalar boshqa guruxi 1 kompliment komponentning yetishmovchiligi va noimmunologik komplementning aktivlanishi ya'ni (alternativ yul) bilan boglikdir.

1 tip komponent-komplementlar reaksiyasining ingibitori S1-1 NA J₂ neyroaminoglikoprotein xisoblanaib, uning masasi: 90000. Soglom odamning qon plazmasida 180 ± 50 mg/l u kallikrein, plazmin, aktivlangan xagemon faktorlar yunksiyasini pasaytiradi. SHunday qilib, fakatgina komplement aktivlanishini boshqaribgina kolmay, kallikrein-kinin tizimi, fibrinoliz, qon ivishini boshqaradi. Bu ingibitorning yetishmovchiligi komplementning klassik yulining aktivlanishiga olib keladi. 1) Kvinke shishiniing tugma variantlari: (bu kasallikning 3 ta tipi: ingibitor yetishmovchiligi, normal va miqdori oshgan struktur defektli ingibitorning bo'lishi bilan) rivojlanishiga olib keladi.

Psevdoallergik reaksiyaning 3 guruxi yarim tuyinmagan yog kislotalarining metabolizmining buzilishi bilan boglikdir. Salitsilat guruxi vositalari yog kislotalari birinchi urinda esa araxidon kislotalarning metabolizmini buzadi. Siklooksigenaza aktivligining pasayishi metabolizm balansining leykotrien xosil bo'lishining Ko'payishiga olib keladi, bu esa shishi, bronxospazmga sabab bo'ladi.

3- amaliy mashg'ulot. Respirator allergiya rinokonyunktivall sindromi bilan. Allergik rinit, qonko'ptivit, pollinoz. Etiologiya, patogenez. Nospetsifik giposensibilizatsiya, spetsifik immunoterapiya.

Klinik mashg'ulot: Provokatsion sinamalar o'tkazish

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|--|--|
| Mashg'ulot vaqti -5 soat | Talabalar soni : 10-12 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Amaliy mashg'ulot |
| <p>Amaliy mashg'ulot rejasi</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> Allergik rinit, konyunktivit klinik kechishlarini Pollinoz etiopatogenezi, klinikasi, davolash taktikasi Bronxospastik sindromlarni taqqoslash Aspirinli bronxial astmaning klinik kechishi Jismoniy zurikish astmasi belgilari | <p>Amaliy mashg'ulotning kisqacha annotatsiyasi</p> <p>Talabalarga rinokonyunktival sindromi, allergik rinit va konyunktivit klinikasini davolash usullarini urgatish. SHu bilan birga pollinoz etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, bronxial astma turlari etiopatogenezi davolash usullari UASH taktikasini urganish</p> |
| <p>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</p> <p>Talabalarga rinokonyunktival sindromida tekshirish usullarini uzlashtirish bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish va urgatish. Allergik rinit, qonn'ko'ptivit, pollinoz epidemiologiyasi, patogenezi, klinika bo'yicha bilim darajalarini rivojlantirish va urgatish. Bronxospastik sindromni taqqoslash bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish va urgatish. Aspirinli bronxial astmaning uziga xosligi bili darajalarini rivojlantirish va urgatish.</p> | <p>Maqsadi yoritiladi.</p> <p>Talabalarga rinokonyunktival sindromida tekshirish usullarini uzlashtirish bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish va urgatish. Allergik rinit, qonn'ko'ptivit, pollinoz epidemiologiyasi, patogenezi, klinika bo'yicha bilim darajalarini rivojlantirish va urgatish. Bronxospastik sindromni taqqoslash bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish va urgatish. Aspirinli bronxial astmaning uziga xosligi bili darajalarini rivojlantirish va urgatish.</p> |
| Ta'lim berish usullari | Multimedia, interfaol usullar |

| | |
|--------------------------|--|
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqichlari va vaqti. | Ta'lim beruvchi | Ta'lim oluvchilar |
|-----------------------------------|---|---|
| Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa | 1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi | Talabalar amaliy mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish | Talabalar tinglaydilar |
| 2 – asosiy bosqich (40 daqiqa) | 1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. " Sinkveyn " usuli Har bir talaba va talabalar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi va besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. 1-bosqich. Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi) 2-bosqich. Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (odatda 2 ta sifat tanlanadi) 3-bosqich. Mavzu doirasida tashkil etiladigan xatti-harakat uchta so'z bilan ifodalanadi (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi) 4-bosqich. Mavzuga nisbatan munosabatni anglatadigan to'rtta so'zdan iborat fikr yoziladi (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi) 5-bosqich. Mavzu mohiyatini takrorlovchi, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta gap yoziladi (mavzuga doir sinonimlar asosida gap yoziladi) 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi (Respirator allergiya rinokonyunktival sindromi bilan. Allergik rinit, konyunktivitt. Pollinoz. Bronxospastik sindromni taqqoslash. Atopik bronxial astma. Aspirinli bronxial astma. Jismoniy zurikish astmasi) 3. Slaydlar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni | Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |

| | | |
|--------------------------------|--|---|
| | umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | |
| Klinik mashg'ulot (120 daqiqa) | Provokatsion sinamalar o'tkazish | |
| 4-yakuniy bosqich (20 daqiqa) | 1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi |
| Jami: 200 daqiqa , 5 soat | | |

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

Allergologiya fani anatomiya, normal fiziologiya, patologik anatomiya va fiziologiya, bioximiya va barcha klinik fanlar bilan integrativ bog'liklikda utiladi va bu fanlardan olingan bilim saviyalari e'tiborga olinadi. «Klinik allergologiya» fanini urganishi talabalarning gumanitar, fizik- ximik, tibbiy fanlar bo'yicha olingan bilimlariga asoslangan, etarlicha chukurligi va kengligi xos, «Davolash ishi» soxasidagi klinik fanlar (terapiya, farmakologiya, dermatologiya, otolaringologiya, reanimatsiya), va pediatriya bilan birlashgan.

Mavzu bayoni: Respirator allergiya rinokonyunktivall sindromi bilan. Allergik rinit, qonko'ptivit, pollinoz. Etiologiya, patogenez. Nospetsetsifik giposensibilizatsiya, spetsifik immunoterapiya.

Respirator allergiya rinokonyunktivall sindrom bilan. Allergik rinit, qonko'ptivit. Pollinoz. Bronxospastik sindromni taqqoslash. Atopik bronxial astma. Aspirinli bronxial astma. Jismoniy zurikish astmasi.

Allergik rinit –etiologik faktorlari allergen bo'lib burun bushligini shilliq qavatini yalliglanishi bilan kechadi

Rinit klassifikatsiyasi: (Ros rinologiya 1996 № 4)

Allergik rinit:

-mavsumiy

-yil davomida (doimiy)

Infeksion rinit:

-o'tkir

-surunkali

Boshqalar:

-idiopatik

-professional

-gormonal

-medikamentoz

-ta'sirlovchi omilga ega moddalar orqali kelib chiqishi

-ovqat maxsulotlari

-ruxiy

-atrofik

Epidemiologiyasi

Allergik kasalliklar urtasida 80 % ni tashkil qiladi. Ko'pgina xollarda allergik va noallergik rinit birgalikda keladi va 87 % ni egallaydi. SHu bilan birga mavsumi rinit 2-3 marta doimiy rinitga nisbatan kam uchraydi. Allergik rinit 13-17 yoshdagi lar orasida Ko'p uchrab 59 % xollarda bronxial astma rivojlanishiga olib keldi. B.M. Bloxin fikricha (1997) doimiy rinitning transformatsiyasi mavsumiy rinitga nisbatan ko'proq namoyon bo'ladi.

Etiopatogenez

B.M.Bloxin (1997)ning aytishicha mavsumiy rinitda allergik reaksiyaning erta fazasi, biologik faol moddalar (gistamin va gistaminga uxshash modda) ajralishi bilan ustunlik qiladi. Doimiy rinitda esa kechki faza Ko'p miqdorda xujayra infiltratsiyasi kuzatiladi. Bunda T limfotsitlar, eozinofillar, bazofillar, neytrofillar maxalliy uchokda yigiladi. Kapillyar utkazuvchanligi oshib shish paydo bo'ladi.

Doimiy allergik rinitni ko'pincha – uy va Korxonalar changi, xayvonlar epidermisi va juni, yostiklar momigi, zamburug sporalari kabi allergenlar chakiradi. Ba'zida (Sooke R.A. va B.S.Preobrajenskiy 1969 y) ovqat allergiyalari ham allergik rinitni chakiradi 4,5 % xollarda.

Doimiy allergik rinitni atopik kasalliklar guruxiga kiradi. Bu kasalliklarning remissiyasi uzok davom etuvchi eliminatsiya (uydan ketish, ta'til, kamandirovka)dan sung bo'lishi mumkin. Bunday doimi va uzok vaqt davom etuvchi morfologik va funksional buzilishlar noantigen ta'sirlovchilar (sovuq, noantigen chang, kuchli xid)ga maxalliy reaksiyalar bilan javob beradi. Doimiy allergik rinitda xarakterli o'zgarishlar maxalliy qon aylanishining buzilishi bilan bogliq, ya'ni yotgan xolda burun orqali nafas olishning qiyinlashuvi qon-tomir tonusining pasayishi bilan boglikdir. Rinit bilan ogrigan bemorlarda gorizontol xolatda intranazal qarshilik o'rtacha 3 martaga ortadi. SHunday dalillar ham borki fizik mashklar davomida nazal obstruksiyaning umuman ko'polishi kuzatiladi. Bu yulduzsimon tugunning blokadası bilan o'zaro boglikdir. Fizik mashkning ta'sir effekti bunda simpatik nerv sistemasi orqali tushuntiriladi.

Klinikasi: doimiy allergik rinitning klinik xolati, allergen xususiyati, organizmning sensibilizatsiya darajasi va allergen bilan o'zaro bogliq likning davomiyligi uzviy xisoblanadi. Pollinozda bo'ladigan klassik allergik rinit klinikasini xayvon epidermal allergenlari bilan bevosita alokada bo'ladigan bemorlarda yuqori sezgirlik xolatlarida kuzatish mumkin. SHu vaqtda bemorda 10-15 minut davomida burun va burun-xalkum yo'llari da kichish, aksirish, burundan Ko'p miqdorda suvsimon ajralmaning kelishi, burun orqali nafas olishning qiyinlashuvi kuzatiladi. Bir vaqtning uzida kovoklarda kichish va kuz yoshi kelishi namoyon bo'ladi.

Tashxis: oilasi va shaxsiy anamnezida allergik rinit bilan bemorlarda ko'pincha atopik kasalliklar aniqlanadi. Rinoskop orqali kurganda burun bushligida shishli, okargan shilliq pardani, burun yo'llari qisman yok ko'proq torayganligi, ajralma suvli yoki shilimshiksimon bo'ladi. Maxalliy vazoqonstriktorlar buyurilgandan sung yana kayta burun bushligi kurilganda, etmoidal sinuslarda poliplarni aniqlash mumkin. Burun-xalkum yuli kurilganda, limfoid to'qima gipertrofiyasini va uvulaning okarganligi va shishgani kuriladi. Burun yon bushliklari R-masida yuqori jag bushligida shilliq pardaning kalinlashganligi aniqlanadi. Qon umumiy taxlilida – eozinofiliya. Maxsus tekshiruvlardan teri sinamasi, nazal provakatsion test, umumiy va maxsus JgE ni aniqlash o'tkaziladi.

Davolash

- 1) Allergen bilan uzviylikni yo'qotish
- 2) Spetsifik giposensibilizatsiya
- 3) Dori vositalari bilan davolash (antigistamin dori vositalari)

Rinit differensial tashxisoti

| Xarakteristikasi | Allergik | | Surunkali infeksiyon |
|------------------|-------------------------------|--------------------------|--|
| | mavsumiy | Doimiy | |
| 1) Etiologiya | Changli allergenlar | Sanoat allergenlari | Autoimmun genezli |
| 2) Anamnez | O'simliklarning gullash davri | Korxonalarni tozalaganda | Yilning sovuq vaqtida URVI |
| 3) Patogenez | JgE | JgE | Murakkab genezli xujayra infiltratsiyasi |

| | | | |
|--|---|-------------------------------------|---|
| 4) Klinik belgilari | Burunda Ko'p shilliq ajralishi kuz yoshi okishi yoruglikdan qo'rqish,qichish,aksirish | Qichish, aksirish, burun bitishi | Burun orqali nafas orasining qiyinlashuvi |
| 5) shilliq pardaning rangi | Oq-ko'kimtir Voyachek dog'lari | oqargan | Sianoz giperemiya bilan |
| 6) SHish | | yengil | yengil |
| 7) Ajralma | Rangsiz, toza | shaffof | Rangi balandrok, mikroflora aniqlanadi |
| 8) Zararlanish maydoni | Rinokonyunktivit faringolaringit | Rinit traxeit | rinit |
| 9)O'zgarishlarning simmetrikligi | simmetrik | simmetrik | Assimetriya bo'lishi mumkin |
| 10)Kaytalanish | Allergendan uzoklashtirganda ko'polishi | Astalik bilan | shilliq parda gipertrofiyasi, polipga utishi mumkin |
| 11) Burun yon bushliklari | Ikki tomonlama gaymaropatiya | - | Anamnezida gaymorit. Etmoidit |
| 12) Fibrorinoskopiya | ko'rsatma | ko'rsatma | Albatta k\sh mumkin |
| 13)Umumiy reaksiyalar | Pollinoz, «changli intoksikatsiya» Qon ko'rsatkichlari o'zgarishsiz | Diskomfort. Qonda o'zgarishlar ko'p | Diskomfort gemogrammada eozinofiliya |
| 14) Burun shilliq qavatidan olingan surtma | eozinofiliya | eozinofiliya | Neytrofillar eozinofillar |
| 15) Skarifikatsion allergik sinamalar | musbat | musbat | Manfiy |

Pollinoz

Pollinoz – pollen-inglizcha suzdan kelib chikaan bo'lib, usimlik changchisi degan ma'noni anglatadi. Asosan nafas yo'llari va kuzning shilliq qavatining o'tkir yalliglanishlari bilan namoyon bo'ladi. Kasallikda aniq mavsumga bogliklik mavjud, ya'ni u ba'zi usimliklarning gullash davrida muvofik ravishda kaytariladi.

Pollinozni kelib chiqishiga sababchi omil- bu usimlik changchisidir. Kishilard allergik rinit rivojlanishi uchun changchi changlanadigan usimlikka tegishli bo'lishi va Ko'p miqdorda xosil bo'lishi, engil uchuvchan bo'lishi va ulchami 35 mk dan katta bulmasligi xamda allergenlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Fakat uziga xos xususiyatga ega bo'lgan changlargina ma'lum sharoitda uni keltirib chikradi. Ular quyidagi xususiyatlardir:

1.Allergenlik xususiyatiga ega bo'lgan

2.O'simlik kelib chiqishi jixatidan shu ulkada keng tarkalgan bo'lishi, uchuvchan bo'lishi, atmosfera xavosida ancha miqdorda saklanib turishi

3.CHangning nafas yo'llari ga qancha chukur kirib borishi, ya'ni changchi zarachasining chukur kirib borshishiga xam boglik bo'lib, 25 mkm atrofida bo'lgan chang nafas yo'llari ning ichki qismlariga kirib boradi va suzuvchanlik sabab bo'ladi. Ulchami 30 mkm dan katta bo'lgan changlar yuqori nafas yo'llari da ushlanib kolinadi.

Pollinozning klinik kurinishi – burun va kuz shilliq qavatlarining yalliglanishi bilan kechadigan shakli (rinokonyunktivall sindrom) pollinozning eng Ko'p uchraydigan turi xisoblanadi. Kuz kichishi va kovoklarni kizarib ketishidan , kuz ichida kum tulib kolgandek xis paydo bo'lganida,

yoruglikka karay olmaslik , kuzdan yosh okishi, ogir xollarda blefarospazm xolatlaridan shikoyat qiladi. CHangli allergik konyunktivitbemorlarning 95 % uchraydi. Pollinozning eng kam uchraydigan kurinishlaridan biri – o’pka dagi eozinofilli infiltrat xisoblanadi.

Tashxislash: pollinozning rinokonyunktivall va astmatik shakllarini tashxislash qiyinchilik tugdirmaydi. U mavsumga boglik bir xil belgilarning shu mavusmda takrorlanishi, iklimning o’zgarishi bilan belgilarning o’zgarishiga asoslangan. Maxsus allergologik tekshirishlar allergologik anamnez yigish, terida sinamalar o’tkazish, ularni tasdiklash maqsadida kuzgash sinamalarini o’tkazishni uz ichiga oladi.

Pollinozni davolashning juda Ko’p usullari mavjud. Rivojlanish mexanizmi bo’yicha davolash usullari kasallikning xuruj davrida xam tinch davrida xam kullanilishi mumkin. Xuruj davrida odatda gistaminga qarshi turli preparatlar 10-15 kun davomida belgilanadi. Intal bilan davolash xam juda yaxshi samara beradi. Preparat kasallikning tinch davrida oldini olish maqsadida belgilanadi. Patologik jarayonning joylashgan urniga muvofik intalning turli xil shakllari qo’llaniladi, ular maxalliy ta’sir kursatadi. Kuzning allergik yalliglanishida –optikrom, burun kasalliklarida –lomuzol, bronxlar yalliglanishida-intal, Oshqozon -ichak yulining allergik kasalliklarida –nalkrom belgilanadi. Davolash uzok vaqt davomida, butun xuruj davrida o’tkaziladi.

4- amaliy mashg’ulot. Bronxospastik sindromini taqqoslash. Atopik bronxial astma.

Aspirinli bronxial astma, jismoniy zo’riqish astmasi.

Klinik mashg’ulot: Pikfloumetriya, spirografiya texnikasini o’tkazish

1.1.Ta’lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|---|---|
| Mashg’ulot vaqti -5 soat | Talabalar soni : 10-12 gacha |
| Mashg’ulot shakli | Amaliy mashgulot |
| Amaliy mashgulot rejasi Reja: 1.Broxospastik sindromlarni taqqoslash 2.Aspirinli bronxial astmaning klinik kechishi 3. Jismoniy zurikish astmasi belgilari | Amaliy mashgulotning kishqacha annotatsiyasi Talabalarga bronxial astma turlari etiopatogenezi davolash usullari UASH taktikasini o’rgatish |
| O’quv mashg’ulotning maqsadi: Bronxospastik sindromni taqqoslash bo’yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish va urgatish. Aspirinli bronxial astmaning uziga xosligi bili darajalarini rivojlantirish va urgatish. | Maqsadi yoritiladi. Bronxospastik sindromni taqqoslash bo’yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish va urgatish. Aspirinli bronxial astmaning uziga xosligi bili darajalarini rivojlantirish va urgatish. |
| Ta’lim berish usullari | Multimedia, interfaol usullar |
| Ta’lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta’lim berish vositalari | O’quv qo’llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar |
| Ta’lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og’zaki nazorat:savol-javob. |

1.2. Amaliy mashg’ulotining texnologik kartasi.

| | | |
|---------------------------|--|-------------------|
| Ish bosqichlari va vaqti. | Ta’lim beruvchi | Ta’lim oluvchilar |
| Tayyorgarlik | 1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi | Talabalar amaliy |

| | | |
|-------------------------------------|--|---|
| bosqichi 5 daqiqa | 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi | mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak |
| 1. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish | Talabalar tinglaydilar |
| 2 – asosiy bosqich (40 daqiqa) | 1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. «Baliq skeleti» usuli "Baliq skeleti" usuli Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivozhlantiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda yuqori "suyagida" kichik muammoni ifodalajdi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavzudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi. Kichik guruhlariga birlashadilar, taqqoslaydilar, o'zlarining chizmlarini to'ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi (Dori allergiyasi. O'tkir toksik reaksiyalar. Toksikodermiya. Laella sindromi. Stvens-Djonson sindromi. Ko'p shaklli eritema) 3. Slaydlar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 3-Klinik mashg'ulot (120 daqiqa) | Pikfloumetriya, spirigrafiya texnikasini o'tkazish | |
| 4-yakuniy bosqich (20 daqiqa) | 1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi |
| Jami: 200 daqiqa , 5 soat | | |

Mavzu bayoni:

Atopik bronxial astma

Atopik bronxial astma – uy changiga sezuvchanlik ortishi natijasida yuzaga keladigan astma xisoblanadi. Nafas siqilishi xurujlari ko'proq uy sharoitida paydo bo'ladi, uydan biror bir boshqa joylarga ketgan xollarda, yashash joyini uzgartirganda xurujlar odatda kamayadi. Bunday bemorlardagi xurujlar tezligini kamaytirish uchun yashash joylarini etarli darajada toza saklash, eski, uziga chang yigiladigan uy jixozlarini, gilamlarni chikarib tashlash, tozalash ishlarini namlangan latta bilan bajarish chang chang yutkich yordamida tozalab chiqish lozim.

Kanalar ta'sirida yuzaga keladigan bronxial astmada nafas sikish xurujlarining tungi soatlarda, ya'ni allergenlar – urin-kurpadagi mayda kanalar bilan ko'proq yaqinlikda bo'ladigan davrda paydo bo'lishi xos xususiyat xisoblanadi.

Zamburuglar ta'sirida yuzaga keladigan bronxial astma zamburuglarning yil davomida atrof muxitga tarkalish miqdoriga boglik xolda kechadi. Zamburuglarning zax xonalarda Ko'p tarkaladigan va yil davomida juda Ko'p miqdorda sporalar xosil qiladigan penicillium, aspergillus, mucor kabi turlariga sezuvchanlik ortgan xollarda esa nafas sikish xurujlari butun yil davomida yuz beradi. Bir qism bemorlar uchun bronxial astmaning atopik dermatit bilan kushilib kelishi xam xos xususiyat xisoblanadi. Juda kam xollarda bronxial astma aloxida, ya'ni fakat bir xil allergenga sensibilizatsiya natijasi kurinishda uchraydi. aksariyat xollarda esa polisensibilizatsiya, ya'ni bir vaqtning uzida bir necha xil allergenlarga sezuvchanlik ortishi natijasi sifatida uchraydi.

Jismoniy zurikishdan yuzaga keladigan astma. Agar o'pka yetishmovchiligi tufayl paydo bo'ladigan bronx yo'llari ning utkazuvchanligi buzilishi bilan boglik bo'lgan nafas sikish jismoniy ish paytida yuzagak elsa, jismoniy zurikishdan yuzaga keladigan astmadagi nafas sikish xolatlari jismoniy ishdan keyingi 10 daqiqa ichida yuzaga keladi. Xurujlar kamdan-kam xollarda ogir kechadi. 5-10 daqiqa davom etadi, ba'zan esa 1 soatgacha chuzilishi mumkin.

Jismoniy zurikishdan yuzaga keladigan astmada astmani tashxislashni poliklinika sharoitida o'tkazish mumkin bo'lgan quyidagi oddiy usul tavsiya qilinadi. Bu usul kasallikning tinch davrida yurak qon-tomir tizimida moneliklar va surunkali o'pka yetishmovchiligi bo'lmagan xollardagina qo'llaniladi. Bemor bronxolitiklar va intal 12 soat davomida qabul kilmasligi kerak. Tekshirishlar o'tkazishdan oldin, o'pka auskultatsiyasi, tomir urish tezligi va pnevmetaxometriya kursatkichlari yozib olinadi. Keyin jismoniy xarakat yugurish yoki utirib, turish mashklarini bajarish buyuriladi. Mashklar tugatilishidan 5,10,15, 20 daqiqa utgach bemorni kaytadan tekshirib kuruladi. Nafas chikarish tezligini 20% va undan ko'proq miqdorda pasayib ketishi sinamani musbat ekanligini kursatadi.

Aspirinli astma

Kasallik yil buyi davom etadigan pollipoz, rinosinusit belgilari bilan boshlanadi. Bemorlarni bir necha marta polioplarni jarroxlik yuli bilan oldirib tashlanishiga karamay, u kayta usib chiqishga moyil bo'ladi. Keyinchalik bevosita navbatdagi polipektomiyadan yoki aspirin, analgin qabul kilingandan keyin bronxial astma boshlanadi. Bo'gilish xurujlari va rinit xurujlari kurnishidagi ogir reaksiyalar chikayotganligini sezib koladilar. Reaksiya preparat qabul kilingandan 15 daqiqa utgach rivojlanadi. Aspirinli uchlik bo'lgan bemorlarga quyidagi dori moddalarini kullash mann etiladi: amidopirin, analgin, aspirin, baralgin, voltaren, diklofenak, sitramon, pentalgin.

Quyidagi maxsulotlar mann etiladi : olma, urik, shaftoli, gilos, malina, kovun, apelsin, olxuri, bodring, garmdori, pomidor.

5 amaliy vashg'ulot. Dori allergiyasi. O'tkir toksik- allergik reaksiyalar- toksikodermiya. Laella sindromi. Stivens- Djonson sindromi. Ko'p shaklli eritema.

1.1 Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

| | |
|--|---|
| Mashg'ulot vaqti -4 soat | Talabalar soni : 10-12 gacha |
| Mashg'ulot shakli | Amaliy mashg'ulot |
| <p>Amaliy mashgulot rejasi</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Dori allergiyasi 2. O'tkir toksik- allergik reaksiyalar-toksikodermiya 3. Laella sindromi. 4. Stivens- Djonson sindromi 5. Ko'p shaklli eritema | <p>Amaliy mashgulotning kishqacha annotatsiyasi</p> <p>Talabalarga dori haqida to'liq tushuncha berish</p> |

| | |
|---|--|
| O'quv mashg'ulotning maqsadi: Dori allergiyasi, O'tkir toksik-allergik reaksiyalar- toksikodermiya, Laella sindromi, Stivens- Djonson sindromi, Ko'p shaklli eritema bo'yicha bilim darajalarini rivojlantirish | Maqsadi yoritiladi. Dori allergiyasi, O'tkir toksik- allergik reaksiyalar- toksikodermiya, Laella sindromi, Stivens- Djonson sindromi, Ko'p shaklli eritema chuqur o'rgatish |
| Ta'lim berish usullari | Multimedia, interfaol usullar |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat:savol-javob. |

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Ish bosqichlari va vaqti.4 soat | Ta'lim beruvchi | Ta'lim oluvchilar |
|-----------------------------------|--|---|
| Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa | 1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi | Talabalar amaliy mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak |
| 1. Mavzuga kirish (5 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish | Talabalar tinglaydilar |
| 2 – asosiy bosqich (20 daqiqa) | 1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. «Yelpig'ich» usuli Mazkur jarayonlar ketma-ketligi tartibsiz ravishda tarqatma material shaklida o'quvchilarga beriladi. Ularga jarayon bosqichlarining ketmaketligini to'g'ri belgilash uqtiriladi. Vazifa avval yakka holda, so'ngra guruh tarzida bajariladi. Guruhda ishlash jarayonida o'quvchilarda o'z fikrini isbotlash, shaxsiy qarashlarini guruh a'zolariga teran yetkazib berish qobiliyati shakllanib boradi. Ushbu xarakterlar orqali o'quvchilarda ishlab chiqarish jarayoni to'g'risida umumiy tasavvur hosil bo'ladi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi (Dori allergiyasi. O'tkir toksik- allergik reaksiyalar- toksikodermiya. Laella sindromi. Stivens- Djonson sindromi. Ko'p shaklli eritema). 3. Slaydlar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| 3-Klinik | <i>Bemorning allergologik pasporti.</i> | |

| | | |
|-------------------------------|--|---|
| <i>mashg'ulot(120 daqiqa)</i> | | |
| 4-yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 1. YAkunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyg'a vazifa beradi | Tinglaydi YOzib oladi YOzib oladi |
| Jami: 160 daqiqa , 4 soat | | |

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

Allergologiya fani anatomiya, normal fiziologiya, patologik anatomiya va fiziologiya, bioximiya va barcha klinik fanlar bilan integrativ bogliklikda utiladi va bu fanlardan olingan bilim saviyalari e'tiborga olinadi. «Klinik allergologiya» fanini urganishi talabalarning gumanitar, fizik- ximik, tibbiy fanlar bo'yicha olingan bilimlariga asoslangan, etarlicha chukurligi va kengligi xos, «Davolash ishi» soxasidagi klinik fanlar (terapiya, farmakologiya, dermatologiya, otolaringologiya, reanimatsiya), va pediatriya bilan birlashgan.

Mavzu bayoni

5-mavzu: Dori allergiyasi. O'tkir toksik- allergik reaksiyalar- toksikodermiya. Laella sindromi. Stivens- Djonson sindromi. Ko'p shaklli eritema.

Klinik mashg'ulot: Bemorning allergologik pasporti.

Dori allergiyasi. O'tkir toksik reaksiyalar. Toksikodermiya. Laella sindromi. Stivens Djonson sindromi. Ko'p shaklli eritema

Dori allergiyasi

Inson kundalik xayotida turli sabablar tufayli turli — tuman dori vositalarini qabul qiladi. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar va shaxsiy kuzatuvlar shuni kursatadiki, dori allergiyasi immunologik mexanizmlar asosida rivojlanib, juda keng tarkalgan emas. 1960—1970 yillargacha doridan paydo bo'ladigan barcha nojuya ta'sirlar allergiya deb qabul kilingan. Keyingi yillarda bunday karashlar tulik uzini oklamaganligi sababli, doridan bo'ladigan nojuya xolatlar allergiyadan tashkari enzimopatik defektlar yoki boshqa mexanizmlar sababli kelib chiqadi deb isbotlandi. Bu doridan bo'ladigan nojuya ta'sirlar tashki kurinishi bilangina allergiyaga uxshashi mumkin, unga immun mexanizmlar ishtirok etmaydi.

| O'quv mashg'ulotning maqsadi: 1. Zardob kasalligi mavzusi bo'yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish 2. Anafilaktik shok mavzusi bo'yicha bilim darajalarini rivojlantirish | Maqsadi yoritiladi. 1. Anafilaktik shok. Klinik variantlari, kechishi tashxislash, davolash usullarini urgatish 2. Zardob kasalligi etiopatogenzi, klinikasi, tashxislash va davo choralari chukur urgatish |
| Ta'lim berish usullari | Multimedia, interfaol usullar |
| Ta'lim berish shakllari | Ommaviy, jamoaviy |
| Ta'lim berish vositalari | O'quv qo'llanma, elektron darslik, kompyuter, multimediyalar |
| Ta'lim berish sharoiti | Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | Og'zaki nazorat: savol-javob. |

1.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

| | | |
|--------------------|-----------------|-------------------|
| Ish bosqichlari va | Ta'lim beruvchi | Ta'lim oluvchilar |
|--------------------|-----------------|-------------------|

| | | |
|-----------------------------------|---|--|
| vaqti. 4 soat | | |
| Tayyorgarlik bosqichi 5 daqiqa | 1.Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3.Davomatni nazorat qiladi | Talabalar amaliy mashgulotga tayyor bulishi kerak, davomat tulik bulishi kerak |
| 1. Mavzuga kirish (5 daqiqa) | 1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish | Talabalar tinglaydilar |
| 2 – asosiy bosqich (20 daqiqa) | 1. Talabalarni kichik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. " Venn diagrammasi " usuli Venn diagrammasi - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Venn diagrammasi tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni to'ldiradilar.Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi (Dori allergiyasi tezkor turdagi ogir reaksiya rivojlanishi bilan. Anafilaktik shok. Immunokompleksli dori allergiyasi. Zardob kasalligi) 3. Slaydlar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi | Kichik guruhlarga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar |
| Klinik mashg'ulot (120 daqiqa) | Eliminatsion testlar o'tkazish texnikasi | |
| 3-yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi | Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi |
| Jami: 160 daqiqa , 4 soat | | |

Boshqa fanlar bilan integratsiyasi

Allergologiya fani anatomiya, normal fiziologiya, patologik anatomiya va fiziologiya, bioximiya va barcha klinik fanlar bilan integrativ bog'liklikda utiladi va bu fanlardan olingan bilim saviyalari e'tiborga olinadi. «Klinik allergologiya» fanini urganishi talabalarning gumanitar, fizik- ximik, tibbiy fanlar bo'yicha olingan bilimlariga asoslangan, etarlicha chukurligi va kengligi xos, «Davolash ishi» soxasidagi klinik fanlar (terapiya, farmakologiya, dermatologiya, otolaringologiya, reanimatsiya), va pediatriya bilan birlashgan.

Mavzu bayoni: Dori allergiyasi tez orada ogir reaksiya rivojlanishi bilan. Anafilaktik shok. Immunokompleksli dori allergiyasi. Zardob kasalligi

Anafilaktik shok - shifokorlar fikricha, allergik xolatning eng kurkinligi kurinishi xisoblanadi. Kasallikning ikki xil kurinishi bo'lib, ularni belgilari jixatidan juda tez utadigan xamda sekinroq rivojlanadigan turlarga bo'lish mumkin.

Tez, yashin tezligida utadigan anafilaktik shokda kasallikning belgilari xaddan tashkari tez boshlanib, rivojlanadi va bir necha daqiqa davomida ulim b t n tugaydi. Bemorga oldiniga xolsizlik, tush orkasida og'riq, kungil aynishi, ulim talvasasi paydo bo'lib, tezda xushini ko'potadi. Bularning xammasi shunchalik tez sodir bo'lishi, bemor qanday qilib xushini ko'potganligini aytib ulguradi, xolos. Bu xolda bemorlardan sovuq ter chiqadi, rangi buzarib ketadi, ayniksa yuz kurinishi aloxida tusga kirib, bir necha daqiqa ichida uzgarib ketadi. Tomir urishi ipsimon, kuchsiz va yuzaki yoki bilinar-bilinmas bo'ladi.

Kuchsiz eki yuzaki urishi shark tibbietida «vey» deb ataladi, tomirni qattiqrok bosib ko'rish bilan aniqlanadi. Bunday puls - vey - odam tanasining kuvati nixoyatda pasayganda sodir bo'lib, qattiq kungil aynishi, terlash alomatlari bilan kechadi va kasallikning nixoyat darajada xavfliligidan darak beradi. Agar anafilaktik shok xalkum shishi bilan sodir bo'lsa, stridor tusiga kiradi. Bunda bemorning oz terisi kukargan bo'lib, buyin venalari burtib chiqadi va yakkol kuzga tashlanadi. Ko'pincha bemorda klonik tortishuv alomatlari sodir bo'lib, u siydigini va ichini tutolmaydi. Ayrim xollarda tabiiy a'zolarining teshiklaridan (ogiz, kulok, anus, jinsiy a'zoldan) qon ketish alomati xam kuzatiladi. Anafilaktik shokning sekinroq utadigan turida kasallikning shiddatli boshlanishi kuzatilmaydi: bemor tanasida issiklik belgisi, kulok shangillashi, xolsizlik, tomoqda kichishish alomatlari, kuz shilliq pardasida yalliglanish, esh okishi, quruq qattiq chiyillash alomati bilan yo'tal butun organizm buylab kichishish sezgisi, qorinda tutib-tutib bo'ladigan qattiq og'riq, ich kelishi Xozirgi zamon davolash usullari xam bunday shokda yordam bera olmaydi. Ba'zi bir xollarda ulim Xiqildoqda paydo bo'ladigan shishdan bo'ladi. Ko'pchilik xollarda shokka qarshi qo'llaniladigan dori-darmonlar uz vakgida ishlatilganda bemor asta-sekin uz xoliga kela boshlaydi, qon bosimi kutarilada va tomir urishi joyiga tusha boshlaydi.

SHuni xak eslatib utish kerakki, bemorda birorta antibiotikka sezgirlik oshib ketgan bo'lsa usha antibiotik ishlatilgan soxada uning xidiga xam shok belgilari yuzaga kelib, xatto kasallik yana takrorlanishi mumkin. Tibbiy adabiyotlarda bir bemorda anafilaktik shokning bir necha marta takrorlanganligi xakida dalillar bor. Anafilaktik shokda yurak toj qon tomirlarida etishmovchilik belgilari paydo bo'lib, bu xol yurak mushaklarining xam zararlanishiga (anafilaktik shokdan kelib chiqadigan miokardit) olib kelishi mumkin.

Dori-darmonlarga anafilaktik shok paydo bo'lgan bemorlarga xar qanday dorini qabul qilishda extiyotkorlik takozo qilinadi.

Anafilaktik shokning bir necha klinik turlari mavjud.

Gemodinamik turi - bunda yurak qon - tomir tizimidagi buzilishlar boshqalardan ustunlik qiladi: yurak soxasida og'riqlar, qon bosimining pasayishi, terida mikrotsirkulyasiyaning buzilishi (bemor rangi okarib eki kizar b ketishi), aritmiya kuzatiladi. U ko'pincha ishemik kasalliklari eki miokard infarkti bilan kushilib kelishi mumkin.

Serebral turi - Bu xollarda MNS buzilishi bilan boglik o'zgarishlar kuzatiladi. Bemorlarda ulimdan kurkish xissi, talvasa, nafas olish va qisqarishdagi buzilishlar miya shishi belgilari qayd etiladi. SHokning keyinchalik rivojlanishi okibatida nafas va yurak faoliyati to'xtab kolishi, meningial belgilar va xushini ko'potish xolatlari yuz berishi mumkin.

Asfiktik (bo'gilish turi) - Bemorlarda xikkildok, o'pka shishi va ronxospazm paydo bo'ladi.

Abdominal turi - bunda kungil aynishi, qayd qilish, oshqozon soxada og'riqlar bo'lib, ko'pincha o'tkir qorin belgilari elgondan namoen bo'lishi mumkin, ba'zan ichak titilishi, axlat bilan qon kelishi xam kuzatiladi. Ayollarda tuxumdon va bachadon soxalarida og'riq bo'lishi mumkin.

Anafilaktik shok kechishiga kura yashin tezlikda kechadigan, kaytalanadigan va abortiv (xamma belgilarsiz, tez tugaydigan).

YAshin tezlikda kechadigan turlarida xet uchun muxim azolarning zararlanishi bilan boglik bo'lgan ulim xollari odatda shokning birinchi daqiqa larida va soatlarida yuz beradi. Abortiv shokning klinik belgilarida birdaniga tuzatish bo'ladi va klinik sogayish yuzaga keladi Kaytalanuvchi kechishda esa klinik sogayishdan 1 necha soatdan keyin shok YAna ogir kechishda kaytalanishi mumkin.

Anafilaktik shokning kechish ogirrigiga karab 3 bosqichga bo'linadi

1. engil bosqich - 2 minutdan 2 soatgacha davom etadi. Bunda teri kizarishi, tomoq ko'rishi, burun okishi, bosh aylanishi, bosh ogrigi, qon bosimi ko'tarilishi, taxikardiya, xolsizlik kuzatiladi.

2. xolsizlik, ko'rishning buzilishi, kuzgalish xolati, ulimdan kurkish, terining okarishi, sovuq ter chiqishi, eshitish pasayishi, kulok shangillashi, oshqozon -ichak, nafas, buyraklar tomondan buzilishlar bilan namoen bo'ladi.

3. ogir bosqichi. - kollaps (rang okarib ketishi), sianoz, ipsimon puls qon bosimi pasayishi, xushdan ketish, koma xolati, qorachiklar kengayishi, yurak va nafas faoliyatlarining tuxtashi bilan namoen bo'lishi mumkin.

Anafilaktik shok tashxisini qo'yishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Allergoanamnez
2. Allergik sinamalar (tomchi, skarifikatsiya, applikatsiya, teri orasiga prik-test, provakatsion v.x.k.)
3. Laborator usullar (SHelli testi, tuyingan xujayralar degeneratsiya testi, leykotsitlar tuplanish reaksiyasi, RAST va x.k.)

Davolash

Anafilaktik shokni davolash oson ish emas. Bunda xar bir daqiqa kimmatli bo'lib, uni kuldan boy bermaslik darkor. Shifokor saviyasining pastligi xamda anafilaktik shokka qarshi kurashni tashkil kila olmaslik va uning bemor tepasida esankirab kolishi davoning muvaffakkiyatsiz chiqishiga olib kelishi mukarrar. Anafilaktik shokda bemorga quyidagicha yordam kursatilishi kerak.

1. Bemorga yordam ko'rsatish uchun ikkita shifokor va tajribali xamshira kerak. Bir shifokor kasalning qon bosimini ulchash bilan band bo'lsa, ikkinchi shifokor bemorga dori darmonlar buyurib, uni xamshira yordamida amalga oshirish bilan shugullanadi.

2. Bemorning qoniga shokka sababchi allergenning tushishini albata to'xtatish darkor. Buning uchun dori yuborilgan yoki xasharot chakkan joydan yuqorida jgut boglanadi.

3. Anafilaktik shok xolatida dori-darmonlar ichida yordam berib, ulimdan olib keladigan adrenalin va uning guruxidagi preparatlar xisoblanadi. SHuning uchun xam shifokor anafilaktik shokda bemor ogir xavfli xolatdan chiqib, qon bosimi kutarilgunga kadar adrenalin kullanilishi kerakligini unutmashligi lozim. Avvalo xasharotlar chakkan joy atrofiga teri ostiga, mushak orasiga 0,1% 0,3-0,5 ml adrenalin eritmasi yuboriladi. Xasharot chakkan joydan uning nishtarini olib tashlash kerak. U joyni ukalash man etiladi, chunki xar bir ukalash xarakati qon tomirlariga allergenlarning surilishini tezlashtiradi.

1. Teri ostiga 0,1% adrenalin, kordiamin, 10% kofein eritmasi yuboriladi. Bolaning xar bir 1kg ogirrigida 10 mgdan (prednizolon xisobida gormon yuboriladi. Prednizoloni venaga, gidrokortizonni esa bir vaqtning uzida mushak orasiga yuborish kerak. Adrenalin bilan muolaja qilish 10-12 daqiqa da uz ta'sirini ko'rsatmasa, qon bosimi kutarilgunga kadar yana adrenalin kullash kerak bo'ladi. Adrenalinni 20 ml 40% glko'poza bilan venaga yuborish mumkin.

2. Boshqa vena tomiriga 150-200 ml 5% glyukozaga 0,5 ml adrenalin eki noradrenalin aralashtirib, tomchi xolida yuboriladi. Lozim topilsa, yana shu eritmaga 0,05% strafantin, prednizolon kushish mumkin. Kasallikka o'pka shishi kushilgan xollarda bu aralashmaga furosemid eritmasini xam kushish mumkin. Agar yurak qorinchasida yetishmovchilik xamda bronx mushaklarida spazm sodir bo'lsada 9% fiziologik eritmaga strofantin va bolaning xar bir eshiga 1mlndan 2,4% eufillin kushib (10 mldan oshmasligi darkor) venaga yuboriladi.

1. Penitsillin antibiotikini kullashdan kelib chiqqan anafilaktik shokka mushak orasida bir marta 1000000 TB penitsillinazani 2 ml fiziologik eritmasiga eritib yuboriladi. Agar shok bitsilindan kelib chiksa, 3 kun mobaynida bir maxal pennitsilinaza yuboriladi, bolalarda esa 600000 TB qo'llaniladi.

2. Yurak to'xtab qolgudek bo'lsa, uzun muuloja ignasi yordamida 0,3 -0,5 ml kata eshdagi kishilarga esa 1 ml 0,1% adrenalini yurak ichiga kiritilib, yurak atrofida epik ukalash (massaj) qilinadi.

Z. Tirishish alomatlari paydo bo'lganda venaga droperidol eritmasini yuborish kerak bo'ladi.

4. Gistaminga qarshi ishlatiladigan dori-darmonni juda extietlik bilan ishlatish lozim bo'ladi, chunki bu dorilarning ko'p qismi miyaning pustlok qavatiga ta'sir qilib, chukur uykuga sabab bo'ladi va qon bosimini tushiradi.

SHularni xisobga olgan xolda gistaminga qarshi ishlatiladigan dorilarni qon bosimi kutarilgandan keyin zarurat bo'lgandagina kullash kerak bo'ladi.

Dori moddalari quyidagi ketma- ketlikda belgilanadi: dastlab - adrenergik preparatlar (adrenalin, noradrenalin) kiritiladi. Undan keyin esa gistaminga qarshi preparatlar (suprastin, tavegil, dimedrol). Keyin buyrak usta bezlari pustlok qismi gormonlari - glko'kortikoidlar (prednizolon va boshqalar kiritiladi). Undan keyin nafas va yurak faoliyatini yaxshilovchi preparatlar (strofantin, kofein, kardiamin lobilin) belgilanadi. Bemorga albatta kislorod beriladi. SHokning bo'gilish bilan kechadigan turlarida kushimcha ravishda eufillin qilinadi. Talvasa tirishish xollari bo'lganda aminozin, dropiredol qo'llaniladi. Klinik ulim xollari yuz berganda bemorlar reanimatsiya bo'limida utkazilib u erda sun'iy o'pka ventilyasiyasi, miyada xaroratni pasaytirish (gipotermiya), yurakni bevosita va bilvosita ukalash ishlari o'tkaziladi.

Transfuzion terapiya utkazilib bu quyidagi maqsadlarda qilinadi: dezintoksikatsiya (gemodez), ko'potilgan energiya urnini to'ldirish (glyukoza)- suv tuz muvozanatini me'yorlashtirish (reopoliglyukin), DVS sindromiga qarshi kurash, kamqonlikni davolash shular jumlasidandir. Ikkilamchi infeksiya qo'shilganda antibiotiklar qo'llaniladi. Xozirgi paytda ekstrakorporal davolash usullari xam keng tarkalgan: gemosorbsiya (bemor qonidan dori gaptenlarini chikarib tashlash), plazmoforez. Maxsus davolashda bemor eritrotsitlari va limfotsitlarining xuruj paytida olingan lizat tarkibiy qismlarini kiritish xam muvafakiyatli kullanilmokda.

Zardob kasalligi

Allergik kasallik bo'lib, geterologik eki gomologik zardob eki preparatlarning kiritish natijasida paydo bo'lib, tomirlarning va biriktiruvchi to'qimaning yalliglanish xarakteridagi zararlanishi bilan kechadi.

Klinikasi zardobni birlamchi kiritganda nosensibilizatsiyalashgan shaxsda o'tkir reaksiyadan oldin inkubatsion davr kelib chiqadi. Bu davr in'eksiyadan 7-10 kunni tashkil qiladi. Prodromal davrda: giperimiya, giperisteziya, regional limfa tugunlarining kattalashuvi in'eksiya joyida bir oz toshmalar ko'rinadi. Kasallikning o'tkir davri tana xaroratining subfibril darajadan 39 – 4- gradus S gacha ko'tarilishi bilan boshlanadi.

Davolash.

Og'ir umumiy reaksiya kelib chiqqan davrda anafilaktik shokka qarshi ishlar olib boriladi. Kasallikning engil formasida kalsiy preparatlari, askorutin, antigistamin vositalari bilan chegaralanish mumkin. Kichishni kamaytirish uchun ilik vannalar, terini 5% li mentol spirti bilan artish kerak. O'rtacha va ogir formalarida antikoagulyantlar, bo'g'im zararlanishida yalliglanishga qarshi nosteroid preparatlar beriladi, ba'zan delogil yaxshi natija beradi. Yurak va nerv sistemasi zararlanganda Kortikosteroidlar beriladi. Rivojlangan shishda siydik xaydovchi vositalar o'tkaziladi.

Astmatik statusda birinchi yordam. Astma xurujini to'xtatishda simpatomimetiklar, xolinolitiklar ksantinli birikmalardan foydalaniladi. Simpatomimetiklar bronx sillik mushaklarning V- adrenergik retseptorlari funksional aktivligini oshirish natijasida ijobiy o'zgarish kuzatiladi.

1.3. Mustaqil ish mavzulari

1. Allergologiya tarixi va rivojlanishi etaplari; allergologiya rivojida xorijiy va vatandosh olimlarning qo‘shgan xissalari; allergologiyani boshqa fanlar bilan yondosh (terapiya, immunologiya, klin.farmakologiya, dermatologiya, otolaringologiya, reanimatsiya, pediatriya).
2. Teri o‘zgarishlari elementining birlamchi va ikkilamchi o‘zgarishlar xarakteristikasi.
3. Immun tizimining tuzilishi va vazifalari; eng tarqalgan allergiyaga qarshi dorilarning nojuya ta’siri.
4. Nasliy angionevrotik shishi; etiopatogenezi, klinikasi, taqqoslash, yordam ko‘rsatish, oldini olish.
5. Oziq- ovqat allergiyasi- yoshga bog‘liq hususiyatlari. Tashxislash, davolash, reabilitatsiya, dispanserizatsiya tamoyillari
6. Pirogen reaksiya, klinika, tez yordam. Stivens-Djonson sindromi, taqqoslash, zardobs.mon reaksiyalar. Klinik (umumiy qon, peshob, balg‘am taxlili). Bioximik, immunologik tekshirishlar, bakteriologik (balg‘am, burun va tomoq shilik qavatidan surtma); Instrumental tekshirishlar endoskopiya, bronxoskopiya, spirometriya pikfloumetriya, ko‘krak qafasi, burun oldi bo‘shliqlari rentgenografiyasi, rinoskopiya). EFGDS, UZI, EKG. Oziq- ovqat allergiyasi- yoshga boglik xususiyatlari. Tashxislash, davolash, reabilitatsiya, dispanserizatsiya tamoyillari.

2. Glossariy

Allergiya-yunoncha-begona ta’sir

Anafilaksiya-ximoya

Bazofillar –granulotsitlarning bir turi

V-limfotsit -gumoral immunitetga javobgar limfotsit

Vazomotor rinit- noallergik, noinfeksion, eozinofillar Ko‘payishsiz va gormonga boglik bo‘lmagan rinit

Dimedrol- antigistamin dori vosita

Gistamin –allergik reaksiyaning patoximik davrida katnashadigan biologik modda xisoblanadi

Gapten- Dori va kimeviy elementlardan tashkil topgan allergen

Degranulyasiya – sitoplazmatik granulalarning ko‘plishi (eozinofillar, bazofillar, bulutsimon xujayralar.)

Immunoterapiya- Bemor organizmiga sezuvchanligini pasaytirish maqsadida allergenlar yuborish

Idiosinkraziya- Odam organizmining ba’zi ovqat va dori moddalalarga nisbatdan irsiy ortiqcha sezuvchanlik

Immunorestavratorlar-immunoglobulinlar, interferon, timalin

Ig E - Tez rivojlanuvchi allergiyani keltirib chiqaradigan immunoglobulin

Intal- Membranani stabillashtiruvchi dori-darmonlar

Insekt allergiya- xasharotlar zaxridan kelib chiqadigan allergiya

Isteriya-xaddan tashqari ruxiy qo‘zgalishlar natijasida yuzaga keladigan xolat

Qavarchiq- birlamchi element bo‘lib terining so‘rgich qavatida joylashgan

Migratsiya- Ko‘chish

Maxsus tashxis usuli- allergeoanamnez yigish, teridagi allergik sinamalar, provokatsion usullar, immunologik testlar yordamida tekshirish

Noinfeksion ekzoallergenlar-Uy ro‘zgor allergenlari

Provokatsiya- suzi ma’nosi «ko‘zgash»

Paraallergiya-organizmning antigen tabiatiga ega bo‘lmagan allergenga javob reaksiyasi

Rinit- burun bo‘shligining shilliq qavatining yalliglanishi

Kon’yunktivit- ko‘z shiliq qavatining yalliglanishi

MNS- markaziy nerv sistemasi

Trombotsitopenik indeks - trombositlar sonining allergenni tanaga kiritguncha va tanaga kiritgandan keyingi farqidir

Skarifikator- sterillangan maxsus igna

Sekin kechuvchi allergiya- T-limfotsitlar keltirib chikaradigan allergiya

Fab- fragment antitelo antigenni birlashtirishdan immun birikma

Fagotsitoz- immunitetning boshlangich oldingi davri xisoblanadi

sAMF-sikliy adenozinmonofosfat

sGMF-sikliy guanozinmonofosfat

SHokli a'zo- kasallikning klinikasini yuzaga chikaradigan a'zo yoki tuqima

Ekzoallegenlar- allergen insonning o'rab turgan muxitda yashaydi

YAlliglanish sitokinlr- makrofag va monotsitlar ishlab chikaradigan sitokinlar

Urticariia- eshakem

3. Ilovalar

3.1. Fan dasturi

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди
№ Б 5510100 - 3.24
2013 йил "13" сентябр

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим
Вазирлигининг 2013 йил "13"
сентябрдаги "82"-сонли
буйруғи билан тасдиқланган



Loguev

КЛИНИК АЛЛЕРГОЛОГИЯ
фанининг

ЎҚУВ ДАСТУРИ

Билим соҳаси: 500000 - Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий таъминот
Таълим соҳаси: 510000 - Соғлиқни сақлаш
Таълим йуналиши: 5510100 - Даволаш иши
5111000 - Касбий таълим (5510100- Даволаш иши)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди
№ _____
201_ йил “__” _____

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлигининг 201_ йил “__”
_____даги “__”-сонли буйруғи
билан тасдиқланган

КЛИНИК АЛЛЕРГОЛОГИЯ
фанининг

ЎҚУВ ДАСТУРИ

Билим соҳаси: 500000 - Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий таъминот
Таълим соҳаси: 510000 - Соғлиқни сақлаш
Таълим йуналиши: 5510100 - Даволаш иши
5111000 - Касбий таълим (5510100- Даволаш иши)

Тошкент – 201_

Фаннинг ўқув дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгашининг 201_ йил «__»даги «__»-сон мажлис баёни билан маъқулланган.

Фаннинг ўқув дастури Тошкент тиббиёт академиясида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

Назаров А.А. – ТТА УАШт клиник аллергология кафедраси
профессори

Низамов К.Ф. – УАШТ клиник аллергология кафедраси катта ўқитувчиси

Назаров Ж.А. – УАШТ клиник аллергология кафедраси ассистенти т.ф.н.

Такризчилар:

Мавлянова Ш.А. Ўз РССВ ихтисослаштирилган илмий амалий дерматология венерология тиббий марказини дерматология бўлими раҳбари т.ф.д.

Ирсалиева Ф.Х. –ТТА УАШТ клиник аллергология кафедраси ассистенти т.ф.н.

Фаннинг ўқув дастури Тошкент тиббиёт академияси Илмий-услубий кенгашида тавсия қилинган (201_ йил « » _____ « »- сонли баённома)

Кириш

Фаннинг бакалавр тайёрлашдаги ўрни ва ахамияти. Жаҳон Соғлиқни Сақлаш ташкилоти сўнгги 10 йил ичида энг кўп ва кенг миқёсида тарқалиб бораётган ва долзарб муаммоларга олиб келаётган аллергик хасталикларга катта эътибор қаратмоқда. Жаҳон Соғлиқни Сақлаш ташкилоти эпидемиологик маълумотларига кўра сўнгги 10 йил ичида (2000 йил) 40 фоиз ахоли атопик хасталикларга чалинган. Илмий текшириш маълумотларига кўра аллергик хасталиклар ортиб бормоқда, ва шу маълумотларга кўра ноинфекцион пандемия сунгги 10 йил ичида ортиб бормоқда. (А.Г.Чучалин,2001).

Аллергик хасталиклар кенг миқёсида тарқалиб борар экан, ахоли турмуш тарзига ҳам ўз салбий таъсирини кўрсатиб бормоқда (мехнат қобилятини йўқотиш, ногиронлик, ўлим). Бу кўрсаткичлар нафақат соғлиқни сақлаш ташкилотларига, балки иқтисодий йўналишга ҳам ўз салбий таъсирини кўрсатмоқда. Ачинарли томони шуки бундай хасталик билан хасталанганлар асосан мехнат қобилятига эга бўлган ёшлар орасида, ҳамда индустриал ривожланган регионларда ортиб бормоқда. Респиратор аллергозлар Республикамиз ахолисини 10% дан ортиғини қамраб олмоқда. Дори аллергияси ҳам бундан кам бўлмаган ҳолда ортиб бормоқда.

Шу йўналишдаги хасталиклар турли соҳадаги мутахассис шифокорларга мурожаат этадилар ва кўпинча ноўрин даво муолажаларини қабул қилиб хаттоки кўнгилсиз ходисалар билан яқунланмоқда. Шуларни эътиборга олган ҳолда Тиббиёт

талабаларини аллергология соҳасида ўқитиш зарурлиги мақсадга мувофиқдир. Врач аллерголог мутахасислиги каби аллергология фани узоқ йиллардан бери мустақил шаклланиб ўрганилмоқда.

Ўқув фанининг мақсади ва вазифалари

УАШнинг фаолиятидаги фаннинг аҳамияти. Ўзбекистон Республикасида ихтисослашган аллергологик хизмат тизимини ташкил қилиниши. Аллергик касалликларнинг таснифи ва ўзига хос хусусиятлари, ривожланиш патогенетик механизмлари, аллергик касалликларнинг асосий тасхишлаш усуллар асослари, аллергик касалликларни даволаш, замонавий препаратлар, техник воситалар ва уларни қўллаш усуллари, аллергик касалликларни олдини олиш бирламчи ва иккиламчи тадбирлари.

Фан бўйича талабаларнинг билимига, кўникма ва малакасига қўйиладиган талаблар

Тиббиёт институтлар даволаш соҳаси 6 курс бакалавр учун бўлган клиник аллергология бўйича намунавий дастур аллергология соҳасидаги замонавий ютуқлар ва умумамалиёт шифокорини тайёрлашда Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни Сақлаш эҳтиёжларига кўра, тиббий ёрдам кўрсатиш, аллергик касалликлар эпидемиологияси, ўзларини даволаш ва олдини олиш ҳақидаги концепсиясининг асосий мезонларини ҳисобга олган ҳолда тузилган.

Бакалавр қуйидагилар тўғрисида тасаввурларга эга бўлиши лозим :

- клиник аллергология фанининг мақсади ва вазифаларини, УАШнинг фаолиятидаги унинг аҳамиятини
- Ўзбекистон Республикасида аллергологик касалликларни даволаш хизматини ташкил қилишни.
 - аллергик касалликларининг таснифи ва ўзига хос хусусиятларини.
 - аллергик касалликларнинг ва иммун тизимининг ёшга кўра хусусиятларини.
- аллергик касалликларнинг ривожланиш ва тобора тарқалишнинг умумий сабабларини.
 - аллергик касалликларнинг ривожланишига соматик касалликларнинг таъсирини.
 - аллергик касалликлар ривожланишининг патогенетик механизмларини
 - аллергик касалликларнинг асосий диагностик белгиларини.
 - ташхислаш усуллари асосларини
 - аллергологик анамнезни йиғиш хусусиятларини
 - замонавий препаратлар, техник воситалар ва уларни қўллаш усулларини.
 - аллергик касалликларни олдини олиш бирламчи ва иккиламчи тадбирларини
 - дори аллергиясида кесишган реакция ривожланиши нуқтаи назаридан даволаш тактикасини
 - даволаш самарасини баҳолаш мезонларини
 - реабилитация ва диспансеризация асосларини
 - кечиктириб булмайдиган ҳолатларда тез ёрдам кўрсатиш тамойилларини.

Бакалавр билиши ва фойдалана олиши лозим :

- мустақил равишда ўқув, илмий адабиёт билан ишлаш.
- аллергик касалликларнинг асосий диагностик белгиларини аниқлаш.
- аллергик беморни асосий ва фон касалликлари нуқтаи назаридан керакли текшириш режасини тузиш.

- умумамалиёт шифокорига оид аллергик синамаларини танлаш ва ўтказиш.
- специфик текширишга аллергологга юбориш кўрсатмаларни аниқлаш.
- лаборатор инструментал текшириш натижаларини тахлил қилиш.
- клиник таххисни асослаш
- хақиқий ва псевдоаллергик ҳолатларни таққослаш.
- специфик ва носпецифик гипосенсибилизацияни ўтказиш учун кўрсатмаларни аниқлаш.
- бронхиал обструкцияни қайтиш - қайтмаслигини аниқлаш.
- бронхларнинг яширин гиперреактивлигини аниқлаш.
- шошилиш ҳолатларда (тарқалган эшакэми, Квинке шиши, инсект аллергия, Лайелла синдроми, бронхиал астма хуружи, анафилактик шок) тиббий ёрдам кўрсата олиш.
- тиббий хужжатларни юритиш асосларига эга бўлиши

Бакалавр тажрибага эга бўлиши лозим :

- мустақил равишда аллергик беморни кўриш
- клиник (умумий қон, пешоб, балғам, тахлили), биохимик ва иммунологик тахлилларни аллергик касалликлар нуқтаи назаридан интерпретацияси
- пикфлоуметрияни ўтказиш ва инструментал текширишлар (кўкрак қафаси, бурун олди бушлиқлари рентгенографияси, риноскопия, спирометрия) интерпретацияси аллергик касалликлар нуқтаи назаридан
- бронхиал обструкцияни қайтиш - қайтмаслигини аниқлаш.
- провокацион синамаларни ўтказиш ва натижалари интерпретацияси
- ингаляцион воситаларни қўллаш
- шошилиш аллергик ҳолатларда (тарқалган эшакэми. Квинке шиши, инсект аллергия, Лайелла синдроми, бронхиал астма хуружи, анафилактик шок) ёрдам кўрсатиш.

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвий кетма-кетлиги

«Клиник аллергология» фанини ўрганиши талабаларнинг гуманитар, физик - химик, тиббий фанлар бўйича олинган билимларига асосланган, етарлича чуқурлиги ва кенглиги хос, «Даволаш иши» соҳасидаги клиник фанлар (терапия, клиник фармакология, дерматология, отоларингология, реанимация), «Педиатрия» билан бирлашган.

Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар

Талабаларнинг клиник аллергология фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларида фойдаланиш, янги информацион-педагогик технологияларни татбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, компьютер дастурлари, электрон материаллардан видеотизимлардан фойдаланилади. Маъруза ва амалий дарсларда мос равишдаги илғор педагогик технологиялар қўлланилади.

Асосий қисм

АЛЛЕРГОЛОГИЯДА ТЕКШИРИШ УСУЛЛАРИ: аллергологик анамнез.

- провокацион, элиминацион синамалар. Клиник (умумий қон, пешоб, балғам тахлили) ва инструментал текширишлар (спирометрия, пикфлоуметрия, кўкрак қафаси, бурун олди бушлиқлари рентгенографияси, риноскопия).

Биохимик, иммунологик, бактериологик (балғам, бурун ва томоқдан суртма), эндоскопия (бронхоскопия, ЭФГДС), УЗИ, ЭКГ, ошқозон ва 12 бармоқ ичак ширасининг тахлили.

ДЕРМАТОЛОГИК СИНДРОМНИ ТАҚҚОСЛАШ:

Тери кичиши, шиш, тошмалар. Эшакеми. Квинке шиши.

Этиологияси. Патогенези. Таснифи. Клиникаси (тери ўзгаришларининг тавсифномаси).

Тарқалган эшак эми. Квинке шиш (хиқилдоқ соҳасида, абдоминал, церебрал шакли).

Ташхислаш. Даволаш. Олдини олиш.

Псевдоаллергия. Ички аъзолар, эндокрин, асаб тизими касалликларида теридаги ўзгаришлар.

Аллергия ривожланишида наслий ва физик омилларнинг ахамияти. Ташхислаш ва даволаш тактикаси.

Теридаги 1 ва 11 - чи элементлар, наслий ангионевротик шиш. Сабаблари, даволаш.

Озиқ - овқат аллергияси - ёшга боғлиқ хусусиятлари. Ташхислаш, даволаш, реабилитация, диспансеризация тамойиллари.

Атопик дерматит.

Этиопатогенези. Клиникасининг ёшга боғлиқ хусусиятлари. Ташхислаш: анамнез, теридаги хос белгилар (ок дермографизм, Дени чизиғи, аллергик порлаш ва б.), IgE миқдори ошиши. Даволаш: патогенетик, симптоматик, ошқозон- ичак трактининг бузилишларни, дисбактериозни даволаш. Реабилитация.

Контактли аллергик, оддий контактли дерматит. Аллергия ва хомиладорлик. Хомиладор ва эмизувчан аёлнинг озиқланиши, эмизиш аллергик касалликларни перенатал даврида олдини олиш омиллари сифатида. Аллергик боланинг озиқланиши.

РЕСПИРАТОР АЛЛЕРГИЯ РИНОКОНЪЮКТИВАЛ СИНДРОМИ БИЛАН.

Аллергик ринит, конъюнктивит. Ноинфекцион экзоаллергенлар ахамияти (майший, ўсимлик чанги, эпидермал, дорилар). Патогенези, таснифи клиникаси (мавсумий - интермиттик, йил бўйи кечадиган - персистик). Таққослаш: ноаллергик, атрофик, медикаментоз, хомиладорлар ринити.

Ташхислаш: анамнез, клиника. Клиника ринорскропия. IgE миқдорини аниқлаш. Даволаш тамойиллари: авж даврида -УАШ, ремиссия даврида - аллерголог. Олдини олиш.

Поллиноз, эпидемиология, замонавий концепция: бир нафас олиш йўли бир касаллик. Клиникасининг варианлари: риноконъюнктивал синдроми, бронхоспастик синдром, ундан ташқари эшак эми, Квинке шиши, дерматит вульвит, цистит, арахноэнцефалит, ошқозон - ичак йўли шикастланиши бўлиши мумкин.

Ташхислаш. Даволаш. Носпецифик гипосенсибилизация. Специфик иммунотерапия. Олдини олиш.

БРОНХСПАТИК СИНДРОМНИ ТАҚҚОСЛАШ.

Атопик бронхиал астма. Этиопатогенез.

Ташхислаш: атопиянинг шахсий анамнези, касалликнинг бошланиши, продромал белгилар борлиги, элиминациянинг мусбат самараси, эозинофилия, IgE миқдори ошиши, тери синамалар, бронхиал обструкциянинг қайтиш қайтмаслиги. Даволаш, ингаляцион воситалар, Специфик иммунотерапия. Олдини олиш.

Гиперэозинофилия синдроми. Экзоген аллергик альвеолит, эозинофилли зотилжам, упка аспергиллези.

Аспиринли бронхиал астма.

Патогенезида ўзига хослиги (простагландинлар синтези бузилиши). Аспирин учлик (астма, буруннинг рецидивловчи полипоз, салицилатларни кўтара олмаслик). Провокацион синомалар (аспирин билан, в - блокаторлар билан).

Даволаш - ингаляцион кортикостероидлар, лейкотриенларга қарши дорилар, кальций антагонистлари. Олдини олиш (пархез табиий салицилатларни, ностероид яллиғланишга қарши моддалар, астмага қарши кушма моддаларни истисно қилиш билан.)

Жисмоний зўриқиш астмаси. Этиопатогенез:

Трахея, ва бронхлар рецепторларнинг ўзига хос хусусиятлари; вагуснинг қўзғалиши, тўйинган хужайралар дегрануляцияси. Ташхислаш: анамнез, жисмоний юклама билан синама ўтказиш. Даволаш - жисмоний юкламага чидамлилигини ошириш, ингаляцион мембраностабилизаторлар.

ДОРИ АЛЛЕРГИЯСИ.

Поливалентли сенсбилизация. Аллергик реакциянинг патогенезидаги 4- та тури.

Ўткир токсик - аллергик реакциялар - токсикодермия. Ташхислаш: анамнез, «айбдор» дори билан боғлиқлиги, мусбат элиминацион тести. In vitro шароитида ташхислаш. Даволаш. Олдини олиш.

Дори моддаларга псевдоаллергик реакциялар. Соматик патологиянинг ахамиятлилиги. Пироген реакциялар.

Лайелла синдроми.

Этиологияси (инфекцион, дори моддаларга боғлиқ, аралаш, идиопатик, реэпителизация.)

Ташхислаш: (анамнез, клиника, Никольский, Асбо-Ганзе белгилари мусбатлиги). Даволаш.

Реабилитация. Олдини олиш.

Стивенс -Джонсон синдроми, қўп шаклли эксудатив эритема.

ДОРИ АЛЛЕРГИЯСИ ТЕЗКОР ТУРДАГИ ОҒИР РЕАКЦИЯ РИВОЖЛАНИШИ БИЛАН.

Анафилактик шок. Этиопатогенез. Клиника вариантлари (гемодинамик, асфиксик, церебрал, абдоминал) . Ташхислаш.

Тез ёрдам курсатиш. Шифохонага ётқизиш учун кўрсатмаларни аниқлаш.

Олидини олиш: (полипрагмазия, ўзини ўзи даволаш, кесишган сенсбилизация, беморнинг алергологик паспорти).

Анафлактоид шок. Сабаблари. Таққослаш, даволаш олдини олиш. Инсект аллергия.

ИММУНОКОМПЛЕКСЛИ ДОРИ АЛЛЕРГИЯСИ.

Зардоб касаллиги. Этиопатогенез (зардоб юбориши). Клиникаси (анамнез, тери қичиши, инъекция ўрнида тошма, регионар лимфаденит, артритлар, полисерозитлар). Таккослаш. Даволаш.

Олдини олиш (зардобларни кўрсатмалар бўйича алергоанамнезни ҳисобга олган ҳолда қўллаш).

Зардобсимон реакция, юкумли касалликларда экзантемаларни таққослаш.

Амалий машғулотларни ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Умумамалиёт шифокорини алергик касалликларини таққослаш даволаш ва олдини олиш чоралари бўйича тайёрлашни таъминлаш.

Амалий машғулотлар учун зарурий талаблар.

Вазифалари:

- Энг кўп таркалган аллергия касалликларни этиологияси патогенези, клиникасини хусусиятлари, аллергиялогик текшириш усуллари бўйича назарий билимларни такомиллаштириш;
- Аллергологик касалликларни дифференциал таққослаш даволаш тактикаси, олдини олиш бўйича билимлар ва кўникмалар мажмуасини шакллантириш;
- Аллергологик беморларни курациясини ўзига хос хусусиятларини ўрганиш: аллергиялогик анамнезни йиғишда ўзига хослиги, аллергиялогик касалликларни асосий диагностик белгиларни аниқлаш, тахминий ташхисни асослаш, лаборатор - инструментал режасини тузиш, аллергиялогик синамаларни танлаш ва ўтказиш, псевдоаллергия холатларни таққослаш, даволаш тактикаси, меҳнатга лаёқатлиги, реабилитация ва диспанцелизация хусусиятларини аниқлаш;
- Шошилишч аллергия холатларда тез ёрдам кўрсатиш, бўлимларга ётқизиш кўрсатмаларини аниқлаш, принципларини ўрганиш.
- Соғлом ҳаёт тарзи (хужалик маданияти атроф муҳит ва уйнинг гигиенаси мунтазам овқатланиш ва бошқалар), эмизиш, дориларни кўп истеъмол қилишдан сақланиш.
- Умумамалиёт шифокорларини аллергия хасталиклар бўйича тайёрлаш сифатини ошириш.

Амалий машғулотларда талабалар аллергиялогик анамнез йиғиш услублари, аллергиялогик тери синамалари ва уларни баҳолаш мезони, аллергия хасталикка чалинган беморларни курация қилишни ўрганадилар.

Амалий машғулотларнинг тахминий тавсия этиладиган мавзулари:

Амалий машғулотлар кафедрасида ишлаб чиқарилган ва тасдиқланган режа бўйича ўтказилади ва қуйидагилардан иборат:

- билимини (ёки талабалар мазкур фанни ўтиш учун тайёргарлигини) текшириш.
- талабаларнинг мустақил тайёрланиш натижасидаги назарий билимларини ситуацион (вазият) масалаларини ечиш, реал ўйинлар ёрдамида назорат қилиш
- аллергиялогия бўлимида мустақил ишлаш (мавсумли беморни кўриш, аллергиялогик анамнез йиғиш, касалликнинг асосий ва қўшимча белгиларини аниқлаш, тахминий ташхисни асослаш, текшириш режасини тузиш).
- аллергия синамаларни танлаш ва ўтказиш (УАШга оид).
- касаллик тарихи билан ишлаш (лаборатор инструментал текширишлар интерпретацияси, клиник ташхисни асослаш касаллик белгиларини таққослаш ҳисоби билан);
- аллергиялогияда кўп қўлланиладиган дориларга рецепт ёзиш.
- ўргатувчи ва назорат қилувчи тест топшириқларни ечиш.
- шошилишч вазиятда ёрдам кўрсатиш
- муамоларни гурпуада муҳокама қилиш (дискуссия)
- курация килинган беморларнинг касаллик тарихини баҳолаш.
- ингаляцион дори воситаларини қўллаш (дозаланган аэрозоли ингалятор, спейсер, спинхаллер, трубоспрей ва бошқалар).
- шошилишч ёрдам кўрсатиш (Квинке шиши, бронхиал астма хуружида инсект аллергиясида, анафилактик шокда).
- Аллергия хасталикларни стационар шароитида даволаш учун кўрсатмалар.

Амалий машғулотларни ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар асосий маъруза мавзулари бўйича олган билим ва кўникмаларини амалий масалалар ечиш орқали янада бойитадилар. Шунингдек, дарслик ва ўқув қўлланмалар асосида талабалар билимларини

мустаҳкамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билимини ошириш, масалалар ечиш, мавзулар бўйича кўргазмали куроллар тайёрлаш ва бошқалар тавсия этилади.

Мустақил ишни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни

Талаба мустақил ишини тайёрлашда фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда куйидаги шакллардан фойдаланиш тавсия этилади:

- дарслик ва ўқув қўлланмалар бўйича фан боблари ва мавзуларини ўрганиш;
- тарқатма материаллар бўйича маърузалар қисмини ўзлаштириш;
- автоматлаштирилган ўргатувчи ва назорат қилувчи тизимлар билан ишлаш;
- махсус адабиётлар бўйича фанлар бўлимлари ёки мавзулари устида ишлаш;
- Янги техникаларни, аппаратураларни, жараёнлар ва технологияларни ўрганиш;
- талабанинг ўқув-илмий-тадқиқот ишларини бажариш билан боғлиқ бўлган фанлар бўлимлари ва мавзуларни чуқур ўрганиш;
- фаол ва муаммоли ўқитиш услубидан фойдаланиладиган ўқув машғулоти;
- масофавий (дистанцион) таълим.

Тавсия этилаётган мустақил ишларнинг мавзулари:

- Наслий ангионевротик шиши; этиопатогенези, клиникаси, таққослаш, ёрдам кўрсатиш, олдини олиш;
- Аллергология тарихи ва ривожланиши этаплари;
 - аллергия ривожда хорижий ва ватандош олимларнинг қўшган хиссалари;
 - аллергияни бошқа фанлар билан ёндош (терапия, иммунология, клин, фармакология, дерматология, отоларингология, реанимация, педиатрия).
 - Иммуно тизимининг тузилиши ва вазифалари;
 - клиник, биохимик, инструментал текшириш усуллари;
 - энг тарқалган аллергияга қарши дориларнинг ноқулай таъсири.

Пироген реакция, клиника, тез ёрдам Стивенс - Джонсонс синдроми, таққослаш, зардобсимон реакциялар.

Клиник (умумий қон, пешоб балғам таҳлили).

Биохимик, иммунологик текширишлар, бактериологик (балғам, бурун ва томоқ шиллик қаватидан суртма);

Инструментал текширишлар (эндоскопия, бронхоскопия, спирометрия, пикфлоуметрия, кўкрак кафаси, бурун олди бўшлиқлари рентгенографияси, риноскопия). ЭФГДС, УЗИ, ЭКГ. Тери ўзгаришлари элементининг бирламчи ва иккиламчи ўзгаришлар характеристикаси. Озиқ - овқат аллергияси - ёшга боғлиқ хусусиятлари. Ташхислаш, даволаш, реабилитация, диспансеризация тамойиллари.

Дастурнинг информацион-услубий таъминоти

Мазкур фанни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилиши назарда тутилган.

- барча мавзулар бўйича маъруза машғулотида замонавий компьютер технологиялари ёрдамида презентацион ва электрон дидактик технологияларни;

- фаннинг умумий ва хусусий бўлимларига тегишли мавзуларида ўтказиладиган амалий машғулотларда ақлий ҳужум, қора қути, ўргимчак ини, гуруҳли фикрлаш педагогик технологияларини қўллаш назарда тутилади.

Дарсликлар, қўлланмаларнинг рўйхати
асосий:
Асосий адабиётлар

1. Бронхиальная астма. Глобальная стратегия. Совместный доклад Национального института Сердце, Легкие, Кровь (США) и Всемирной организации Здравоохранения / Пульмонология. 1996. приложение.
2. Назаров А.А. Атопическая бронхиальная астма. Т. 1994.
3. Назаров О.А., Юлдашева Ф.У. Аллергология. Т. 2001
4. Пыцкий В.И., Адрианова Н.В., Артомасова А.В. Аллергические заболевания. М. 1999
5. Убайдуллаев А.М., Якимова М.А., Узакова Г.Т. Бронхиальная астма. / метод, рекомендации для врачей Т., 2001.

Қўшимча:

1. Аллергические болезни. / Под ред. А.Г. Чусалина (пер с англ.) М. 2000.
2. Бережная Н.М., Бобкова Л.П., Петровкина И.А. Аллергология / Словарь – справочник К. 1986.
3. Даминов Т.О., Ладодо К.П. Питание матери и младенца.
4. Либерман Ф., Кроуфорд Л. Лечение больных аллергией. М. 1986.
5. Мошкевич в.С, Назаров А.А. Респираторные аллергии. Т. 1990.
6. Потемкина А.М. Диагностика и лечение аллергических заболеваний у детей. К. 1990
7. Пыцкий В.И. Псевдоаллергия / Терапевт. Архив. 1991. с. 133- 137.
8. Справочник врача общей практики. / под. ред. Н.П. Полева М. 2002.
9. Студенкин М.Я. Балаболкин И.И. Аллергические болезни у детей. М. 1998.
10. Федосеев Г.Б., Убайдуллаев А.М., Ранняя диагностика и первичная профилактика бронхиальной астмы. Т. 1989.
11. Федосеев Г.Б., Петрищев Н.Н. Евсюкова Е.В. Аспириновая астма / Терапевт. Архив 1997. №3. стр-64.
12. Хакбердиев М.М. Обидов СБ. Аллергическая заболеваемость населения Ташкента. Т.1993.

3.2. Ishchi o'quv dasturi

О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI,
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

Xalq tabobati, ftiziatriya, sport tibbiyoti kafedراسи

O'quv bo'limi tomonidan
ro'xatga olindi № _____
«_____» _____ 2019y.

«TASDIQLAYMAN»
O'quv va tarbiyaviy ishlari bo'yicha prorektori
_____ G.J.Jarilkasino
«_____» _____ 2019 y.

ALLERGOLOGIYA FANI BO'YICHA

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 510000 - Sog'likni saqlash
Ta'lim yunalishi: 5510100 - Davolash ishi
5111000 - Kasbiy ta'lim (5510100- Davolash ishi)

Davolash ishi:

Kurs - 6
Soat hajmi - 54 soat
SHu jumladan:
Ma'ruza - 6 soat
Amaliy mashg'ulot - 10 soat
Klinik mashg'ulot- 18 soat
Mustaqil ish - 20 soat

Kasbiy ta'lim

Kurs - 6
Soat hajmi - 52 soat
Ma'ruza - 6 soat
Amaliy mashg'ulot - 10 soat
Klinik mashg'ulot- 18 soat
Mustaqil ish - 18 soat

Buxoro - 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Qodirova SH.S - Xalq tabobati, sport tibbiyoti, kasb kasalliklari kafedrası assistenti

Taqrizchilar:

Nasirova M.SH -“Fakultet va gospital terapiyasi” kafedrası dotsenti

Babadjanova Z.X.- Ichki kasalliklar propedevtikasi, va oliy hamshiralik ishi kafedrası mudiri t.f.n.

Ushbu ishchi dastur namunaviy o'quv dasturi va o'quv reja asosida 5510100 – davolash ishi yo'nalish bo'yicha tuzilgan va kafedra yilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Bayonnoma № _____ « _____ » _____ 2019 y.

Kafedra mudiri:

(imzo)

FUK rahbari:

(imzo)

Ushbu ishchi dastur o'quv dasturi va o'quv reja asosida 5510100 – davolash ishi yo'nalish bo'yicha tuzilgan va Buxoro davlat tibbiyot instituti markaziy uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Bayonnoma № _____ « _____ » _____ 2019 y.

Uslubchi: Jumaeva SH.B.

(imzo)

1.Kirish

Fanning bakalavr tayyorlashdagi o'rnini va ahamiyati. Jahon Sog'likni Saqlash tashkiloti so'nggi 10 yil ichida eng ko'p va keng miqyosida tarqalib borayotgan va dolzarb muammolarga olib kelayotgan allergik xastaliklarga katta e'tibor qaratmoqda. Jahon sog'likni saqlash tashkiloti epidemiologik ma'lumotlariga ko'ra so'nggi 10 yil ichida (2000 yil) 40 foiz aholi atopik xastaliklarga chalingan. Ilmiy tekshirish ma'lumotlariga ko'ra allergik xastaliklar ortib bormoqda, va shu ma'lumotlarga ko'ra noinfeksion pandemiya so'nggi 10 yil ichida ortib bormoqda. (A.G.CHuchalin,2001). Allergik xastaliklar keng miqyosida tarqalib borar ekan, aholi turmush tarziga xam o'z salbiy ta'sirini ko'rsatib bormoqda (mehnat qobiliyatini yo'qotish, nogironlik, o'lim). Bu ko'rsatgichlar nafaqat solg'liqni saqlashga tashkilotlariga balki iktisodiy yo'nalishga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Achinarli tomoni shuki bunday xastalik bilan xastalanganlar asosan mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlar orasida xamda industrial rivojlangan regionlarda ortib bormoqda. Respirator allergozlar Respublikamiz axolisini 10% dan ortiini qamrab olmoqda. Dori allergiyasi xam bundan kam bo'lmagan holda ortib bormoqda. SHu yo'nalishdagi xastaliklar turli sohadagi mutaxassis shifokorlarga murojaat etadilar va ko'pincha noo'rin davo muolajalarini qabul qilib xattoki ko'ngilsiz xodisalar bilan yakunlanmoqda. SHularni e'tiborga olgan xolda Tibbiyot talabalarini allergologiya sohasida o'qitish zarurligi maqsadga muvofikdir. Vrach allergolog mutaxassisligi kabi allergologiya fani uzoq yillardan beri mustaqil shakillanib o'rganilmoqda.

1.1 Fanning maqsad va vazifalari

Maqsadi va vazifalari:

UASHning faoliyatidagi fanning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida ixtisoslashgan allergologik xizmat tizimini tashkil qilinishi. Allergik kasalliklarning tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish patogenetik mexanizmlari, allergik kasalliklarning asosiy tashxislash usullar asoslari, allergik kasalliklarni davolash, zamonaviy preparatlar, texnik vositalar va ularni qo'llash usullari, allergik kasalliklarni oldini olish birlamchi va ikkilamchi tadbirlari.

1.2 Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar Talaba bilishi kerak:

Tibbiyot institutlar davolash soxasi 6 kurs bakalavr uchun bo'lgan klinik allergologiya bo'yicha namunaviy dastur allergologiya soxasidagi zamonaviy yutuqlar va umumamaliyot shifokorini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Sog'likni Saqlash extiyojlariga ko'ra, tibbiy yordam ko'rsatish, allergik kasalliklar epidemiologiyasi, o'zlarini davolash va oldini olish xakidagi konsepsiyasining asosiy mezonlarini xisobga olgan xolda tuzilgan.

Bakalavr to'risida tasavvurlarga ega bo'lishii lozim :

klinik allergologiya fanining maqsadi va vazifalarini, UASHning faoliyatidagi uning ahamiyatini

- O'zbekiston Respublikasida allergologik kasalliklarni davolash xizmatini tashkil qilishni
- allergik kasalliklarining tasnifi va o'ziga xos xususiyatlarini
- allergik kasalliklarning va immun tizimining yoshga ko'ra xususiyatlarini
- allergik kasalliklarning rivojlanish va tobora tarqalishning umumiy sabablarini
- allergik kasalliklarning rivojlanishiga somatik kasalliklarning ta'sirini
- allergik kasalliklar rivojlanishining patogenetik mexanizmlarini
- allergik kasalliklarning asosiy diagnostik belgilarini
- tashxislash usullari asoslarini
- allergologik anamnezni yigish xususiyatlarini
- zamonaviy preparatlar, texnik vositalar va ularni ko'llash usullarini
- allergik kasalliklarni oldini olish birlamchi va ikkilamchi tadbirlarini

- dori allergiyasida kesishgan reaksiya rivojlanishi nuqtai nazaridan davolash taktikasini
- davolash samarasini baxolash mezonlarini
- reabilitatsiya va dispanserizatsiya asoslarini
- kechiktirib bo'lmaydigan xolatlarda tez yordam ko'rsatish tamoyillarini

Bakalavr bilishi va foydalana olishi lozim :

- mustaqil ravishda o'quv, ilmiy adabiyot bilan ishlash.
 - allergik kasalliklarning asosiy diagnostik belgilarini aniqlash.
 - allergik bemorni asosiy va fon kasalliklari nuqtai nazaridan kerakli tekshirish rejasini tuzish.
 - umumamaliyot shifokoriga oid allergik sinamalarini tanlash va o'tkazish
 - spetsifik tekshirishga allergologa yuborish ko'rsatmalarini aniqlash
 - laborator instrumental tekshirish natijalarini taxlil qilish
 - klinik tashxisni asoslash
 - xaqiqiy va psevdoad allergik xolatlarni taqqoslash
 - spetsifik va nospetsifik giposensibilizatsiyani o'tkazish uchun ko'rsatmalarini aniqlash
 - bronxial obstruksiyaning qaytish - qaytmasligini aniqlash
 - bronxlarning yashirin giperreaktivligini aniqlash
 - shoshilinch xolatlarda (tarqalgan eshakemi, Kvinke shishi, insekt allergiya, Laella sindromi, bronxial astma xuruji, anafilaktik shok) tibbiy yordam ko'rsata olish
 - tibbiy xujjatlarni yuritish asoslariga ega bo'lishi
- Bakalavr tajribaga ega bo'lishi lozim :**
- mustaqil ravishda allergik bemorni ko'rish
 - klinik (umumiy kon, peshob, balgam, taxlili), bioximik va immunologik taxlillarni allergik kasalliklar nuqtai nazaridan interpretatsiyasi
 - pikfloumetriyani o'tkazish va instrumental tekshirishlar (ko'krak qafasi, burun oldi bo'shliqlari rengenografiyasi, rinoskopiya, spirometriya) interpretatsiyasi allergik kasalliklar nuqtai nazaridan
 - bronxial obstruksiyaning qaytish - qaytmasligini aniqlash.
 - provokatsion sinamalarini o'tkazish va natijalari interpretatsiyasi
 - ingalyasion vositalarni ko'llash
 - shoshilinch allergik xolatlarda (tarqalgan eshak emi. Kvinke shishi, insekt allergiya, Laella sindromi, bronxial astma xuruji, anafilaktik shok) yordam ko'rsatish.

3. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi.

“SWOT-tahlil” usuli

